



"Navoiyazot"
aksiyadorlik jamiyati

2024-yil uchun barqaror rivojlanish to'g'risidagi hisoboti

**Ekologik va ijtimoiy mas'uliyat –
taraqqiyotning asosi**

MUNDARIJA

<p>Boshqaruv raisining murojaati 3</p> <p>2024-yildagi asosiy voqealar 5</p> <p>Jamiyat faoliyatining 2024-yil uchun asosiy ko'rsatkichlari 7</p>	<p>1 Jamiyat haqida 8</p> <p>Jamiyat haqida ma'lumot 9</p> <p>Rivojlanish tarixi 11</p> <p>Rivojlanish strategiyasi 12</p> <p>Hisobot haqida 13</p>	<p>2 Faoliyatni boshqarish 14</p> <p>Korporativ boshqaruv 15</p> <p>ESG-boshqaruv 22</p> <p>Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatlar 23</p> <p>BMTning BRMga erishishga qo'shgan hissasi 26</p> <p>Ichki va tashqi audit 27</p> <p>Sifat boshqaruvi 27</p> <p>Korrupsiyaga qarshi kurashish 27</p> <p>Fikr bildirish mexanizmlari 32</p>	<p>3 Bizning xodimlar 34</p> <p>Boshqaruvga yondashuv 35</p> <p>Kadrlar bilan ishlash 35</p> <p>Kadrlarni tayyorlash va rivojlantirish 40</p> <p>Yoshlar siyosati 41</p> <p>Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash 42</p> <p>Xilma-xillik va inklyuzivlik 45</p>
<p>4 Atrof-muhitni muhofaza qilish 48</p> <p>Ekologik boshqaruv tizimi 49</p> <p>Iqlim o'zgarishi 52</p> <p>Atmosfera emissiyalari 58</p> <p>Energiya menejmenti 59</p> <p>Chiqindilarni boshqarish 62</p> <p>Suv resurslarini boshqarish 64</p> <p>Mahsulot sifati va xavfsizligi 66</p>	<p>5 Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi 67</p> <p>MMQ va SX masalalarini boshqarishga yondashuv 68</p> <p>Xavfsizlik madaniyatini oshirish hamda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik masalalari bo'yicha o'qitish 69</p> <p>Jarohatlanishning oldini olish 70</p> <p>Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik 72</p>	<p>6 Mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlash 73</p> <p>Boshqaruv yondashuvi 74</p> <p>Xayriya va homiylik 74</p> <p>Faoliyat yuritilayotgan hududlarni rivojlantirish 75</p>	<p>7 Ilovalar 77</p> <p>1-ilova. GRI/ SASB Content Index mundarijasi 78</p> <p>2-ilova. Qo'shimcha ma'lumot 86</p> <p>3-ilova. Glossariy 87</p> <p>4-ilova. Bog'lanish uchun ma'lumot 88</p>

BOSHQARUV RAISING MUROJAATI

GRI 2-22



«Ushbu hisobot korxonamiz modernizatsiya, texnologik innovatsiyalar va xalqaro integratsiya tamoyillariga to'liq sodiqlik bilan harakat qilayotgan transformatsiya va barqaror o'sish yo'lini aks etadi.»

SAMADOV Farrux Xamzayevich
"Navoiyazot" AJning
Boshqaruv Raisi

HURMATLI AKSIYADORLAR, HAMKORLAR VA HAMKASBLAR!

E'tiboringizga "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil uchun Barqaror rivojlanish to'g'risidagi hisobotini taqdim etaman. Ushbu hisobot korxonamiz modernizatsiya, texnologik innovatsiyalar va xalqaro integratsiya tamoyillariga to'liq sodiqlik bilan harakat qilayotgan transformatsiya va barqaror o'sish yo'lini aks etadi.

"Navoiyazot" AJ O'zbekiston kimyo sanoatining yetakchi korxonalaridan biri bo'lib, jahon iqtisodiy muammolari sharoitida biz barqaror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini namoyish etishda davom etmoqdamiz, yirik investitsiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshiryapmiz va yangi eksport bozorlariga, jumladan, Yevropa Ittifoqi yo'nalishidagi bozorlarga chiqmoqdamiz. 2024-yilda "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyati tomonidan 450,6 ming tonna mahsulot eksport qilindi, bu umumiy savdo hajmining qariyb 15 % ni tashkil etdi. Jami eksport tushumi 100 mln 243 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Asosiy eksport mahsulotlari karbamid, ammiakli selitra va PVX bo'lib, Shvetsiya, Ruminiya, Latviya, Litva, Turkiya va Qozog'iston kabi 15 dan ortiq mamlakatlarga yetkazib berildi.

2024-yilda "Navoiyazot" AJda asosiy mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 3 040,9 ming tonnaga yetdi, bu ishlab chiqarish jarayonlarini izchil modernizatsiya qilish, diversifikatsiya qilish va samaradorligini oshirish natijasidir. Mahalliy xomashyo va materiallar asosida import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarish yaratish maqsadida 2024-yilga mo'ljallangan mahalliyashtirish dasturiga asosan "Navoiyazot" AJga umumiy qiymati 2 021,7 mlrd so'mlik 8 ta loyiha kiritildi. Yil yakuniga ko'ra, mazkur loyihalar bo'yicha amalda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 2 354,5 mlrd so'mni tashkil etib, shundan, 2 212,6 mlrd so'mlik mahsulot buyurtmachilarga sotildi. Shunday qilib, belgilangan reja 116,5 % ga bajarildi.

Xususan, mahalliyashtirilgan mahsulotlarning asosiy turlari bo'yicha sezilarli natijalarga erishildi:

- **Kaustik soda:**
50 ming tonna rejalashtirilgan bo'lsa, amalda
56,1 ming tonna (112,2 %) ishlab chiqarildi;
- **Polivinilxlorid (PVX):**
50 ming tonna rejalashtirilgan bo'lsa,
50,3 ming tonna (100,6 %) ishlab chiqarildi;
- **Natriy sianid eritmasi:**
51 ming tonna rejalashtirilgan bo'lsa,
54,1 ming tonna (106,1 %) ishlab chiqarildi;
- **"A" navli metanol:**
18 ming tonna rejalashtirilgan bo'lsa,
23,5 ming tonna (130,6 %) ishlab chiqarildi;
- **Sulfat kislota:**
33 ming tonna rejalashtirilgan bo'lsa,
38,5 ming tonna (116,7 %) ishlab chiqarildi;
- **Kalsiy nitrat, tiokarbamid va poliakrilamid gel ham rejadan ortiq bo'lib, hajm va daromad sezilarli darajada o'sdi.**



Ammiak va karbamid, polivinilxlorid, kaustik soda va metanol ishlab chiqarish komplekslarini qurish kabi so'nggi yillarda amalga oshirilgan loyihalar nafaqat ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirishga, balki ekologik va energiya samaradorligining eng yuqori talablariga javob berishga imkon berdi. Biz katta faxr bilan ta'kidlaymizki, ammiak va karbamid ishlab chiqarish majmuasi dunyoning yetakchi kompaniyalari — Mitsubishi Heavy Industries Ltd, Mitsubishi Corporation, Haldor Topsoe, Saipem hamda Uhde bilan hamkorlikda barpo etilgan. Bu bizga barqaror kimyo sohasida jahon yetakchilari tomonidan e'tirof etilgan ilg'or texnologiyalarni joriy etish imkonini berdi. Masalan, eski birinchi bosqichdagi ammiak ishlab chiqarish obyektining umumiy energiya iste'molini (1 t ammiak uchun 13,2 Gkal) yangi ishlab chiqarish objekti bilan (1 tonna ammiak uchun 8,2 Gkal) solishtirsak, mahsulot birligiga tog'ri keladigan energiya sarfining sezilarli darajada kamayganini qayd etishimiz mumkin. Natijada biz 2024-yilda atmosferaga issiqxona gazlari chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirdik, bu esa bizning ekologik mas'uliyat va «yashil» o'tish yo'lidagi sodiqligimizni namoyish etadi.

Biz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlar sanoatni yangilash va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha strategik kursini har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz. Davlat rahbari 2019-yil dekabr oyida PVX majmuasini ishga tushirish marosimida bunday loyihalar mintaqaviy iqtisodiy o'sish va aholi bandlegini ta'minlovchi omil ekanini ta'kidlagan edi.

“Navoiyazot” AJ uglerod izini kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va energiya samaradorligini oshirish ustida faol ish olib bormoqda. Korxonada iqlim siyosati sohasida davlat tomonidan tartibga solishning rivojlanishini diqqat bilan kuzatib bormoqda, issiqxona gazlari chiqindilarini nazorat qilmoqda va yangi talablarga to'liq mos kelishini ta'minlashga tayyor. “Yashil” o'tish muammo sifatida emas, balki xalqaro bozorlarda, ayniqsa, CBAM va JST iqlim kun tartibi talablarini inobatga olgan holda, o'z o'rnimizni mustahkamlash uchun imkoniyat sifatida qaralmoqda.

“Navoiyazot” AJ korporativ ijtimoiy mas'uliyatini amalga oshirishda faol ishtirok etadi. Biz ta'lim va ilmiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaymiz, faxriylar, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga yordam ko'rsatamiz, hududiy infratuzilmani rivojlantirishga ko'maklashamiz. 2024-yilda xayriya va homiylik dasturlari uchun 50 mlrd so'mga yaqin mablag' yo'naltirildi.

Aksiyadorlarimizga, sheriklarimizga, xalqaro va mahalliy investorlarga ishonch va samarali hamkorlik uchun Rahbariyat nomidan chuqur minnatdorlik bildiraman. “Navoiyazot” AJning butun jamoasiga fidokorona mehnati va umumiy ishga ishonchi uchun alohida tashakkur bildiraman.

Inson kapitali - kompaniyamiz muvaffaqiyatining poydevoridir. Korxonada

8 000
dan ortiq yuqori malakali mutaxassislar mehnat qilib,

ularning har biri korxonada rivojiga salmoqli hissa qo'shmoqda. Biz zamonaviy o'quv dasturlarini joriy etmoqdamiz, martaba o'sishi uchun imkoniyatlar yaratmoqdamiz va xodimlarning farovonligiga katta e'tibor beryoqdamiz. O'zbekiston Respublikasi Hukumati, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda boshqa davlat tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash uzoq muddatli strategiyamizni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.



2025-yilda korxonamiz modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, xalqaro bozorlarda o'z mavqeiini mustahkamlash va **ESG-tashabbuslarini** izchil amalga oshirishni davom ettiradi. Biz barqaror rivojlanish bo'yicha ilg'or tajribalarni faol joriy etamiz, atrof-muhit va ijtimoiy omillarga ta'sirimizni minimallashtiramiz va kelajak uchun mustahkam poydevor yaratamiz.

Biz 2025-yilga aniq **strategik yo'nalish**, yangi ulkan maqsadlar va sifat, **barqarorlik va innovatsion rivojlanishga sodiqlik bilan qadam qo'ymoqdamiz.**



2024-YILDAGI ASOSIY VOQEALAR

FEVRAL



Investitsiya forumi doirasida **"Navoiyazot" AJ** vakillari Xitoy korxonalarini faoliyatini o'rganish va kimyo sanoati sohasida hamkorlik istiqbollarini muhokama qilish maqsadida **Shanxayga** tashrif buyurdi.



"Navoiyazot" AJ Qozog'iston Respublikasining O'zbekistondagi Favqulodda va Muxtor Elchisi Beybut Atamkulovni qabul qildi.

MART



Korxonaning ayol xodimlari energiya tejash, ekologik yechimlar, import o'rmini bosish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish yo'nalishlari bo'yicha **22 ta innovatsion ishlanmani taqdim etib, "Eng faol innovator ayol"** respublika ko'rik-tanlovining sovrindorlari bo'ldi.

APREL



Kimyo va farmatsevtika xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi tomonidan **Butunjahon mehnatni muhofaza qilish** kuniga bag'ishlab o'tkazilgan Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi sohasida jamoatchilik nazoratini eng yaxshi tashkil etish respublika ko'rik-tanlovining "Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha eng yaxshi yosh mutaxassis" nominatsiyasi bo'yicha mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo'yicha muhandis-texnolog **Feruz Doniyorova** 2-darajali diplom bilan taqdirlandi.

MAY



Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida Xitoyning "Sinoma Energy" kompaniyasi bilan quvvati **300 MVt** bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish bo'yicha shartnoma imzolandi.

IYUN



Gaz-qutqaruv guruhi a'zosi **Jaxongir Latipov** yakka kurash bo'yicha xalqaro turnirda **birinchi o'rinni** egalladi.

Tatariston **Prezidenti Rustam Minnixonov** boshchiligidagi delegatsiya korxonaning faoliyatini va xodimlarning ish sharoitlari bilan tanishdi.



IYUL



"Navoiyazot" AJ yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda namunalik tashkilot sifatida e'tirof etildi.

Korxonaning tibbiy-sanitariya qismi zamonaviy rentgen apparatlari bilan ta'minlanishi natijasida diagnostika aniqligi va bemorlarni davolash sifatini oshirdi.

2024-YILDAGI ASOSIY VOQEALAR

AVGUST



Xitoy kompaniyalari vakillari **"Navoiyazot" AJning** ishlab chiqarish majmualariga tashrif buyurib, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar sifatini baholab, samaradorlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar berdi.



Polivinilxlorid, kaustik soda va metanol ishlab chiqarish majmuasi rahbar o'rinbosari **Kamoliddin Asatov** korxonada rivojiga qo'shgan hissasi uchun O'zbekiston Respublikasi **Prezidenti Farmoni bilan "Shuhrat"** medali bilan taqdirlandi.

OKTYABR



"Navoiyazot" AJning Boshqaruvi raisi va mutaxassislari **"Linde"** kompaniyasi tomonidan qurilgan havoni ajratish korxonasida xorijiy tajribani o'rganish maqsadida Polshaga tashrif buyurdi.

"Navoiyazot" AJ Fitch Ratings agentligidan o'z tarixidagi birinchi kredit reytingini oldi. Kompaniyaga "Barqaror" prognozi bilan **"BB-**" uzoq muddatli kredit reytingi berildi, bu esa O'zbekistonning suveren kredit reytingiga mos keladi.



SENTYABR



Polshaning Lyublin vodiysi assambleyasi delegatsiyasi **korxonaga tashrif buyurib**, uning faoliyati bilan tanishdi va yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish, o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish rejalari muhokama qilindi.

NOYABR



"Navoiyazot" AJning Boshqaruvi raisi **Farrux Samadov** **"Eng yaxshi ijtimoiy sherik"** respublika tanlovida **3-darajali diplom** bilan taqdirlandi.

Korxonada ilmiy konferensiya, taqdirlash marosimi va bayram konserti kabi qator tadbirlarni o'tkazish orqali o'zining **60 yillik** yubileyini keng nishonladi.



DEKABR



Yubiley munosabati bilan korxonaning tarixi va yutuqlarini aks ettiruvchi kitob taqdimoti bo'lib o'tdi.

Germaniyalik mutaxassislar tajriba almashish va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish masalalarini muhokama qilish maqsadida **"Navoiyazot" AJga** tashrif buyurdi.

KORXONA FAOLIYATINING 2024-YIL UCHUN ASOSIY KO'RSATKICHLARI

SASB RT-CH-000.A

2023

3 933,752

Atrof-muhitni muhofaza qilish xarajatlari, mln so'm

2024

7 699,747

Atrof-muhitni muhofaza qilish xarajatlari, mln so'm

2022

4 326,40

Atmosfera ifloslantiruvchi moddalar emissiyasi hajmi, tonna*

2023

4 837,04

Atmosfera ifloslantiruvchi moddalar emissiyasi hajmi, tonna*

2024

4 812,03

Atmosfera ifloslantiruvchi moddalar emissiyasi hajmi, tonna

2022

32 612,77

Olinayotgan suvning umumiy hajmi, ming. m³

2023

31 364,315

Olinayotgan suvning umumiy hajmi, ming. m³

2024

21 706,08

Olinayotgan suvning umumiy hajmi, ming. m³

2024

750,930

Ammiak, ming. tonna

2024

579,919

Karbamid, ming. tonna

2024

655,003

Nitrat kislotasi, ming. tonna

2024

288,886

Boshqa mahsulotlar, ming. tonna

2024

766,254

Ammoniy nitrat, ming. tonna

2024

3 040,922

Jami, ming. tonna

2022

8 714

Xodimlarning umumiy ro'yxatdan o'tgan soni, kishi

2023

8 611

Xodimlarning umumiy ro'yxatdan o'tgan soni, kishi

2024

8 494

Xodimlarning umumiy ro'yxatdan o'tgan soni, kishi

2022

4,8

Xodimlar almashinuvi, %

2023

3,4

Xodimlar almashinuvi, %

2024

4

Xodimlar almashinuvi, %

2022

899,83

O'qitish uchun sarflangan xarajatlar miqdori, mln so'm

2023

542,7

O'qitish uchun sarflangan xarajatlar miqdori, mln so'm

2024

727,83

O'qitish uchun sarflangan xarajatlar miqdori, mln so'm

2022

8 714

Korxonaning ichki va tashqi audit jarayonlaridan o'tgan mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish tizimi bilan qamrab olingan shaxslar soni

2023

8 611

Kompaniyaning ichki va tashqi audit jarayonlaridan o'tgan mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish tizimi bilan qamrab olingan shaxslar soni

2024

8 494

Kompaniyaning ichki va tashqi audit jarayonlaridan o'tgan mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish tizimi bilan qamrab olingan shaxslar soni

* 2022 va 2023-yillar uchun ma'lumotlar 2023-yilgi Barqaror rivojlanish to'g'risidagi hisobotda taqdim etilgan ma'lumotlardan farq qiladi, chunki joriy hisobotda ifloslantiruvchi moddalarning to'liq ro'yxati hisobga olingan.

Jamiyat haqida

- 9 Jamiyat haqida ma'lumot
- 11 Rivojlanish tarixi
- 12 Rivojlanish strategiyasi
- 12 Iqtisodiy natijadorlik



JAMIYAT HAQIDA

GRI 2-1

Jamiyat haqida ma'lumot

"Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyati bo'lib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, ro'yxatga olingan va faoliyat yuritadi. Bosh ofisi Navoiy shahrida joylashgan. Ishlab chiqarish faoliyati Navoiy shahri va Navoiy viloyatining Konimex tumanida amalga oshirilmoqda.

"Navoiyazot" AJ O'zbekiston kimyo sanoatidagi yetakchi va jadal rivojlanayotgan ko'p tarmoqli korxonalardan biri bo'lib, to'rtta asosiy kompleksda kimyo mahsulotlari ishlab chiqaradi:

- mineral o'g'itlar ishlab chiqarish;
- kimyoviy reagentlar ishlab chiqarish;
- kichik hajmdagi kimyoviy moddalar ishlab chiqarish;
- polivinilxlorid (PVX) ishlab chiqarish.



Korxonada asosiy ishlab chiqarishni yoqilg'i-energetika resurslari, avtomobil va temir yo'l transporti bilan ta'minlaydigan sexlar, hamda ta'mirlash-tiklash ishlari sexi mavjud.

Korxonada nitrat kislota, ammiak, karbamid, ammiakli selitra, atsetilen, atsetaldegid, sirka kislota, sianid kislota, ammoniy sulfat, akrilonitril, tiokarbamid, ammoniy tiosianat, ammoniy xlorid, kaustik soda, xlor, xlorid kislota, PVX, metanol kabi keng turdagi kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqariladi. Ular orasida 2024-yilda eksportning eng katta ulushini karbamid, ammiakli selitra, PVX, xlorid kislota va suyuq xlor tashkil etdi.

"Navoiyazot" AJ ilgari O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan barcha kimyo mahsulotlarining 30 % dan ortig'ini ishlab chiqaradigan "O'zkimyosanoat" AJning tarkibiga kirgan. Biroq 2023-yil 1-martdan Kompaniya "O'zkimyosanoat" AJning tarkibidan chiqdi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi uning yagona aksiyadoriga aylandi. 2023-yil 18-avgustdan boshlab "Navoiyazot" AJning yagona aksiyadori O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisoblanadi.

3 040,9 ming tonnani

2024-yilda "Navoiyazot" AJda asosiy mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi

Korxonada mahsulotlarini sotishdan tushgan tushum esa

5 816,974 mlrd so'mni tashkil etdi

Korxonaning bo'linmalari to'liq ishlab chiqarish siklini amalga oshiradi. Shu bilan birga, yangi texnologiyalar o'zlashtirilmoqda, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish va boshqaruv tizimlari joriy etilmoqda, mavjud komplekslar modernizatsiya qilinmoqda, yangi ishlab chiqarish quvvatlari barpo etilmoqda.

Ta'minot zanjiri va sotuv bozorlari

GRI 2-6

"Navoiyazot" AJning ishlab chiqarish jarayonlari kompleks resurs ta'minoti tizimi bilan ta'minlanadi. Xomashyo, texnologik va yoqilg'i ehtiyojlari uchun tabiiy gaz "UzGasTrade" AJ tomonidan ta'minlanadi, elektr energiyasi esa "NIES" AJdan xarid qilinadi. Texnologik ehtiyojlar uchun bug' korxonaning o'z qozonlarida va utilitatsiya qozonlarida ishlab chiqariladi; issiqlik energiyasi tanqisligi bo'lsa, u qo'shimcha ravishda "NIES" AJ tomonidan yetkazib beriladi. Shuningdek, sanitariya va maishiy ehtiyojlar va, isitish uchun issiqlik energiyasi "NIES" AJ tomonidan ta'minlanadi. Texnologik sikllar va to'ldirib turish uchun texnik suv "Navoiy suv ta'minoti" AJ tarmoqlaridan yetkazib beriladi. «Navoiyazot» AJ korxonani gaz, elektr energiyasi, bug' va suv kabi barcha zarur resurslar bilan uzluksiz ta'minlab, kimyoviy mahsulotlarning barqaror ishlab chiqarilishini ta'minlaydi; mazkur mahsulotlar keyinchalik ichki va tashqi bozorlarda sotiladi.

Mahsulotlar ichki bozorda "O'zRTXB" AJning birja savdolari va kooperatsiya portali orqali sotilmoqda, shuningdek, "O'zkimyompeks" MChJ orqali MDH, Boltiqbo'yi, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Osiyo mamlakatlariga eksport qilinmoqda. "Navoiyazot" AJning mahsulotlari iste'molchilari agrosanoat (ammiakli selitra, karbamid, ammoniy sulfat), tog'-metallurgiya (natriy sianidi, tiokarbamid, sulfat va nitrat kislotalar, metanol), kimyo, energetika va boshqa tarmoqlardagi distribyutorlar, savdogarlar va sanoat korxonalari bo'lib, kimyo mahsulotlarini keyinchalik o'g'itlar, polimer, sanoat reagentlari va boshqa tovarlarni ishlab chiqarish uchun ishlatadilar.

Korxonada ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, texnik xizmat ko'rsatish va rivojlantirish loyihalari doirasida "JV Continaz" MCHJ QK, "Air Products Central Asia Group" MCHJ QK va "Chemistry International" MCHJ QK kabi qo'shma korxonalar va sheriklar bilan hamkorlik qiladi.



Bizning missiya



Biz tabiiy resurslar energiyasini inson manfaatiga qaratish, Korxonada faoliyat yuritayotgan hududlarda uzoq muddatli iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikka, farovonlik va taraqqiyotga ko'maklashish, ijobiy atrof muhitni saqlanishini va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash, biznesning barqaror va uzoq muddatli o'sishini ta'minlash, mineral o'g'itlar, kimyoviy reagentlar va kam tonnali kimyoviy moddalarning ishonchli yetkazib beruvchisi bo'lib xizmat qilish uchun tashkil etilganmiz.

Bizning qadriyatlar



Xodimlar o'zlarining kundalik faoliyatida yuqori natijalarga erishish uchun ko'rsatma bo'lib xizmat qiladigan Kompaniyaning korporativ qadriyatlariga amal qiladilar. Yuqori malakali mutaxassislar, xodimlar malakasining va professionalizmining doimiy o'sishi, ish samaradorligi, xodimlarning ijtimoiy himoyalanganligi jamoadagi barqarorlik asosiy qadriyatlar hisoblanadi. Bundan tashqari, Kompaniya barqaror rivojlanish tamoyillarini faol qo'llab-quvvatlaydi, atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish va ijtimoiy taraqqiyotni rag'batlantirishga intiladi, bu esa kelajakka uning hissasini yanada mazmunli va mas'uliyatli qiladi.

Bizning maqsadlarimiz



«Navoiyazot» AJ o'z oldiga yangi qiymat yaratish, biznesining yuqori rentabelligi va barqarorligini ta'minlash, Jamiyat aktivlari qiymatini oshirish hamda pul dividendlarini to'lash orqali aksiyadorlar uchun investitsiya qilingan kapitalga yuqori daromadni ta'minlash, shuningdek 2024-yil yakunlari bo'yicha aksiyadorlarning moliyaviy va strategik ko'rsatkichlarga oid kutgan natijalarini bajarishni maqsad qilib qo'yadi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun «Navoiyazot» AJ mavjud barcha imkoniyatlardan foydalanadi, jumladan, xarajatlarni yanada qisqartirish, operatsion samaradorlikni oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash hamda yangi ilg'or texnologiyalarni joriy etishni davom ettiradi.



RIVOJLANISH TARIXI


GRI 2-1








Navoiy kimyo kombinatini keng miqyosda loyihalashda SSRI va Chexoslovakiyaning **10 dan ortiq yirik** loyiha tashkilotlari ishtirok etgan. Davlat azot sanoati instituti (DASI) bosh loyihachi bo'ldi.

1964-yilda kombinat rasman ishga tushirilib, ammiakli selitra va zaif nitrat kislotasi ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Uch oy o'tgach birinchi ammiak olindi va **1968-yilga** kelib organik kimyoviy moddalar ishlab chiqaradigan sexlar ishga tushirildi.

Bugungi kunda **"Navoiyazot" AJ** to'liq ishlab chiqarish sikliga ega, ilg'or texnologiyalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini faol joriy etayotgan korxonalar bo'lib hisoblanadi. Korxonalar mavjud komplekslarni modernizatsiya qilmoqda, yangi ishlab chiqarish quvvatlari barpo etmoqda va innovatsion yondashuvlarni joriy etmoqda.


Korxonalar rivojlanishning yangi bosqichiga o'tib, bozor sharoitlarini ishonchli o'zlashtirmoqda va texnik jihatdan yuqori darajada jihozlanganligini, ilg'or texnologiyalarni va innovatsion g'oyalarni namoyish etmoqda. Yuqori malakali mutaxassis va muhandislardan iborat ahil jamoa **"Navoiyazot" AJning** boshqa korxonalar uchun o'rnak va mustaqil O'zbekiston g'ururiga aylanishiga sabab bo'lmoqda.



<p>1964-yil</p> <p>31-dekabr Davlat qabul komissiyasi kuchsiz nitrat kislotasi va ammiakli selitra ishlab chiqarish obyektlarini umumiy "yaxshi" baho bilan ishga tushirishni ma'qulladi. Bu kundan Navoiy kimyo zavodi tarixi boshlandi.</p>	<p>1965-yil</p> <p>8-mart Birinchi ammiak olindi va loyiha ishlab chiqarish quvvatiga xuddi shu oyda erishildi.</p> <p>31-mart I-navbatdagi ammiak ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish dalolatnomasi imzolandi.</p> <p>noyabr Ballonlarni texnik kislorod bilan to'ldirish bo'limining ishga tushirilishi.</p>	<p>1967-yil</p> <p>Ammiakli suvning birinchi tonnasi olindi.</p> 	<p>1968-yil</p> <p>Iyun Karbonat angidridni ajratishni joriy etish.</p> <p>Avgust Karbonat angidrid va natriy sianid ishlab chiqarish sexlarini ishga tushirish.</p>	<p>1970-yil</p> <p>31-dekabr Atsetilen va atsetaldegid ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi.</p> 	<p>1971-yil</p> <p>31-mart Nitrat kislotasi, ammiakli selitra, uchinchi bosqich ammiak sexlari ishga tushirildi.</p> <p>25-oktyabr Nitron tolasini ishlab chiqarish bo'yicha birinchi texnologik zanjirning ishga tushirilishi.</p>	<p>1975-yil</p> <p>Navoiy kimyo kombinatini "Navoiyazot" ishlab chiqarish birlashmasiga aylantirish.</p> 	<p>1988-yil</p> <p>Tiokarbamid ishlab chiqarish uskunasini ishga tushirish va xlorid kislotasi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish.</p> 		
<p>1991-2014-yillar</p> <p>14 yangi turdagi mahsulotlar, jumladan, preparatlar, smolalar va o'g'itlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish.</p> 	<p>2001-yil</p> <p>"Lurgi" kompaniyasi bilan hamkorlikda kaustik soda va suyuq xlor ishlab chiqarish sexining ishga tushirilishi.</p>	<p>2007-yil</p> <p>Ammoniy nitrat va natriy sianidning suvli eritmasi mahsulotlari uchun ISO 9001:2000 va ISO 9001:2002 sifat boshqaruvi tizimi (SBT) sertifikatlari olingan. Sertifikatlar O'zbekiston Respublikasi va Angliyaning "UKAS" milliy organining akkreditatsiya belgilari bilan tasdiqlangan.</p>	<p>2011-yil</p> <p>"Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasida kosmetika mahsulotlari va bolalar tagliklari ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalar tashkil etish.</p> 	<p>2015-2016-yillar</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2015-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi to'g'risida"gi PQ-2264-sonli qaroriga muvofiq, investitsiya loyihalarini amalga oshirish:</p> <ul style="list-style-type: none"> "Navoiyazot" AJda ammiak va karbamid ishlab chiqarish quvvatlarini qurish; "Navoiyazot" AJning negizida PVX, kaustik soda va metanol ishlab chiqarish majmuasini qurish; "Navoiyazot" AJda nitrat kislotasi ishlab chiqarishni tashkil etish. 	<p>2019-2020-yillar</p> <p>Kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish komplekslarini ishga tushirish:</p> <ol style="list-style-type: none"> "Navoiyazot" AJda ammiak va karbamid ishlab chiqarish; "Navoiyazot" AJning negizida PVX, kaustik soda va metanol ishlab chiqarish; "Navoiyazot" AJda nitrat kislotasi ishlab chiqarish. 	<p>2021-2023-yillar</p> <p>Kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma korxonalarini tashkil etish:</p> <ol style="list-style-type: none"> "Navoiyazot" AJning hududida "JV CONTINAZ" MCHJ tomonidan karbamid-formaldegid smolalarini ishlab chiqarish; "Navoiyazot" AJning hududida "JV CONTINAZ" MCHJ tomonidan sulfat kislotasi ishlab chiqarish. paxta sellyulozasi va gidro-oksi-propilmetil-sellyuloza (HPMC) ishlab chiqarish 	<p>2023-yil</p> <p>Korxonaning "Korrupsiyaga qarshi kurashishni boshqarish tizimlari"ga muvofiqligini tasdiqlovchi ISO 37001:2016 sertifikati olingan.</p>	<p>2024-yil</p> <p>Ishlab chiqarish quvvatini oshirish: Ammiak-3 loyihasi amalga oshirildi, bu ishlab chiqarish hajmini yiliga 70 ming tonnaga oshirish imkonini berdi.</p> 	

Rivojlanish strategiyasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, "Navoiyazot" AJ kimyo sanoatini 2030-yilgacha rivojlantirish umumdavlat strategiyasiga amal qilmoqda. **Korxonaning strategik maqsadlariga quyidagilar kiradi:**



Ushbu maqsadlarga erishish uchun kompaniyada texnologiyalarni uzoq muddatli modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish jarayonlarini yangilashga qaratilgan investitsiya loyihalarini faol amalga oshirilmoqda. Yuqoridagi tashabbuslar, sifatni oshirish va, tannarxni pasaytirish orqali mahsulotlarning milliy va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini mustahkamlashga erishilindi.

Atrof-muhit va sanoat xavfsizligining yuqori standartlariga rioya qilish, shuningdek, ijtimoiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish korxonaga o'z missiyasini bajarishga imkon beradi: jamiyatga maksimal foyda keltirish, doimiy o'sish, barqaror rivojlanish va atrof-muhitga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish orqali hayotni yaxshilaydigan o'zgarishlarni rag'batlantirish.

Iqtisodiy natijadorlik

GRI 201-1, SASB RT-CH-410a.1

2024-yil yakunlari bo'yicha "Navoiyazot" AJ tomonidan

5 816,97 mlrd so'mlik

daromadlar qayd etildi, bu o'tgan yilga nisbatan o'sish haqida darak beradi. Sotuvdan kelgan sof tushumlar 2023-yilga nisbatan 21,7 % ga oshdi. Korxonaning taqsimlangan iqtisodiy qiymati

6 307,64 mlrd so'mni

tashkil etdi. Bundan tashqari, xodimlarga ish haqi va ijtimoiy to'lovlar bo'yicha xarajatlarning

602,96 mlrd so'mga

oshgani haqida ta'kidlash joiz. Buxgalteriya bo'limi va, Prognozlash va iqtisodiy tahlil boshqarmasi iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash va nazorat qilish uchun javobgardir.



Yaratilgan va taqsimlangan to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy qiymat, mlrd so'm*

Ko'rsatkich	2022	2023	2024
1. Yaratilgan bevosita iqtisodiy qiymat			
Daromad (tushum)	6 943,21	5 755,91	6 388,74
Moliyaviy investitsiyalardan daromadlar	5 306,37	4 779,07	5 816,97
Moddiy aktivlarni sotishdan olingan daromadlar	1 497,47	536,49	527,84
Boshqa tushumlar	120,30	68,52	28,80
2. Taqsimlangan iqtisodiy qiymat			
Operatsion xarajatlar	19,07	371,82	15,13
Xodimlarga ish haqi, boshqa to'lovlar va imtiyozlar			
shu jumladan ish haqi	5 690,07	5 727,52	6 307,64
shu jumladan xodimlarga boshqa to'lovlar va imtiyozlar	3 554,62	3 412,21	4 603,57
Kapital yetkazib beruvchilarga to'lovlar			
shu jumladan to'langan dividendlar**	424,25	468,07	602,96
shu jumladan moliyaviy xarajatlar	407,76	449,24	580,33
Boshqa xarajatlar	16,49	18,83	22,63
Davlatga to'lovlar			
shu jumladan daromad solig'i	1 675,97	1 969,84	1 270,28
Mahalliy jamoalarga investitsiyalar			
shu jumladan daromad solig'i	466,70	319,94	288,78
3. Taqsimlanmagan iqtisodiy qiymat			
shu jumladan moliyaviy xarajatlar	1 675,97	1 969,84	1 270,28
Boshqa xarajatlar	-	-	-
Mahalliy jamoalarga investitsiyalar			
shu jumladan daromad solig'i	398,88	324,83	384,31
3. Taqsimlanmagan iqtisodiy qiymat			
shu jumladan daromad solig'i	77,11	74,20	43,39
Mahalliy jamoalarga investitsiyalar			
shu jumladan daromad solig'i	60,60	20,64	49,48
3. Taqsimlanmagan iqtisodiy qiymat			
shu jumladan daromad solig'i	1 253,14	28,39	81,10

* Moliyaviy ko'rsatkichlar MBHSGa muvofiq, tayyorlangan tasdiqlangan moliyaviy hisobotlardan olingan.

** Taqsimlangan dividendlar mustaqil ravishda o'z kapitalining o'zgarishi va naqd pul oqimlari hisobotlarida aks ettiriladi va O'zbekiston Respublikasi Qonuni 886, 25.12.2023 yilga muvofiq taqsimlanadi.

HISOBOT HAQIDA

GRI 2-1, 2-2, 2-3, 2-5, 2-6

"Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda "Navoiyazot" AJ, Navoiyazot, Kompaniya) ESG tamoyillari, Global hisobdorlik tashabbusi standartlari (keyingi o'rinlarda - GRI) va Barqaror rivojlanish sohasida hisob yuritish standartlari kengashining Sohaviy standartlari (SASB) asosida tayyorlangan 2024-yil uchun Barqaror rivojlanish to'g'risidagi hisobotini (keyingi o'rinlarda - Hisobot) taqdim etadi. Hisobot 2024-yil 1-yanvardan 31-dekabr gacha bo'lgan davrni qamrab oladi va Kompaniyaning tabiiy resurslarni uzoq muddatli saqlash, ijtimoiy mas'uliyatni oshirish va korporativ boshqaruv tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan strategiyalarga sodiqligini aks etadi.

Hujjatda "Navoiyazot" AJ faoliyatining barqaror rivojlanishning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy yo'nalishlari bo'yicha asosiy natijalari taqdim etilgan. Asosiy e'tibor issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish, xodimlar uchun xavfsiz va munosib mehnat sharoitlarini yaratish borasidagi choralarga qaratildi. Hisobot, shuningdek, Kompaniyaning mahalliy hamjamiyat va manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

"Navoiyazot" AJ 2024-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-sonli Farmoniga muvofiq, o'zining birinchi ESG hisobotini tayyorlashga kirishdi. Mazkur hujjat davlat ishtirokidagi korxonalarda ochiqlik darajasini oshirish va korporativ boshqaruvni takomillashtirishga qaratilgan. Farmon talablariga muvofiq, davlat ulushi 50% va undan ortiq bo'lgan yirik kompaniyalar har yili korporativ ijtimoiy mas'uliyat (CSR), shuningdek, atrof-muhit, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) to'g'risida hisobotlarni e'lon qilishlari lozim.

Farmonning qabul qilinishi **"Navoiyazot" AJning** shaffoflik, barqaror rivojlanish va jamiyat oldidagi mas'uliyat tamoyillariga sodiqligini aks ettiruvchi alohida **ESG hisobotini** shakllantirish uchun muhim rag'bat bo'ldi.

Hisobotning chegaralari Kompaniya tarkibiga kiruvchi filiallar va ishlab chiqarish korxonalarini qamrab oladi. Hisobot joriy davrda tashqi tasdiqlash jarayonidan o'tmadi, ammo keyingi yillarda Kompaniya mustaqil cheklangan tasdiqlashni tashkil qilishni rejalashtirmoqda.



Muhimlikni aniqlash jarayoni

GRI 3-1

Hisobotni tayyorlash uchun "Navoiyazot" AJ jiddiylikni baholash tartib-tamoyilini amalga oshirdi. Kompaniya ahamiyatli mavzularni GRI standartlari (GRI 3: Material Topics 2021), SASB sohaviy standartlari va kimyo sanoati uchun Sustainalytics, S&P Global CSA yetakchi xalqaro ESG reytinglari talablariga muvofiq, aniqladi va quyida tavsiflangan bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Ahamiyatli mavzularni aniqlash tartibi

1-bosqich.

Tashqi kontekstni tahlil qilish

- Kimyo sanoatining eng yirik analog kompaniyalarining muhim mavzularini tahlil qilish;
- Barqaror rivojlanishning global tendensiyalarini tahlil qilish;
- O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish tendensiyalarining tahlili.



2-bosqich.

Moliyaviy bo'lmagan hisobot standartlari va reytinglarining ESG mezonlarini tahlil qilish

- Xalqaro nomoliyaviy hisobot standartlarini tahlil qilish (GRI standartlari va kimyo sanoati uchun SASB standartlari);
- Kimyo sanoati uchun dunyodagi yetakchi ESG reyting agentliklari (S&P Global CSA, MSCI) tomonidan baholangan mavzular tahlili.



3-bosqich.

Mavzular ahamiyatini belgilash

- Tashqi kontekst va ESG mezonlarini tahlil qilish natijalari asosida muhim mavzularni baholash va qiyoslash.



4-bosqich.

Ahamiyatli mavzular ro'yxatini tasdiqlash

- Muhim mavzularning yakuniy ro'yxatini muvofiqlashtirish va tasdiqlash.

GRI 3-2

Baholash natijalariga ko'ra, "Navoiyazot" AJ va uning manfaatdor tomonlari uchun ahamiyatli bo'lgan

10 ta muhim mavzu aniqlandi.

E

(Ekologik)

- Iqlim o'zgarishi
- Atmosferaga emissiyalar
- Energiyani boshqarish
- Chiqindilarni boshqarish
- Suv resurslarini boshqarish

S

(Ijtimoiy)

- Xodimlarni boshqarish
- Xilma-xillik va teng imkoniyatlar
- Mahalliy jamoalar
- Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi

G

(Boshqaruv-iqtisodiy)

- Shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati

Faoliyatni boshqarish

- 15 Korporativ boshqaruv
- 22 ESG-boshqaruv
- 23 Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatlar
- 26 BMTning BRMga erishishga qo'shgan hissasi
- 27 Ichki va tashqi audit
- 27 Sifat boshqaruvi
- 27 Korrupsiyaga qarshi kurash
- 32 Fikr bildirish mexanizmlari



FAOLIYATNI BOSHQARISH

Korporativ boshqaruv

Korporativ boshqaruv strukturasi

GRI 2-9, 2-12

"Navoiyazot" AJni boshqarish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va ichki korporativ hujjatlarga, shu jumladan, Ustav va tegishli nizomlarga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi. "Navoiyazot" AJning boshqaruv tizimi 2024-yil 1-yanvardan boshlab Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalarining tavsiyalariga amal qiladi. Bunday qaror yagona aksiyadorning 2023-yil 12-fevraldagi qaroriga muvofiq, qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 23-iyundagi 145-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan mazkur qoidalarda Kompaniyaning xo'jalik faoliyatini halol va oshkora olib borishga intilishi alohida ta'kidlangan.

Jamiyatda Korporativ boshqaruv kodeksi

(keyingi o'rinlarda - Kodeks) amal qilib, u aksiyadorlik jamiyatlari uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi va amalga oshirilishi ixtiyoriy bo'lgan tavsiyalarni o'zida mujassamlashtiradi. Kodeksning asosini O'zbekiston Respublikasining qonunchilik normalari va korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari tashkil etadi.



Kodeksda korporativ boshqaruvga Boshqaruv, Kuzatuv kengashi, aksiyadorlar, mehnat jamoasi vakillari va kreditorlar kabi boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatlar tizimi sifatida qaraladi.

Asosiy maqsad - "Navoiyazot" AJ faoliyatini samarali tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va texnologik yangilash, shuningdek, mahsulotlarning raqobatbardoshligini va ularni tashqi bozorlarga eksport qilishni oshirish uchun barcha ishtirokchilar manfaatlarini o'rtasida muvozanatga erishish.

Kodeks Jamiyat boshqaruv organlari faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan asosiy yo'nalishlar bo'yicha tavsiyalar majmuidir.

"Navoiyazot" AJning tashkiliy tuzilmasi



Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi

GRI 2-12, 2-14

"Navoiyazot" AJning oliy boshqaruv organi aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi bo'lib, uning faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni asosida ishlab chiqilgan "Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi nizom bilan tartibga solinadi. 2023-yildan boshlab "Navoiyazot" AJning yagona aksiyadori O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisoblanadi. Nizom qonun hujjatlariga kiritilgan oxirgi o'zgarishlarni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-sonli Farmoni talablarini o'z ichiga oladi, shuningdek aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining maqomi va faoliyatini, shu jumladan, yillik va, navbatdan tashqari yig'ilishlarni o'tkazish tartibini belgilaydi va tartibga soladi.

Korporativ boshqaruvning yuqori organi va yuqori darajadagi rahbarlar tashkilotning barqaror rivojlanishi bilan bog'liq maqsadlari, qadriyatlar, vazifalari va, strategiyalari va, siyosatlariga to'g'risidagi bayonotlarni shakllantirish, tasdiqlash va yangilashda muhim rol o'ynaydi. Ular Kompaniyaning umumiy rivojlanish yo'nalishini belgilaydi, tashkilot faoliyatining barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiqligini ta'minlaydi va ushbu tamoyillarni barcha darajalarda amalga oshirish uchun javobgardir.

Korporativ boshqaruvning oliy organi odatda barqaror rivojlanish to'g'risidagi hisobotni, shu jumladan, muhim mavzularni ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun javobgardir. Tayyorlangan hisobot loyihasi ijro etuvchi organ tomonidan tasdiqlash uchun Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi.

Aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ilishi yiliga kamida bir marta, moliyaviy yil tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi, aksiyadorlarning Navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi esa zaruratga qarab chaqiriladi. Aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ilishida yillik hisobot, moliyaviy natijalar, foyda taqsimoti, auditorlik va taftish komissiyasining hisobotlari, shuningdek, Kuzatuv kengashining korporativ boshqaruv normalariga rioya etilishi to'g'risidagi hisoboti ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Bundan tashqari, kun tartibiga Kuzatuv kengashi va Taftish komissiyasini saylash, Sanoq komissiyasi a'zolarini tayinlash, shuningdek, "Navoiyazot" AJning rahbariyati bilan tuzilgan shartnomalarni uzaytirish yoki bekor qilish masalalari kiritiladi.

Ushbu korporativ boshqaruv tuzilmasi shaffoflikni, aksiyadorlarning faol ishtirokini va barqaror rivojlanish sohasidagi strategik maqsadlarini qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga qaratilgan.

"Navoiyazot" AJ aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi asosiy boshqaruv funksiyalarini bajaradi hamda Jamiyat faoliyatini tashkil etish va



rivojlantirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi. Vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- Ustavga o'zgartirishlar kiritish va yangi tahrirni tasdiqlash, bu ichki va tashqi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini ta'minlaydi.
- Kuzatuv kengashi tarkibini va uning a'zolari aniqlash, shuningdek ularni saylash va vakolatlarini muddatidan oldin tugatish. Bu boshqaruv organlarining samarali ishlashiga imkon beradi.
- Yillik hisobotni, moliyaviy hisobotni va foyda taqsimotini tasdiqlash - bu aksiyadorlar va manfaatdor tomonlar oldida shaffoflik va ma'lumotlar ochiqlikni ta'minlaydi.
- Jamiyatni ustav fondini ko'paytirish yoki kamaytirish, korporativ obligatsiyalar va o'z aksiyalarini chiqarish, shuningdek, Jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish bilan bog'liq masalalarni hal etish.
- Moliyaviy xatirlarni va barcha aksiyadorlarning manfaatlarini boshqarishga yordam beradigan yirik bitimlar va manfaat mavjud bo'lgan bitimlar bo'yicha siyosatni belgilash.
- Jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash va, Kuzatuv kengashi va Taftish komissiyasining, shu jumladan, qonunchilik talablariga rioya etilishi masalalari bo'yicha hisobotlarini eshitish.

Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida qabul qilinadigan ushbu harakatlar va qarorlar Kompaniyani strategik boshqarish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi, va, barqaror rivojlanish sohasidagi xalqaro standartlar va ilg'or tajribalar asosida shaffof korporativ boshqaruvni rag'batlantiradi.

2024-yilda "Navoiyazot" AJning yagona aksiyadori O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi edi.

Hisobot yilida yagona aksiyador tomonidan jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, yangi kuzatuv kengashi tarkibini saylash, boshqaruv a'zolaridan birining vakolatlarini tugatish, kengashning mustaqil a'zolariga haq miqdorini belgilash to'g'risida, moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash va 2023-yil uchun foydani taqsimlash, shuningdek, obyektlarning bir qismini mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari balansiga o'tkazish to'g'risida

6 ta qaror

qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yildagi 172-sonli "Vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalarining 2024-yilga mo'ljallangan energetika, ekologiya, geologiya va tog'-kon sanoati sohasidagi faoliyati samaradorligining asosiy ko'rsatkichlarini (KPI) tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining topshiriqlarini bajarish maqsadida, "Navoiyazot" AJ Jamiyatning boshqaruvi va nazorat organlari tarkibi va unga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni [kpi.davaktiv.uz](#) rasmiy platformasida o'z vaqtida chop etilishini ta'minlaydi.

Shuningdek, boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari faoliyatning asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bajarilishi to'g'risidagi hisobot har chorakda elektron tizimlarga taqdim etiladi:

- [ijro.gov.uz](#) - hukumat topshiriqlarining bajarilishini kuzatish uchun.
- [samaradorlik.uz](#) - boshqaruv organlari faoliyati samaradorligini baholash uchun.

Bu yuqori darajadagi shaffoflikni, milliy tartibga solish talablariga rioya qilishni ta'minlaydi va Jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini mustahkamlaydi.



Kuzatuv kengashi

GRI 2-10, 2-12, 2-14, 2-17

Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, qonun hujjatlari va ustav bilan aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining mutloq vakolatiga kiritilgan masalalar bundan mustasno, Boshqaruv, Jamiyatning ichki nazorat organlari, jamiyatda tashkil etilgan kollegial organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi, zarurat bo'lganda, Jamiyatning rivojlanish rejalarini amalga oshirishni tashkil etish uchun mutaxassislarni jalb qiladi. Kuzatuv kengashi a'zolarini barqaror rivojlanish sohasida o'qitish jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan amalga oshiriladi.

"Navoiyazot" AJning Kuzatuv kengashi strategik boshqaruv va nazoratni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Uning vakolatlariga Kompaniya maqsadlariga erishish, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish va korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya qilishga qaratilgan keng ko'lamli vazifalar kiradi. Kuzatuv kengashining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- **Strategik yo'nalishlarni belgilash:** Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini tasdiqlaydi, strategiyani amalga oshirish bo'yicha Boshqaruv hisobotini muntazam eshitadi.
- **Aksiyadorlar yig'ilishlarini tashkil etish va o'tkazish:** Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni tashkil qiladi, ularning kun tartibini tayyorlaydi, yig'ilish o'tkaziladigan sana va joyni, shuningdek, yig'ilish o'tkazilishi haqida xabar berish uchun aksiyadorlar reyestrini shakllantirish sanasini tasdiqlaydi.
- **Ichki audit va audit tekshiruv ustidan nazorat:** ichki audit xizmatini tashkil etish, uning xodimlarini tayinlash va hisobotlarni muntazam ravishda eshitishni o'z ichiga oladi. Kuzatuv kengashi, shuningdek, auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, auditorlik tashkilotini va uning xizmatlari uchun to'lovning maksimal miqdorini tasdiqlaydi.
- **Biznes-rejalarni tayyorlash va tasdiqlash:** Kuzatuv kengashi Kompaniyaning yillik biznes rejasini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi, uning bajarilishini nazorat qiladi, shuningdek, ishlab chiqarish dasturining bajarilishini baholaydi.
- **Yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan tuziladigan bitimlarni boshqarish va nazorat qilish:** qonun hujjatlariga muvofiq, yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan to'ldiriladigan bitimlarni tasdiqlashni o'z ichiga oladi.
- **Sho'ba korxonalar, filiallar va vakolatxonalarni tashkil etish va tugatish:** Kuzatuv kengashi jamiyatning sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlari, shuningdek, Jamiyatning filial va vakolatxonalarni tashkil etish yoki tugatish to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

- **Aktivlar va investitsiya faoliyatini boshqarish:** Kuzatuv kengashi yangi ko'chmas mulk obyektlarini sotib olish yoki qurish, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning ulushlarini sotib olish, shuningdek, mulkni tasarruf etish va ustav kapitaliga qo'yilmalar bilan bog'liq masalalarni nazorat qiladi.
- **Ijtimoiy ahamiyatga molik tashabbuslarni ko'rib chiqish va tasdiqlash:** Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi va qonun hujjatlarida belgilangan doirada xayriya, homiylik yoki tekin yordam ko'rsatish siyosati va tartibini tasdiqlaydi.
- **Oshkoralik va korporativ boshqaruvni ta'minlash: Kuzatuv kengashi vakolati doirasida – nazorat qilish** va o'z vazifalarini samarali bajarish uchun Boshqaruv hujjatlari bilan tanishish, va bunda axborotdan faqat rasmiy maqsadlarda foydalanish.

Kuzatuv kengashi a'zolarining soni aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi, Ustav bilan belgilanadi va qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan kam bo'lishi mumkin emas va Jamiyat aksiyadorlari Umumiy yig'ilishining qarori bilan o'zgartirilishi mumkin. "Navoiyazot" AJning Kuzatuv kengashi a'zolari qonun hujjatlarida va Kompaniya ustavida belgilangan tartibda aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, Jamiyatda ikki pog'onali boshqaruv tizimi (two-tiersystem) qo'llaniladi, unda aksiyadorlar faqat ijrochi bo'lmagan direktorlardan iborat Kuzatuv kengashini, Boshqaruv esa o'z navbatida ijrochi direktorlardan (management board) iborat tarkibda saylaydi. Shunday qilib, Kuzatuv kengashida ijrochi direktorlar mavjud emas. Faqatgina Jamiyat boshqaruvi a'zolari ijrochi direktorlar bo'lishi mumkin.

Jamiyat Kuzatuv kengashining yig'ilishlari zaruratga qarab, masalalarni tezkor ko'rib chiqish va qarorlar qabul qilish uchun o'tkaziladi. Majlisni chaqirish Kuzatuv kengashi Raisi tashabbusi bilan quyidagi asoslarga ko'ra amalga oshirilishi mumkin:

- Uning o'z tashabbusi bilan;
- Kuzatuv kengashining istalgan a'zosining iltimosiga binoan;
- Taftish komissiyasining so'roviga muvofiq;
- Boshqaruv Raisining talabiga muvofiq.

2024-yilda "Navoiyazot" AJning Kuzatuv kengashi kengash va ijroiya organi tarkibini o'zgartirish, 2023 va 2024-yillarga mo'ljallangan biznes-rejalarni tasdiqlash, foyda taqsimoti, 2023-yil uchun moliyaviy-xo'jalik faoliyati va audit natijalari, yirik bitimlar tuzish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish (quyosh elektr stansiyasi, sianid tuzi ishlab chiqarishni kengaytirish), mulkni o'tkazish, homiylik, shuningdek, Kompaniyaning ustavi va ichki hujjatlariga o'zgartirish kiritish masalalarini ko'rib chiqdi.

Hisobot davrida jami

2 ta kuzatuv kengashi yig'ilishi o'tkazildi.

Jamiyatda barqaror rivojlanishni boshqarish samaradorligini oshirish uchun Kuzatuv kengashiga davlat organlari, nazorat qiluvchi organlar, aksiyadorlar va Kompaniyaning mas'ul vakillari bilan maslahatlashish mexanizmlari amal qiladi. Ushbu jarayonlarning natijalari shaxsan ishtirokda yoki onlayn tarzda o'tkaziladigan Kuzatuv kengashi yig'ilishlarida ko'rib chiqiladi. Tekshirish davriyligi har chorakda Kuzatuv kengashi yig'ilishlarida o'tkaziladi.

2024-yil uchun Kuzatuv kengashi tarkibi

GRI 2-11



MUXAMEDJANOV
Timur Rasulovich

Lavozimi
Kuzatuv kengashi raisi



SAFAROV
Shoxrux Abdugafforovich

Lavozimi
O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining Soliq va bojxona siyosati va daromadlarni prognozlash boshqarmasi boshlig'i




NASRITDINXODJAYEV
Omonullo Zabixullayevich

Lavozimi
O'zbekiston Respublikasi kon sanoati va geologiya vazirining birinchi o'rinbosari



MUXTAROV
Ulug'bek Xakimovich

Lavozimi
O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi direktori o'rinbosari



WAHID TAWTIK

Lavozimi
Mustaqil a'zo



ALDITAS SAULLIUS

Lavozimi
Mustaqil a'zo

Kuzatuv kengashi faoliyatini baholash

GRI 2-18

Har yili Kuzatuv kengashi a'zolarining faoliyati hisobot davridagi ishiga qarab baholanadi. Baholash aksiyadorlar tomonidan aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida o'tkaziladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Kuzatuv kengashining har bir a'zosining yillik hisobotini ko'rib chiqish.
- Ularning faoliyatini baholash yuzasida xulosa qilish.

Direktorlar kengashi a'zolarining faoliyatini baholash natijalariga ko'ra aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tegishli qarorlar qabul qiladi, shu jumladan, Kuzatuv kengashi tarkibiga o'zgarish kiritish to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

Kuzatuv kengashi a'zosining yillik hisoboti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Kuzatuv kengashi ishida ishtirok etish to'g'risidagi ma'lumotlar;
- Kuzatuv kengashi majlislarida mazkur a'zo tomonidan tayyorlanadigan va taqdim etiladigan masalalar ro'yxati, shuningdek, ular bo'yicha qabul qilingan qarorlar va ularning Jamiyat faoliyatiga qo'shgan hissasi;
- Kuzatuv kengashi a'zosining amalga oshirilgan Jamiyat faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan takliflarining ta'sirini baholash;
- Kompaniyaning rivojlantirish bo'yicha xulosalar va takliflar.

Bu jarayon Kuzatuv kengashi faoliyatining shaffofligi va samaradorligini ta'minlaydi va Kompaniyaning strategik maqsadlarini amalga oshirishga yordam beradi.



Qo'mitalar va ularning faoliyati

Audit qo'mitasi to'g'risidagi nizom

Audit qo'mitasi – "Navoiyazot" AJ Kuzatuv kengashining Jamiyat moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish bo'yicha vazifalarini samarali bajarishga ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan maslahat organidir. Audit qo'mitasi faoliyati Audit qo'mitasi to'g'risidagi nizomda belgilangan vakolatlariga muvofiq, amalga oshiriladi. Qo'mita Jamiyatning boshqaruv organi bo'lib hisoblanmaydi va Kuzatuv kengashi nomidan ish yuritish huquqiga ega emas.

Audit qo'mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Jamiyatning buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarini shakllantirish ustidan nazoratni amalga oshirish;
- Ichki nazorat va xavflarni boshqarish tizimlarining ishonchligi va samaradorligini nazorat qilish;
- Ichki audit faoliyatining mustaqilligi va xolisligini ta'minlash;
- Tashqi audit o'tkazilishini va tashqi auditor tanlanishini nazorat qilish;
- Xodimlar va uchinchi shaxslarning noqonuniy va intizomga zid harakatlariga qarshi kurashish tizimining samaradorligini nazorat qilish.

Audit qo'mitasi strategik va tartib-tamoyillarini xavflarni boshqarish bilan shug'ullanadi, jumladan ichki nizomlarni va protseduralarni ishlab chiqish, xavf-appetiti darajasini belgilash, xavflar reestrini nazorat qilish, moliyaviy, operatsion, ekologik, ESG va muvofiqlik xavflarini baholash va kamaytirish, xavflar sabablarini tahlil qilish va bartaraf etish, rahbariyat bilan hamkorlik qilish hamda xavflarni boshqarish madaniyatini rivojlantirish ham kiradi.

Audit qo'mitasi Jamiyat Kuzatuv kengashining qarori bilan tashkil etiladi va tugatiladi; Kuzatuv kengashi istalgan vaqtda qo'mita a'zosining vakolatlarini tugatishi yoki qo'mita tarkibini qayta shakllantirishi mumkin. Audit qo'mitasi Kuzatuv kengashi a'zolari orasidan saylanadi va kamida uch nafar a'zodan iborat bo'ladi, ularning aksariyati mustaqil bo'lishi shart. Qo'mita a'zolari Kuzatuv kengashi majlisida saylanadi va Jamiyat Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida Kuzatuv kengashining yangi tarkibi saylangunga qadar o'z vakolatlarini amalga oshiradi.

Tayinlovlar va mukofotlash qo'mitasi to'g'risidagi nizom

Tayinlovlar va mukofotlash qo'mitasi "Navoiyazot" AJ Kuzatuv kengashining kollegial maslahat organi bo'lib, kadrlar va ijtimoiy siyosat, shuningdek, Tayinlovlar rahbariyatiga haq to'lash siyosati sohasida o'z vakolatiga kiruvchi masalalarni tahlil qilish va Kuzatuv kengashi uchun tavsiyalar tayyorlash maqsadida tashkil etilgan. Tayinlovlar va mukofotlash qo'mitasi Kuzatuv kengashiga to'liq hisobdor bo'lib, Kuzatuv kengashi tomonidan unga berilgan vakolatlar doirasida, Tayinlovlar va mukofotlash qo'mitasi to'g'risidagi nizomga muvofiq, ish olib boradi.

Tayinlovlar va mukofotlash qo'mitasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, Tayinlovlar ustaviga, "Navoiyazot" AJning "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizomga, Kuzatuv kengashi qarorlariga, Tayinlovlar va haq to'lash qo'mitasi to'g'risidagi nizomga hamda aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi, shuningdek, Tayinlovlar Kuzatuv kengashi va Tayinlovlar va mukofotlash qo'mitasi qarorlari bilan tasdiqlangan Tayinlovlar boshqa ichki hujjatlariga amal qiladi.

Tayinlovlar va mukofotlash qo'mitasining asosiy maqsadi quyidagi masalalar bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish, tahlil qilish va Kuzatuv kengashiga taqdim etishdan iborat:



- Boshqaruv va nazorat organlarida va kompaniya bo'linmalarining asosiy rahbarlarida kadrlarni tayinlash;
- Boshqaruvning kadrlarini rejalashtirish, professional tarkibi va samarali faoliyati, Kompaniya boshqaruviga malakali mutaxassislarni jalb qilish va ularning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur rag'batlantirish choralarini ko'rish;
- Jamiyat xodimlarini rag'batlantirish va haq to'lash tizimlari, Kompaniya rahbariyatiga haq to'lashning samarali va shaffof amaliyotini shakllantirish;
- Jamiyat xodimlarini lavozimga tayinlash va mehnatiga haq to'lash bo'yicha Kuzatuv kengashi vakolatiga kiradigan boshqa masalalar.

Tayinlovlar va mukofotlash qo'mitasi Kuzatuv kengashi a'zolaridan tuziladi va kamida uch kishidan iborat bo'ladi. Qo'mita a'zolarining ko'pchiligi Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari bo'lishi kerak.

Tayinlovlar va mukofotlash qo'mitasi a'zolari Kuzatuv kengashining majlisida uning amaldagi a'zolari orasidan saylanadi va aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida Kuzatuv kengashining yangi tarkibi saylangunga qadar o'z vazifalarini bajaradi. Qo'mita a'zolarini saylash to'g'risidagi qaror Kuzatuv kengashi a'zolari umumiy sonining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi to'g'risidagi nizom

Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi Kuzatuv kengashi oldida to'liq hisobdor bo'lib, "Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi to'g'risida"gi nizomga muvofiq, Kuzatuv kengashi tomonidan unga berilgan vakolatlar doirasida o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, Ustavga, "Navoiyazot" AJning Kuzatuv kengashi to'g'risida nizomga, Kuzatuv kengashi qarorlariga, Strategiya va investitsiya qo'mitasi to'g'risidagi nizomga hamda aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan boshqa ichki hujjatlarga amal qiladi.

Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi to'g'risidagi nizomga muvofiq, Strategiya va investitsiyalar qo'mitasining asosiy maqsadi quyidagilarga doir masalalar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, ularni tahlil qilish va Kuzatuv kengashiga taqdim etishdan iborat:

- Jamiyat faoliyatining strategik va ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- Jamiyatning xarid va investitsiya faoliyatini nazorat qilish;
- Istiqbolli investitsiya loyihalarining samaradorligini va ularning Jamiyat aksiyadorlik qiymatining oshishiga ta'sirini baholash;
- Kuzatuv kengashi vakolatiga kiruvchi boshqa masalalar.

Maqsadlariga muvofiq, Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- Strategik rejalashtirish va investitsiya siyosati masalalari, istiqbolli rejalar, asosiy faoliyat dasturlari, Jamiyatning yillik va uzoq muddatli biznes-rejalari, shuningdek, ularning bajarilishi yuzasidan hisobotlar bo'yicha tavsiyalarni dastlabki ko'rib chiqish va Kuzatuv kengashi uchun tayyorlash;
- Jamiyatning strategik rejalashtirish va investitsiyalarni boshqarish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmalari va Kuzatuv kengashi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik samaradorligini baholash va baholash natijalari bo'yicha tavsiyalar tayyorlash;
- Jamiyatning uzoq muddatli istiqboldagi faoliyati samaradorligini baholash va bozor tendensiyalari, Kompaniya va uning raqobatchilari faoliyati, shuningdek, boshqa omillarni hisobga olgan holda strategiya va rivojlanish yo'nalishlarini tuzatish bo'yicha Kuzatuv kengashiga tavsiyalar ishlab chiqish.

Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi o'z faoliyatini Kompaniyaning Boshqaruv va vakolatli ixtisoslashtirilgan bo'linmalari bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Strategiya va investitsiyalar qo'mitasining Kompaniyadan axborot olish tartibi Strategiya va investitsiya qo'mitasi to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi

"Navoiyazot" AJning faoliyatida korporativ boshqaruvning shaffofligini, axloqiy me'yorlarga rioya etilishini va korrupsiyaga qarshi kurashishni ta'minlash doirasida kompaniyaning Kuzatuv kengashi huzurida Kuzatuv kengashining qarori (2024-yil 3-oktyabrdagi 218-sonli bayonnoma) asosida tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi faoliyat ko'rsatmoqda.



Qo'mita o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, shu jumladan, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" va "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlarga, shuningdek, korxonaning ichki normativ hujjatlariga hamda "Navoiyazot" AJning Ustaviga muvofiq, amalga oshiradi.

Qo'mita doimiy ravishda faoliyat yuritadi, uning a'zolari Kuzatuv kengashi tarkibidan (shu jumladan, kamida bitta mustaqil a'zo) saylanadi. Qo'mita ishi muntazam yig'ilishlar shaklida tashkil etiladi, shu jumladan, qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda navbatdan tashqari sessiyalar o'tkazilishi mumkin.

Qo'mitaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Korrupsiya holatlarining oldini olish bo'yicha ichki siyosatlar, dasturlar va chora-tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etish;
- Jamiyat mansabdor shaxslari va xodimlari o'rtasida korrupsiyaga qarshi qonunchilik va axloqiy me'yorlarga rioya etilishini monitoring qilish;
- Korrupsiya xavflarini baholash va minimallashtirish.
- Huquqiy xabardorlikni oshirish va tashkilotda korrupsiyaga toqat qilmaslik madaniyatini shakllantirish;
- Jamiyat faoliyatining shaffofligini va ma'lumotlarning to'g'ri oshkor etilishini ta'minlash;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha Kuzatuv kengashi uchun xulosalar va tavsiyalar tayyorlash;
- Jamiyat xodimlari tomonidan xulq-atvor me'yorlari va axloqiy standartlarga rioya etilishini nazorat qilish.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi korporativ boshqaruvning barqarorligi va shaffofligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Qo'mita tomonidan qabul qilingan qarorlar jamiyatning ijro etuvchi organlari uchun majburiydir va ularning amalga oshirilishini nazorat qilish Qo'mita raisi rahbarligida amalga oshiriladi.



Korporativ boshqaruvni rivojlantirish

2024-yilda korporativ boshqaruv sohasidagi islohotlarni amalga oshirish doirasida "Navoiyazot" AJ boshqaruvning shaffofligi, hisobdorligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PQ-163-sonli qaroriga muvofiq, korxonada Korporativ kotibiyat tashkil etilgan bo'lib, u bevosita Kuzatuv kengashiga bo'ysunuvchi. Korporativ kotibiyat to'g'risidagi Nizom ishlab chiqilayotgan bo'lsada, asosiy funksiyalarni amalga oshirish allaqachon boshlangan, jumladan:

- Korporativ boshqaruv masalalari bo'yicha hujjatlarni tayyorlash va ekspertizadan o'tkazishda ishtirok etish;
- Boshqaruv organlari tuzilmasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- Korporativ boshqaruvning yangilangan qoidalari va Etika kodeksini joriy etish;
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalangan holda Kuzatuv Kengashining hujjat aylanishini raqamlashtirish, shu jumladan, protokollarni masofadan rasmiylashtirish va elektron ovoz berish.

Ushbu chora-tadbirlar barqaror rivojlanish tamoyillarini, shu jumladan, shaffoflik, jarayonlarni raqamlashtirish va boshqaruvda axloqiy me'yorlarga rioya qilishni qo'llab-quvvatlaydi.

Kuzatuv kengashi a'zolarini mukofotlash

GRI 2-19, 2-20

Kuzatuv kengashi a'zolari o'z vazifalarini bajarganlik uchun haq va kompensatsiya olishlari mumkin va ularning miqdori aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qarori bilan belgilanadi. Kuzatuv kengashi yig'ilishlarida ishtirok etish, kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish, belgilangan vazifalarni bajarish, raislik kabi qo'shimcha vazifalarni bajarish, shuningdek, Kompaniyaning korporativ boshqaruvini takomillashtirishga qo'shgan hissasi haq to'lashning asosiy mezonlari hisoblanadi. Mukofotlar chorak yakunlari bo'yicha har oyda to'lanadi, biroq uzrli sabablarsiz yig'ilishlarning 75 % dan ko'prog'iga qatnashmagan a'zolarga berilmaydi.

Kuzatuv kengashi a'zolarining o'z vazifalarini bajarishi davomida qilgan harajatlari (masalan, transport va turar joy xarajatlari) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va Kompaniyaning ichki hujjatlarida belgilangan chegaralar doirasida tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgandan keyin qoplanadi.

Manfaatdor tomonlarning, shu jumladan, aksiyadorlarning yuqori boshqaruv a'zolari va boshqa xodimlarning ish haqi masalalari bo'yicha fikrlari amaldagi korporativ boshqaruv tizimi doirasida hisobga olinadi. Ushbu tizim fikr-mulohazalar bildirish va, nazorat mexanizmlari mavjudligini hamda ular Tayinlovlar va mukofotlash qo'mitasiga binoan, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishlarini o'tkazish orqali amal qilishini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi qaroriga muvofiq, Kuzatuv kengashi a'zolariga o'z vazifalarini bajarish faoliyati uchun haq to'lash amalga oshirilmaydi, to'lov faqat Kuzatuv Kengashining mustaqil a'zolariga beriladi.



Boshqaruv

GRI 2-13, 2-28

"Navoiyazot" AJ Boshqaruvi strategik va tezkor qarorlar tayyorlashda Ustavga rioya qiladi va bunday qarorlar so'ng Kuzatuv kengashi yoki aksiyadorlar Umumiy yig'ilishiga tasdiqlash uchun kiritilishi mumkin. Ijro etuvchi organ sifatida Boshqaruv sakkiz a'zodan iborat: Rais, raisning birinchi o'rinbosarlari va rais o'rinbosarlari. Barcha a'zolar Kuzatuv kengashi tomonidan ochiq va oshkora tanlov asosida saylanadi, bu esa jamoaga ishlab chiqarish, marketing, moliya, xodimlarni boshqarish, loyihalar va strategik rejalashtirish kabi sohalarida yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish imkonini beradi.

Jamiyat Boshqaruvi raisi tashkilotning iqtisodiyot, atrof-muhit va jamiyatga ta'sirini boshqarish uchun umumiy mas'uliyatga ega. Iqtisodiy jihatlarni boshqarishni nazorat qilish uchun javobgarlik Boshqaruv raisining iqtisodiyot va moliya bo'yicha o'rinbosariga yuklatilgan. Atrof-muhit va aholiga ta'sirni boshqarish uchun javobgarlik Mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi boshlig'iga yuklatilgan.

Iqtisodiyot, ekologiya va jamiyatga ta'sirni boshqarish bo'yicha hisobotlar korporativ boshqaruvning yuqori organiga yozma ravishda taqdim etiladi va har chorakda Kuzatuv kengashi yig'ilishlarida ko'rib chiqiladi.

Boshqaruv salohiyatini kengaytirish va ilg'or xalqaro tajribani joriy etish maqsadida Boshqaruv a'zoli lavozimiga tanlovda xorijlik mutaxassislar ham qatnashishi mumkin. Ushbu yondashuv ilg'or boshqaruv yondashuvlarini tatbiq etishga va Boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Kvorum va obyektiv qarorlar qabul qilinishini ta'minlash uchun Boshqaruv yig'ilishlari a'zolarining 50% dan ko'prog'i hozir bo'lsa, vakolatli hisoblanadi. Ushbu tartib hal etishni talab qiladigan masalalarni o'z vaqtida va har tomonlama ko'rib chiqish imkonini beradi.

Boshqaruv a'zolarini uch yil muddatga tayinlanadi. Jamiyatning shaffofligi va hisobdorligini oshirish maqsadida Raisga ketma-ket lavozimiga tayinlanish borasida cheklov o'rnatildi: endi u lavozimini ketma-ket ikki muddatdan ortiq egallashi mumkin emas.

Shunday qilib, **Boshqaruvning tuzilmasi va faoliyati Kompaniyani samarali boshqarishni ta'minlash, boshqaruvning uzluksizligini ta'minlash va Kompaniyaning strategik va operatsion jarayonlariga barqaror amaliyotni joriy etishga qaratilgan.**

Boshqaruv raisining vakolatlari

Boshqaruv raisiga Kompaniya faoliyatini samarali boshqarish va Jamiyat manfaatlarini barcha darajada ifodalash imkonini beradigan keng vakolatlar berilgan. Rais Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish olib borib, boshqa tashkilotlar bilan munosabatlarda uning vakili bo'ladi, muzokaralarda qatnashadi va Jamiyat nomidan bitimlar tuzadi. Bundan tashqari, Boshqaruv raisi barcha bo'linmalar ishini muvofiqlashtiradi, asosiy qarorlar qabul qiladi va strategik va operatsion masalalar bo'yicha umumiy rahbarlik qiladi, bu esa Kompaniyaga bozorda o'z maqsad va manfaatlarini amalga oshirish imkonini beradi. "Navoiyazot" AJning boshqaruvi raisi O'zbekiston dzyudo federatsiyasining Navoiy viloyatining bo'limiga ham rahbarlik qiladi. Ijtimoiy ahamiyatga ega tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash doirasida kompaniya Federatsiyaga homiylik qiladi.

Boshqaruv raisining asosiy vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- Kompaniyaning operatsion, ishlab chiqarish, moliyaviy va tijorat faoliyatini mustaqil boshqarish;
- Shartnomalar va kontraktlar, shu jumladan, mehnat shartnomalari tuzish, shuningdek, mehnat shartnomalarini tuzish huquqini berish;
- Barcha xodimlar uchun majburiy bo'lgan buyruqlar va ko'rsatmalar berish, mehnat intizomi buzilgan taqdirda intizomiy jazo choralarini qo'llash;
- Kompaniya bank hisobvaraqlarini boshqarish va Ustavda nazarda tutilgan tartibda mol-mulknini tasarruf etish;
- Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik qilish va uni o'tkazishni, shu jumladan 6 tashkiliy-axborot tadbirlarini muvofiqlashtirish;
- Shtat jadvalini, tashkiliy tuzilmani va bank hujjatlarini imzolash huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxatini tasdiqlash.

Rais, shuningdek, ma'lum masalalarni tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining zimmasiga yuklash hamda Kompaniya tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash vakolatlari berilgan. Ushbu vakolatlar korporativ tuzilmaning barcha darajalarida samarali boshqaruv va shaffof o'zaro hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan.

2024-yil 31-dekabr holatiga Boshqaruv tarkibi



SAMADOV Farrux Xamzayevich

Lavozimi

Boshqaruv raisi v.b.

Tug'ilgan sana

1986-yil 1-may

Ta'lim

- Toshkent moliya instituti, bakalavriat, magistratura.

Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallagan lavozimlari

- **2019-yildan 2022-yilgacha** – "O'zkimyosanoat" AJ Moliya, g'aznachilik operatsiyalari va xaridlar boshqarmasi boshlig'i;
- **2022-yildan 2023-yilgacha** – "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi "Qizilqumfosforit kompleksi" mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori v.b.;
- **2023-yildan hozirgacha** – "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi raisi v.b.



MIRZAYEV Alisher Berdinazarovich

Tug'ilgan sana
1974-yil 11-aprel

Lavozimi

Boshqaruv raisining ishlab chiqarish, mahalliyashtirish masalalari, sanoat va axborot texnologiyalari sohasida kooperatsion aloqalarni kengaytirish bo'yicha birinchi o'rinbosari

Ta'lim

- 2003-yil – Navoiy davlat konchilik instituti.

Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallagan lavozimlari

- **2020-yildan 2024-yilgacha** – "Navoiyazot" AJ Ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i;
- **2024-yildan** – boshlab Boshqaruv Raisining ishlab chiqarish, lokalizatsiya masalalari, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va axborot texnologiyalari bo'yicha birinchi o'rinbosari.



JALILOV Dilshodjon Dilmurodovich

Tug'ilgan sana
1978-yil 1-aprel

Lavozimi

"Navoiyazot" AJ Boshqaruvi Raisining iqtisodiyot va moliya bo'yicha o'rinbosari – Boshqaruv a'zosi.

Ta'lim

- 1999-yil – Navoiy davlat pedagogika instituti;
- 2004-yil – Toshkent moliya instituti.

Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallagan lavozimlari

- **2017-yildan 2020-yilgacha** – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Navoiy viloyati Bosh boshqarmasi boshqaruvchisi o'rinbosari;
- **2019-yildan 2022-yilgacha** – "Asaka bank" ATB Navoiy filialining boshqaruvchisi;
- **2022-yildan** – "Navoiyazot" AJ Boshqaruvi Raisining iqtisodiyot va moliya bo'yicha o'rinbosari.



JURAKULOV
Baxtiyor
Shermamatovich

Tug'ilgan sana
1979-yil 31-mart

Lavozimi

Boshqaruv raisining marketing, sotuvlar va xaridlar bo'yicha o'rinbosari.

Ta'lim

- Navoiy davlat konchilik instituti.

Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallagan lavozimlari

- **2019-yildan 2024-yilgacha** - "Qizilqum fosforit kompleksi" MCHJ vakolatxonasi rahbari;
- **2024-yildan** - "Navoiyazot" AJ Boshqaruvi Raisining marketing, sotuvlar va xaridlar bo'yicha o'rinbosari.



TURDIYEV
Umar
Tilavovich

Tug'ilgan sana
1965-yil 26-mart

Lavozimi

"Navoiyazot" AJ Boshqaruvi raisining kapital qurilish va ijtimoiy masalalar bo'yicha o'rinbosari – Boshqaruv a'zosi

Ta'lim

- Toshkent xalq xo'jaligi instituti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi

Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallagan lavozimlari

- **2014-yildan 2020-yilgacha** - "COCA-COLA Ichimligi Uzbekistan LTD" MCHJ Bosh direktorining umumiy va kadrlar masalalari bo'yicha o'rinbosari, Bosh direktorning umumiy masalalar va zavodlarning ishlab chiqarish faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha o'rinbosari;
- **2020-yildan** - "Navoiyazot" AJ Boshqaruvi Raisining kapital qurilish va ijtimoiy masalalar bo'yicha o'rinbosari.



SUYAROV
Nazirjon
Saydullayevich

Tug'ilgan sana
1974-yil 21-iyul

Lavozimi

"Navoiyazot" AJ boshqaruvi raisining investitsiyalar bo'yicha o'rinbosari – Boshqaruv a'zosi.

Ta'lim

- Navoiy davlat konchilik instituti.

Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallagan lavozimlari

- **2016-yildan 2019-yilgacha**– qurilayotgan investitsiya obyektlari Direksiyasining "Ammiak va karbamid ishlab chiqarish qurilishi" bo'yicha muhandis-texnolog, loyiha rahbari;
- **2019-yildan 2020-yilgacha** – "Navoiyazot" AJ Boshqaruvi raisi o'rinbosari vazifasini bajaruvchi – Istiqbolli rivojlanish va investitsiyalar bo'yicha direktor;
- **2020-yildan** - "Navoiyazot" AJ Boshqaruvi Raisining investitsiyalar bo'yicha o'rinbosari.



SHONONOV
Axmatillo
Raxmatilloevich

Tug'ilgan sana
1987-yil 15-fevral

Lavozimi

"Navoiyazot" AJ boshqaruvi raisining logistika bo'yicha o'rinbosari – Boshqaruv a'zosi

Ta'lim

- Toshkent temir yo'l muhandislar instituti

Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallagan lavozimlari

- **2019-yildan 2021-yilgacha** – "O'zbekiston temir yo'llari" AJ Buxoro hududiy temir yo'l uzeli Transport va foydalanish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari vazifasini bajaruvchi;
- **2021-yildan** - "Navoiyazot" AJ Boshqaruvi Raisining logistika bo'yicha o'rinbosari.

Boshqaruv faoliyatini baholash

GRI 2-20

"Navoiyazot" AJ Boshqaruvi a'zolarining faoliyati samaradorligini baholash tartibi:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi 207-sonli "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-martdagi PF-9-sonli farmoni bilan.

- Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-martdagi 172/30-sonli qarori bilan.
- "Navoiyazot" AJning 2024-yil 8-avgustdagi 1524-sonli ichki buyrug'i bilan.

Nizomning asosiy maqsadi boshqaruvning shaffofligi, obyektivligi va samaradorligini ta'minlashdir. Shu maqsadda kompaniya moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan jihatlarni qamrab oluvchi asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (ASK/KPI) tizimini qo'llaydi.



Asosiy qoidalar va baholash mezonlari:

- Moliyaviy barqarorlik: foyda, rentabellik, likvidlik, xarajatlarni kamaytirish.
- Operatsion samaradorlik: ishlab chiqarish rejalarini amalga oshirish, eksportning o'sishi, mahalliyashtirish.
- Innovatsiyalar: ERP tizimini joriy etish, raqamlashtirish, texnologik yangilanish.
- Ekologiya va barqaror rivojlanish: energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish, chiqindilarni kamaytirish va boshqarish.
- Ijtimoiy javobgarlik: mehnatni muhofaza qilish, xodimlarga to'lovlar, xizmat ko'rsatish, bolalar dam olishi.

2024-yilda Boshqaruvning har bir a'zosi uchun individual KPilar tasdiqlandi. Ularning bajarilishi har chorakda Kuzatuv kengashi tomonidan tahlil qilindi va **Samaradorlik.uz** platformasida va Ijro. **gov.uz** tizimida aks ettirildi.

Ushbu tizim natijalarni obyektiv baholashni ta'minlaydi, 2035-yilgacha maqsadlarga erishishga strategik e'tibor qaratishni qo'llab-quvvatlaydi va kompaniyaning tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"da nazarda tutilganidek, aksiyadorlarning umidlariga muvofiqlikni ta'minlaydi.

Boshqaruv a'zolarini mukofotlash

GRI 2-19

Boshqaruv a'zolarining mehnatini mukofotlash va ish haqini to'lash tamoyillari tashkilotning barqaror rivojlanishi va uzoq muddatli maqsadlarini qo'llab-quvvatlovchi rag'batlantiruvchi va adolatli tizimni yaratishga qaratilgan. Ish haqiga yondashuv yagona standartlarga va adolatlilik va shaffoflik tamoyillariga sodiqlikka asoslanadi, bu esa malakali kadrlarni jalb qilish va saqlab qolishga yordam beradi.

Mukofotlash tizimining asosiy elementlari:

- **Yagona va adolatli shartlar:** Ish haqi darajasi ish majburiyatlari va malaka darajasiga qarab belgilanadi va bu bajarilgan ish uchun adolatli to'lovni ta'minlashga yordam beradi.
- **Barqaror natijalarni qo'llab-quvvatlash:** Tizimda asosiy ko'rsatkichlarga erishish va prognozlarni bajarish uchun mukofotlash choralarining nazarda tutilishi korxonaning ishlash samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.
- **Proporsional to'lovlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash:** Tibbiy davolanish uchun yordam, pensiyaga chiqqanda qo'llab-quvvatlash, shuningdek nikoh yoki bola tug'ilishi kabi muhim hayotiy voqealar uchun to'lovlar kabi ijtimoiy to'lovlar kiradi. Ushbu ijtimoiy to'lovlar kompaniyaning o'z xodimlariga nisbatan ijtimoiy mas'uliyatli munosabatini namoyish etadi.

2024-yil


yakunlariga ko'ra, Boshqaruv a'zolariga mukofotlar belgilanmagan.

2024-yilda Kompaniya moliyaviy bo'lmagan xatarlarni, shu jumladan, iqlim va ESG-omillarini baholashda ichki audit rolini kengaytirish bo'yicha ishlarni boshladi. Xizmat faoliyati ilg'or xalqaro amaliyotlarni hisobga olgan holda rivojlanadi va Ichki auditning professional amaliyotining xalqaro standartlariga (IIA) javob beradi. Xizmatning mustaqilligi uning Audit qo'mitasiga hisobdorligi bilan tasdiqlanadi va boshqaruv va hujjatlarning barcha darajalaridan foydalanish imkoniyati samarali nazoratni ta'minlaydi. Bu ichki nazorat tizimini mustahkamlashga, aksiyadorlarning ishonchini oshirishga va Kompaniyaning ESG-reytingini oshirishga yordam beradi.

ESG-boshqaruv

GRI 2-22, 2-24

Kompaniya asosiy yo'nalishlarni belgilab oldi va ESG-tamoyillarini biznes-jarayonlarga joriy etish choralarini ko'rdi va shu tarzda u eng yaxshi xalqaro standartlarga rioya qilishga va o'z faoliyatining shaffofligini oshirishga intilmoqda. Navoiyazot asosiy yo'nalishlar sirasida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi:



Kuzatuv kengashi va Boshqaruv barqaror rivojlanishni boshqarishda faol ishtirok etib, ushbu sohadagi bayonotlar, siyosat va strategiyalarni ishlab chiqish, tasdiqlash va yangilashda bevosita ishtirok etmoqda. Yuqori boshqaruv organlari barqaror rivojlanish tamoyillarining Kompaniya strategiyasiga joriy etilishini ta'minlagan holda ESG-tashabbuslarining amalga oshirilishini nazorat qilmoqda.

2024-yilda "Navoiyazot" AJ aksiyadorlar kutgan natijalarni ta'minlash bo'yicha 11 ta ustuvor tashabbusni o'z ichiga olgan "Yo'l xaritasi" ni ishlab chiqdi va amalga oshirmoqda. Mazkur tashabbuslar Jamiyat faoliyatining samaradorligi, barqarorligi va shaffofligini oshirishga qaratilgan. Ushbu qadamlar ESG-yo'nalishlari va uzoq muddatli strategiya bilan uzviy bog'liqdir.



- 2035-yilgacha jamiyatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash;
- Strategik rejalashtirish uchun integratsiyalashgan moliyaviy modelni shakllantirish;
- Maqsadli operatsion modelni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tish;
- Ichki audit funksiyalarini transformatsiya qilish;
- Xavflarni boshqarish tizimini joriy etish;
- Korporativ ERP tizimini amalga oshirish;
- Tasdiqlangan IT arxitekturasi asosida raqamli loyihalarni ishga tushirish;
- ESG-tamoyillarini amalga oshirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish;
- Xaridlar tizimini takomillashtirish va Forenzik-audit mexanizmlarini joriy etish;
- Kadrlar boshqaruvi tizimi va tashkiliy tuzilmani transformatsiya qilish.

Mazkur tashabbuslarning Jamiyat strategik boshqaruviga kiritilishi "Navoiyazot" AJning aksiyadorlar kutgan natijalarga, shuningdek korporativ mas'uliyat, shaffoflik va barqarorlik bo'yicha xalqaro talablarga mos bo'lishga intilayotganini aks ettiradi.

Barqaror rivojlanish masalalari bo'yicha hisobot har chorakda yuqori rahbariyatga taqdim etiladi, bu esa samaradorlikni o'z vaqtida kuzatib borish va zarurat bo'lganda tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Tasdiqlash jarayoni Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqish uchun ma'lumotlarni yozma ravishda taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

"Navoiyazot" AJ shaffoflik, hisobdorlik va javobgarlikni barqaror korporativ boshqaruvning asosiy elementlari deb hisoblaydi. 2024-yilda Jamiyatda strategik va boshqaruv vazifalarini bajarish samaradorligini oshirishga qaratilgan axborotni oshkor qilish va raqamli hisobdorlik bo'yicha tizimli yondashuv joriy etildi.

Axborotning shaffofligi va undan foydalanish imkoniyatini oshirish maqsadida manfaatdor tomonlar uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari tarkibi va tarkibidagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlar kpi.davaktiv.uz xizmatida taqdim etilgan portaldan muntazam ravishda joylashtiriladi;
- Boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlarining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha har choraklik hisobotlari samaradorlik.uz platformasida taqdim etiladi;
- Davlat buyurtmalari va ichki topshiriqlarning bajarilishi ustidan nazorat ijro.gov.uz davlat tizimi orqali amalga oshiriladi.

Mazkur vositalar quyidagilarni ta'minlaydi:

- manfaatdor tomonlar uchun dolzarb ma'lumotlarga ochiq kirish;
- vijdonli va samarali boshqaruv tamoyillariga rioya qilish;
- davlat organlari va aksiyadorlar bilan barqaror hamkorlik.

"Navoiyazot" AJning rahbariyati korporativ boshqaruv jarayonlarining ochiqlik, hisobdorlik va raqamli transformatsiya tamoyillariga sodiqligini tasdiqlaydi va kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligining muhim sharti ekanligini e'tirof etadi.

Barqaror rivojlanish bilan bog'liq muhim masalalar va muammolar haqidagi ma'lumot yuqori rahbariyatga yozma ravishda yetkaziladi. Hisobot davrida yuqori rahbariyat aralashuvini talab qiladigan jiddiy muammolar yuzaga kelmadi.

Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatlar

GRI 2-29

"Navoiyazot" AJ manfaatdor tomonlar bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'yadi va bu uning strategik faoliyatining muhim yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Kompaniya o'z munosabatlarida shaffoflik va ochiqlikga asoslanib, bu unga mahalliy hamjamiyat va boshqa asosiy guruhlarining ehtiyojlari va, umidlariga samarali javob berish imkonini beradi.

Asosiy manfaatdor tomonlar ularning Kompaniya faoliyatiga ta'siri va Kompaniyaning ularning manfaatlariga ta'sirini hisobga olgan holda aniqlanadi. Bu "Navoiyazot" AJga ushbu guruhlar bilan doimiy muloqotni davom ettirishga imkon beradi, bu esa uzoq muddatli va barqaror munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi.



Kompaniya, shuningdek, barcha qonunchilik va normativ talablariga qat'iy rioya qiladi, bu uning korporativ javobgarligining muhim elementidir. Ushbu yondashuv nafaqat manfaatdor tomonlarning ishonchini kuchaytiradi, balki o'z faoliyatida barqaror rivojlanish va ijtimoiy javobgarlikni ta'minlash orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining oldini olishga yordam beradi.

Kompaniya manfaatdor tomonlarining asosiy guruhleri

O'zaro hamkorlik maqsadlari	O'zaro hamkorlik shakllari	2024-yildagi tadbirlar va natijalar
<p>Aksiyadorlar</p> <ul style="list-style-type: none"> Kompaniya qiymatining uzoq muddatli o'sishini ta'minlash. Kompaniyaning rivojlanish strategiyasi haqida ma'lumot berish. Korporativ boshqaruv sifatini oshirish. Kompaniya aksiyalarining likvidlik darajasini va narxlari darajasini ushlab turish. Samaradorlikni va daromadlilikni oshirish 	<ul style="list-style-type: none"> Investorlar uchun konferensiyalar. Investorlar bilan individual uchrashuvlar. Doimiy ravishda tahlilchilar bilan olib boriladigan ishlar. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi va Korxonaning majburiy hisobdorligi. Korporativ veb-sayt. KPIlarni ishlab chiqish va nazorat qilish, biznes jarayonlarini transformatsiya qilish 	<ul style="list-style-type: none"> Navoiyazot" AJning yagona aksiyadori O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo'lgani uchun aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi o'tkazilmadi. 2024-yilda yagona aksiyador tomonidan 6 ta qaror qabul qilindi. 2035-yilgacha strategiyani ishlab chiqish, yangi tashkiliy tuzilmani tasdiqlash, MHXSga o'tish. Belgilangan KPIlarga muvofiq, 2024-yilda ishlab chiqarish hajmi 110,7 % ga oshdi. Eksport daromadi 100,2 mln dollarni, mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi 2,35 trln so'mni tashkil etdi.
<p>Investorlar va moliyaviy institutlar (IFC, ADB va boshqalar)</p> <ul style="list-style-type: none"> Ishonch va shaffoflikni oshirish Barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash Xalqaro talablarga muvofiqlik 	<ul style="list-style-type: none"> ESG-hisobdorlik. Ixtisoslashtirilgan forumlarida ishtirok etish Tashqi baholash va reytinglar 	<ul style="list-style-type: none"> ESG-strategiyasi amalga oshirildi TCFD tavsiyalari amalga oshirildi Investorlar kutgan natijalar bo'yicha yo'l xaritasi bajarilmoqda
<p>Davlat organlari/ tartibga soluvchilar</p> <ul style="list-style-type: none"> Faoliyat yuritilayotgan hududlar ning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish. Qonunchilikga rioya qilish. Davlat dasturlari va tashabbuslarini amalga oshirish. Korrupsiya xavflarini aniqlash va minimallashtirish. Shartnoma majburiyatlarining bajarilishini nazorat qilish. 	<ul style="list-style-type: none"> Muzokaralar, uchrashuvlar o'tkazish. Qonunchilikga rioya qilinishi yuzasidan tekshiruvlar o'tkazish. Ruxsatnomalar berish va faoliyat ustidan nazorat qilish Raqamli davlat platformalari orqali hisobotlarni taqdim etish (E-xat, Soliq, Davlat xaridlari) Vazirliklar va hokimliklar orqali ekologiya va investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirish Korrupsiyaga qarshi kurashish, ekologiya, innovatsiyalar va eksport bo'yicha davlat forumlarida ishtirok etish 	<ul style="list-style-type: none"> 2024-yilda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun 10 nafar xodimga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llanilib, ulardan 5 nafari ishdan bo'shatildi. Korrupsiyaga oid qoidabuzarliklar tufayli tadbirkorlik sheriklari bilan tuzilgan 8 ta shartnoma bekor qilindi. 2024-yil davomida kompaniya 1594 ta shartnoma tuzdi, shundan 402 tasi to'g'ridan-to'g'ri rasmiylashtirildi. Barqaror rivojlanish va karbonsizlanish bo'yicha milliy tashabbuslarda ishtirok etish. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yoki moliyalashtirishda ishtirok etish uchun reytinglar yoki tasdiqlarni olish uchun tadbirlar. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan hamkorlikda korporativ boshqaruv talablariga muvofiqligini baholashni o'tkazish "Navoiyazot" AJ boshqaruvi raisi o'rinbosarlarining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha barcha hisobotlari samaradorlik.uz platformasiga yuklanadi. Jamiyatning 08.08.2024-yildagi 1524-sonli ichki buyrug'iga binoan ijro.gov.uz tizimida joylashtirilgan barcha topshiriqlar 100 % ga bajarildi. KPI ko'rsatkichlari bo'yicha choraklik hisobot ijro.gov.uz va samaradorlik.uz platformalariga taqdim etiladi.
<p>Xodimlar va kasaba uyushmalari</p> <ul style="list-style-type: none"> Kompaniya xodimlarining kasbiy martaba o'sishi va ijtimoiy farovonligi uchun sharoit yaratish. Ish joyida xavfsizlik. Mehnat uchun haq to'lash tizimini takomillashtirish. Xodimlarning motivatsiyasini oshirish. Ishlayotgan va nafaqaga chiqqan xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish. Xodimlarning malakasini oshirish va ularni kompaniyani transformatsiya qilish jarayonlariga jalb qilish. 	<ul style="list-style-type: none"> Xodimlarning korxonahabariyati bilan uchrashuvlari. Ichki aloqa kanallari. Jamoatchilik eshituvlari. Jamoa shartnomalari va kasaba uyushmalari bilan o'zaro munosabatlar. Xodimlar ishtiroki bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish. ISO 31000 standarti, ESG-tamoyillari, shuningdek, yangi IT tizimlaridan foydalanish bo'yicha o'quv dasturlarini o'tkazish. 	<ul style="list-style-type: none"> 2024-yilda Kompaniya ijtimoiy sheriklik va kasaba uyushmalari faoliyati bilan bog'liq umumiy qiymati qariyb 465,39 mlrd so'mlik 441 ta tadbir o'tkazdi. 2024 yilda "Navoiyazot" AJning sanatoriy-profilaktika muassasasida 1 005 kishi, shu jumladan, 291 pensioner davolanish va sog'lomlashtirish muolajalaridan o'tdi. Jamoa shartnomasida nazarda tutilgan mehnatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish uchun 2024-yilda qariyb 47,3 mlrd so'm mablag' ajratildi. Ishlab chiqarish jarohatlari va kasb kasalliklaridan zarar ko'rgan xodimlarga to'lanadigan to'lovlarning umumiy hajmi 201,6 mln so'mni tashkil etdi. 54 nafar ishlamaydigan pensionerlarga umumiy qiymati 23,4 mln so'm miqdorida moddiy yordam taqdim etildi. "Navoiyazot" AJning faxriy taxtasiga kiritilganligi munosabati bilan 59 nafar xodim 258,9 mln so'm miqdorida to'lov oldi. Sport tadbirlarini tashkil etish va g'oliblarni taqdirlash uchun 358,8 mln so'm mablag' ajratildi. ERP tizimi joriy etildi, ayollarni qo'llab-quvvatlash dasturlari amalga oshirildi, kompaniyaning 60 yilligi yubileyi tashkil etildi, shuningdek, xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha ichki dasturlar o'tkazildi. 12 nafar xodim, ISO 31000:2018 standarti bo'yicha tasdiqlangan "yo'l xaritasi" ga muvofiq, o'qitildi.

Kompaniya manfaatdor tomonlarining asosiy guruhleri

O'zaro hamkorlik maqsadlari	O'zaro hamkorlik shakllari	2024-yildagi tadbirlar va natijalar
<p>Iste'molchilar, yetkazib beruvchilar va pudratchilar</p> <ul style="list-style-type: none"> Mahsulotlarning yuqori sifati va xavfsizligiga kafolatlar va iste'molchilar ishonchini ta'minlash. Savdo bozorlari va mahsulot turlarini kengaytirish. Shartnomalar shartlariga rioya qilish. Texnologik jarayonlar va uskunalarining ishonchliligi va xavfsizligini oshirish. Eng yaxshi amaliyot va ilg'or texnologiyalarni joriy etish 	<ul style="list-style-type: none"> Mahsulot va sifat kafolati masalalari bo'yicha o'zaro munosabatlar. Uchrashuvlar va muzokaralar Shartnomalar va bitimlar imzolash. Kompaniya veb-sayti. Kompaniya hisoboti. Xizmatlar va yetkazib berish uchun tenderlar o'tkazish (shu jumladan, ESG, ERP, Forensic va boshqa loyihalar bo'yicha) 	<ul style="list-style-type: none"> 2024-yilda 16 ta tender e'lon qilingan bo'lib, ularning natijasida 3,7 mlrd so'mlik shartnomalar imzolangan.
<p>Mahalliy jamoalar</p> <ul style="list-style-type: none"> Faoliyat yuritayotgan hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning barqarorligi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga yordam ko'rsatish. Xayriya. Atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish. Kompaniya strategiyasini faoliyat yuritilayotgan hududlarda mahalliy hamjamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirish. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ish o'rinlari yaratish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash. 	<ul style="list-style-type: none"> Mahalliy hamjamiyat vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazish. Veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlar. Press-revizlar va axborot xabarlarini nashr etish. Xayriya tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash va aholining zaif qatlamlari uchun yordam tadbirlarini o'tkazish. 	<ul style="list-style-type: none"> Kompaniya tomonidan hisobot davrida homiylik tadbirlari uchun 49 mlrd so'm mablag' ajratildi. 2024-yilda "Navoiyazot" AJ tomonidan madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish ishlari sohasida rejalashtirilgan 34 ta tadbirni muvaffaqiyatli amalga oshirdi, bu esa kompaniyaning ijtimoiy tashabbuslarga yuqori darajada jalb etilganligidan dalolat beradi. Korxonada xodimlari uchun turli madaniy tadbirlar, tanlovlar va musobaqalar tashkil etildi, ularda ham xodimlar, ham yoshlar faol ishtirok etdilar. Ishtirokchilarni rag'batlantirish uchun kasaba uyushmasi mablag'laridan 2 mlrd 387 mln 656 ming so'm ajratildi. Xodimlarga yo'llanmalar berish va hudud infratuzilmasini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash.
<p>OAV</p> <ul style="list-style-type: none"> Korxonada ijobiy imidjini shakllantirish. Ishbilarmon doiralarda obro'-e'tiborni mustahkamlash. Ochiqlik va shaffoflikni oshirish. 	<ul style="list-style-type: none"> Press-revizlar. Kompaniyaning yuqori mansabdor shaxslaridan intervyu va sharhlar. Veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlar. Kompaniya hisoboti. Matbuot anjumanlari va rahbariyat bilan suhbatlar. 	<ul style="list-style-type: none"> "Navoiyazot" AJda 2024 yilda "ishonch telefoni" orqali 131 ta murojaat olindi, shu jumladan: <ul style="list-style-type: none"> 109 ta murojaat virtual qabulxonada orqali; Jismoniy shaxslardan 22 ta to'g'ridan-to'g'ri murojaatlar. Hisobot davridagi korxonaning asosiy voqealari va faoliyati kompaniyaning rasmiy veb-saytida, Telegram kanalida va "Navoiy kimyogari" gazetasida muntazam ravishda yoritilib kelinmoqda. Bundan tashqari, 2024-yilda respublika va mahalliy telekanallar, radiostansiyalar, shuningdek, bosma va Internet nashrlarida "Navoiyazot" AJ faoliyati to'g'risida 139 ta material chop etilgan. "O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi" Respublika jurnalidagi nashrlar, kompaniyaning 60 yilligi yoritilishi
<p>Reyting agentliklari</p> <ul style="list-style-type: none"> Samaradorlikni oshirish va xavflarni minimallashtirish maqsadida korporativ boshqaruv darajasini, Kompaniya faoliyatining barqarorligi va shaffofligini baholash. 	<ul style="list-style-type: none"> ESG nuqtai nazaridan baholash, manfaatdor tomonlar bilan tahliliy ma'lumotlar va monitoring natijalarini muntazam ravishda almashish 	<ul style="list-style-type: none"> Mustaqil ESG-bahosi olindi, asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) joriy etildi va xavflar profili ishlab chiqildi - bu boshqaruvni yaxshilash va shaffoflikni oshirishga yordam berdi.
<p>Xalqaro hamkorlar va donorlar</p> <ul style="list-style-type: none"> Qo'shma loyihalar, "yashil" texnologiyalar 	<ul style="list-style-type: none"> Davra suhbatlari, tashriflar, kelishuvlar 	<ul style="list-style-type: none"> Sinoma Energy Conservation International Investment Co. Ltd (Xitoy) bilan 300 MVt quyosh stantsiyasini amalga oshirish bo'yicha kelishuvga erishildi. Ushbu loyihani amalga oshirish natijasida 60 ta yangi ish o'rni yaratiladi va yiliga 265 ming tonna CO₂ chiqindilarining oldi olinadi Bundan tashqari, "Navoiyazot" AJ negizida havo ajratish qurilmasini qurishni tashkil etish doirasida Linde-Navoi bilan hamkorlik kengaytirildi
<p>Auditorlar va sertifikatlash organlari</p> <ul style="list-style-type: none"> ISO, GRI, REACH standartlariga muvofiqlik 	<ul style="list-style-type: none"> Auditlar, tekshirish, sertifikatlash 	<ul style="list-style-type: none"> ISOga muvofiqlikni tasdiqlash, korporativ boshqaruvni tashqi baholash
<p>Ilmiy va ta'lim muassasalari</p> <ul style="list-style-type: none"> Kadrlar tayyorlash, innovatsiyalar, tadqiqotlar 	<ul style="list-style-type: none"> Amaliyot, forumlar, o'qitish 	<ul style="list-style-type: none"> Hokimiyatlarda amaliyot o'tash, xodimlarni o'qitish, forumlarda ishtirok etish

BMTning BRMga erishishga qo'shgan hissasi

"Navoiyazot" AJ 2015-yilda Bosh Assambleya tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanishning barcha **17 ta maqsadini (keyingi o'rinlarda - BMTning BRM)** muhimligini e'tirof etadi va o'z faoliyatida ularni joriy etishga faol intiladi. Kompaniyaning tarmoq xususiyatlari va missiyasiga muvofiq, "Navoiyazot" AJ eng katta hissa qo'shishi mumkin bo'lgan **8 ta ustuvor BRM ajratib ko'rsatildi**.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun Kompaniya ularni amalga oshirishga qaratilgan bir qator tadbirlarni ishlab chiqdi. Shuningdek, ushbu ustuvor maqsadlarga mos keladigan barqaror rivojlanishning asosiy jihatlarni belgilangan. Bunday maqsadli yondashuv "Navoiyazot" AJga nafaqat bozorda o'z mavqeiini mustahkamlashga, balki ijtimoiy taraqqiyot va ekologik barqarorlikka faol hissa qo'shishga imkon beradi.



- Boquvchisini yo'qotgan **14 oilaga 27,75 mln so'mlik** moddiy yordam to'landi.
- Ishlab chiqarish nogironligi va kasb kasalligi bo'lgan 57 nafar** xodimga **173,9 mln so'm** miqdorida kompensatsiya to'lovlari berildi.
- 54 nafar** ishlamaydigan pensionerga **23,4 mln so'mlik** moddiy yordam ko'rsatildi.

1 O'TA DASHSHOLIKKA BARCHAM BERISH
1.3-maqsad

- 2024-yilda "**Navoiyazot**" AJ ishchilar va ularning oila a'zolarining zaif toifalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi:
- 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalarni tarbiyalayotgan **28 nafar** ayolga **45,9 mln so'mlik** manzilli moddiy yordam ko'rsatildi.
- "Oftobjon" yozgi sog'lomlashtirish lagerida xodimlarning **1540 nafar** farzandi reabilitatsiya qilindi va to'liq ovqat bilan ta'minlandi.

2 DOHLIKKA BARCHAM BERISH
2.1-maqsad
2.4-maqsad

- 2024 yilda **226 nafar** xodim ishga qabul qilindi, ulardan **59 nafari ayollar**.
- Kompaniyadagi rahbarlik lavozimlarining **20 % ni** va ishchi xodimlarning **42 % ni** ayollar tashkil etadi.

5 GENDER TENLIGI
5.5-maqsad

- 2024-yilda suv resurslarini muhofaza qilish bo'yicha jami **333 mln so'mlik 9 ta chora-tadbirlar** amalga oshirildi.
- Zararli chiqindilarni kamaytirish hamda ventilyatsiya tizimi va gaz tozalash moslamalari ishlashini ta'minlash bo'yicha ishlar olib borildi.

6 TOZA SUV VA SANITARIYA
6.3-maqsad

- Energiya samaradorligini oshirish bo'yicha **14 ta chora-tadbirlar** amalga oshirilishi natijasida Kompaniya **284 mln kVt/soat elektr energiyasini** tejadi.
- 2024-yilda "**Navoiyazot**" AJ umumiy quvvati **5 685 kVt** bo'lgan quyosh elektr stansiyalarini o'rnatish bo'yicha ikkita loyihani amalga oshirdi va, bu loyihalar tashqi energiya manbalariga bog'liqlikni va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan.

7 ARZON VA TOZA ENERGIYA
7.2-maqsad
7.3-maqsad

- 2024-yilda "Navoiyazot" AJ tomonidan zararli va og'ir mehnat sharoitlarida band bo'lgan ishchi-xizmatchilar uchun sut mahsulotlari va boshqa davolash-profilaktik ovqatlanish vositalarini xarid qilish uchun **24 mlrd so'mdan** ortiq mablag' yo'naltirildi.
- Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha jamoa shartnomasi doirasida **47,3 mlrd so'mlik** tadbirlar amalga oshirildi.
- Kompaniya tomonidan **5 150 nafar xodim** tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.
- "Navoiyazot" AJning Faxriy taxtasiga kiritilgani munosabati bilan **59 nafar** xodimga **258,99 mln so'mlik** rag'batlantirish to'lovlari taqdim etildi.
- 2024-yilda kompaniya barqaror rivojlanish va bandlikni ta'minlash sohasida yirik loyihalarni amalga oshirdi: HPMK va selluloza ishlab chiqarish obyekti foydalanishga topshirildi va bunda **8 mln dollarlik** investitsiya jalb qilindi va **100 ta ish o'рни** yaratildi hamda **260 mln dollarlik** quyosh elektr stansiyasini qurish, qo'shimcha **60 ish o'рни** yaratish bo'yicha shartnoma imzolandi. Qo'shimcha tarzda, Navoiy va Xorazm viloyatlaridagi **6 ta ijtimoiy** obyektida **651,2 mln so'mlik** ishlar amalga oshirildi.

8 MUNOSIB ISH O'RINLARI VA IQTISODIY O'SHISH
8.5-maqsad
8.8-maqsad

- Jamiyat tomonidan 2024-yilda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida **7,7 mlrd so'mlik 40 ta atrof-muhitni** muhofaza qilish chora-tadbirlari amalga oshirildi.
- 2024-yilda **1 704,60 tonna chiqindilar** utilitatsiya qilindi.
- 2024-yilda **280 mln so'm** qiymatida sanoat va maishiy chiqindilar bo'yicha **6 ta tadbir** amalga oshirildi.

12 MASTULIYATI ISTE'MOL VA ISHLAB CHIQARISH
12.2-maqsad

- Ilgari xalqaro konsalting kompaniyasi tomonidan "**Navoiyazot**" AJ uchun iqlim o'zgarishi va kam uglerodli iqtisodiyotga o'tishning kompaniya faoliyatiga ta'sirini tahlil qilib, iqlim xavfini har tomonlama baholandi. **2025-yilda XMHS S2 xalqaro standarti talablariga muvofiq xavf va imkoniyatlarni baholash bo'yicha ma'lumotlarni oshkor qilishni hisobga olgan holda kompaniyaning iqlim strategiyasini ishlab chiqish rejalashtirilmoqda.** Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq jismoniy va o'tish davri xavflari, shuningdek, kompaniyaning imkoniyatlari yangilanadi.
- Kompaniya o'zining 1-qamrov va 2-qamrov** issiqxona gazlari emissiyasini miqdoriy baholamoqda. 2024-yilda issiqxona gazlarining umumiy emissiyasi **1,4 mln tonna CO₂-ekv** ni tashkil etdi.

13 KLIM O'ZGARISHIGA QARSHI KURASHISH
13.2-maqsad

Ichki va tashqi audit

Ichki audit

Ichki audit xizmati Kompaniyaning ichki nazorat funksiyalarini bajarish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi. U "Navoiyazot" AJning Kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlangan "Ichki audit xizmati to'g'risida"gi Nizom asosida tashkil etilgan va Kuzatuv kengashi qoshidagi Audit qo'mitasiga hisobot beradi.

Audit xizmatining asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Auditorlik tekshiruvlari natijalari asosida Kuzatuv kengashiga Kompaniya faoliyatining samaradorligini oshirish borasida aniq ma'lumotlar va tavsiyalar taqdim etish.
- Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha Kengashga takliflar tayyorlash va ularning bartaraf etilishini nazorat qilish.
- Barcha aksiyadorlarning, shu jumladan minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash.

Audit xizmati normativ talablarga to'liq javob beradi va uning xodimlari buxgalteriya hisobi, audit, moliyaviy yoki soliq nazorati bo'yicha zarur tajribaga ega (oxirgi o'n yildan kamida ikki yil) va zarur malakaga ega: auditorlik sertifikatini yoki O'zbekistonda e'tirof etilgan oliy iqtisodiy ma'lumot. Xodimlarni sertifikatlash belgilangan tartibda auditorlarning respublika kasbiy birlashmalari va Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Jamiyatning ichki audit xizmati belgilangan standartlarga javob beradi.

Xizmat shtati uch nafar xodimdan iborat, biroq aslida hisobot davrida faqat ikki nafar mutaxassis ishlagan. Xizmat rahbari, shuningdek, auditorlardan biri zarur kasbiy sertifikatlariga ega bo'lib, bu ularning yuqori malaka darajasini tasdiqlaydi. Xizmat faoliyatini yillik rejalashtirish va xarajatlar smetasini tuzish rahbar tomonidan amalga oshiriladi va Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Kasbiy saviya darajasini saqlab turish litsenziyaga ega bo'lgan ta'lim muassasalarida xodimlarning malakasini muntazam oshirish orqali ta'minlanadi. Shuningdek, xodimlar Kuzatuv kengashi tomonidan har yili o'tkaziladigan attestatsiyadan o'tadilar, bu esa xizmatning samarali va belgilangan standartlarga muvofiq, ishlashiga xizmat qiladi.

Tashqi audit

"Navoiyazot" AJning hisobot yilidagi moliyaviy hisobotlarining ishonchligini tasdiqlash uchun "KPMG Audit" MCHJ mustaqil auditorlik tashkiloti Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (keyingi o'rinlarda - XMHS), shuningdek, "TTT-Audit" MCHJ Jamiyatni moliyaviy hisobotining O'zbekiston Respublikasi Milliy buxgalteriya hisobi standarti talablariga muvofiqligini tekshirish uchun jalb qildi.

Audit tekshiruvlari har yili o'tkaziladi va o'tgan yil uchun moliyaviy hisobot va operatsion jarayonlarni qamrab oladi. Auditorlik tashkilotini tanlash O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tanlov tartib-qoidalariga asosida amalga oshiriladi.

Sifat boshqaruvi

Kompaniya jarayonlar va mahsulotlarni doimiy ravishda takomillashtirishga intiladi va shu tarzda faoliyatning barcha bosqichlarida yuqori sifat standartlarini ta'minlaydi. Bu ishlar doirasida, ISO 9001 xalqaro standartiga muvofiq, sifat menejmenti tizimi joriy etildi va yuritildi.

ISO 9001 tamoyillari quyidagi hollarda yordam beradi:

- Operatsion samaradorligini va biznes jarayonlarini boshqarish qobiliyatini oshirish.
- Mahsulot va xizmatlar mijozlar talablariga va qonuniy talablarga javob berishini ta'minlash.
- Xavflarni monitoring qilish va boshqarish mexanizmlarini joriy etish.
- Ma'lumotlarni tahlil qilish va olingan fikr-mulohazalar asosida ichki jarayonlarni doimiy ravishda takomillashtirish.

Sifat menejmenti tizimi korporativ boshqaruvga integratsiya qilingan bo'lib, kompaniyaning strategik maqsadlariga erishishga, barqaror rivojlanishga va raqobatbardoshlikni ta'minlashga yordam beradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish

GRI 3-3, 2-23, 2-24

"Navoiyazot" AJ o'z moliyaviy-xo'jalik faoliyatida yuksak ma'naviy va ijtimoiy me'yorlarga amal qiladi va korrupsiyaga qarshi kurash siyosati va tartib-tamoyillarini ishlab chiqish, joriy etish va nazorat qilishga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu sohadagi nazorat uchun, 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6013-sonli Farmoniga muvofiq, tashkil etilgan va 2021-yil yanvaridan boshlab faoliyat ko'rsatishni boshlagan muvofiqlik xizmati javobgardir. Xizmat korxonada korrupsiyaga qarshi siyosat va tartib-tamoyillarni ishlab chiqish, joriy etish va monitoring qilish bilan shug'ullanadi.

Korrupsiya xavflari O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2022-yildagi 3383-sonli qarori doirasida baholanadi. Kompaniya Rais tomonidan tasdiqlangan "Navoiyazot" AJda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tartibi to'g'risida"gi reglamentga muvofiq, xodimlar yoki uning faoliyati bilan bog'liq boshqa shaxslar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini aniqlaydi va boshqaradi. Kompaniya xodimlarni va boshqa manfaatdor tomonlarni joriy etilgan korrupsiyaga qarshi siyosat va chora-tadbirlar to'g'risida elektron hujjat aylanish tizimi (EHAT), shuningdek, jamoaviy yig'ilishlarda xabardor qiladi. "Navoiyazot" AJ tomonidan fikr-mulohazalar bildirish uchun aloqa kanallari ishlab chiqilgan bo'lib, ular haqidagi ma'lumotlar ijtimoiy tarmoqlarda va Kompaniyaning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan. Murojaatlar anonim tarzda yuborilishi mumkin. Barcha kiruvchi murojaatlar tegishli "Aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlarni qayd etish" jurnalida ro'yxatga olinadi, shundan so'ng ular ko'rib chiqish uchun mas'ul ijrochiga beriladi.

Jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining asosiy tamoyillari va elementlarini o'zida mujassamlashtirgan, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro qonunchilik va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi qoidalarini o'z ichiga olgan Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati amal qiladi. U korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan, korrupsiya xavfini minimallashtirish choralari belgilaydi va barcha xodimlar tomonidan rioya qilinishi kerak bo'lgan axloq normalarini belgilaydi.

Siyosat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq, hamda xalqaro tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tavsiyalarini inobatga olgan holda, shuningdek, ilg'or jahon tajribasi va ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari – foydalanish bo'yicha yo'riqnomaga qo'yiladigan talablar" xalqaro standarti asosida ishlab chiqilgan. ISO 37001:2016 standartini joriy etish va unga muvofiqligini ta'minlash doirasida "Navoiyazot" AJ tomonidan 30 dan ortiq ichki me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, joriy etildi.

2023-yil yanvar oyida Kompaniya ISO 37001:2016 standarti talablariga muvofiqligi bo'yicha tashqi sertifikatlash auditidan muvaffaqiyatli o'tdi va tegishli sertifikatni oldi. **2024-yil yanvar oyida sertifikat "CERT International"** mustaqil kompaniyasi tomonidan takroriy tashqi audit o'tkazish davomida tasdiqlangan.



Siyosatni amalga oshirish doirasida **Jamiyat Korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini** joriy etmoqda va ular mavjud korrupsiya xavflari, mavjud tajriba va mavjud resurslarni hisobga oladi.

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining maqsadlari

- Korrupsiyani tubdan yo'q qilishga erishish;
- Jamiyat xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;
- Korrupsiyaga nisbatan "nol tolerantlik" tamoyiliga Jamiyatning sodiqligini tasdiqlash;
- Har qanday korrupsiyaviy harakatlarni rad etishning korporativ madaniyatini yaratish va qo'llab-quvvatlash;
- Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va talablarini fuqarolik-huquqiy shartnomalar taraflari va keng jamoatchilikka yetkazish orqali korrupsiya xavflarini kamaytirish;
- Jamiyat va uning xodimlarining korrupsiyaviy faoliyatga aralashish xavfini minimallashtirish tamoyillari, maqsadlari va chora-tadbirlarini umumlashtirish;
- Jamiyat faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularni bartaraf etish, shuningdek, ularning yuzaga kelishiga olib keluvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni ta'minlash.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha asosiy hujjatlar

Korrupsiyaga qarshi samarali kurashish va o'z faoliyatining ochiqqligini ta'minlash maqsadida "Navoiyazot" AJ bir qator qonunchilik va ichki me'yoriy hujjatlarga amal qiladi.

Qonunchilik aktlari:

- O'zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-sonli Farmoni.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2019 yildagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-sonli Farmoni.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-sonli Farmoni.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2021 yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-sonli qarori.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.07.2021 yildagi "Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5171-sonli qarori.
- O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining va Adliya vazirligining 2022-yil 31-avgustdagi "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat muassasalari, davlat ulushi 50 % dan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash to'g'risida"gi 3383-sonli qarori.

Ichki me'yoriy hujjatlar:

- Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarish tizimining hujjatlarini tasdiqlash to'g'risidagi buyruq.
- Komplayensni boshqarish to'g'risidagi nizom.
- Komplayensni boshqarish bo'yicha mutaxassislarning lavozim tavsiflari (ishlab chiqarish, moliya, nazorat).
- Monopoliyaga qarshi muvofiqlik xizmatining lavozim tavsiflari.
- "Navoiyazot" AJning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati.
- Kasbiy axloq kodeksi.
- Kasbiy etika komissiyasi to'g'risidagi nizom.
- Sovg'alar berish va olish, ishbilarmonlik tadbirlarini tashkil etish va ishtirok etish siyosati.
- Korrupsiya xavfini aniqlash va baholash tartibi.
- Aloqa kanallari orqali xabarlarini qabul qilish va qayta ishlash to'g'risidagi Reglament.
- Xayriya va homiylik faoliyatini amalga oshirish siyosati.
- Ichki tekshiruvlar siyosati.
- Manfaatlarni to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom.
- Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan o'zaro hamkorlik qilish tartibi.
- Korrupsiyaga qarshi kurash tartib-qoidalariga rioya etilishini monitoring qilish va nazorat qilish tartibi.
- Qonun buzilishi haqida xabar berish tartibi.
- Faoliyat samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini ko'rib chiqish.
- Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha hisobot berish to'g'risidagi nizom.
- Moliyaviy nazorat tartibi.
- ISO 37001:2016 standarti bo'yicha ichki audit to'g'risidagi Nizom.
- Ish yuritishda maxfiylik to'g'risida nizom.
- Ichki nazorat tizimi to'g'risidagi nizom.
- Ishga nomzodlarni saralash bo'yicha ko'rsatmalar.

Ushbu hujjatlar korrupsiyaga qarshi jarayonlarni boshqarishga kompleks yondashish imkonini beradi hamda "Navoiyazot" AJ tomonidan ishbilarmonlik etikasi va oshkorlikning yuqori standartlariga rioya qilishiga yordam beradi.



Jamiyatning korrupsiyaga qarshi tashabbuslari quyidagilarga qaratilgan:

- Korrupsiyaning oldini olish;
- Korrupsiyani aniqlash, bartaraf etish va tergov qilish;
- Korrupsiya oqibatlarini minimallashtirish va/yoki bartaraf etish.

Jamiyatning komplayensni (korrupsiyaga qarshi kurashish) nazorat qilish xizmati Kuzatuv kengashiga bevosita va tezkor murojaat qilish imkoniyatiga ega.

GRI 205-1

2024-yilda "Navoiyazot" AJda korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiqligi yuzasidan ichki audit o'tkazildi. Audit 16 ta tarkibiy bo'linmani, jumladan, ishlab chiqarish, ta'minot, transport, kadrlar va boshqaruv funksiyalarini qamrab oldi. Audit doirasida potensial korrupsiya xavflari, shu jumladan, xodimlarni korrupsiyaga qarshi siyosat bilan tanishtirish, ichki hujjatlarning dolzarbligini ta'minlash, ko'rsatmalar berish va jurnallarni yuritish tartibi borasida baholandi. Tizimning korrupsiyaga nisbatan zaifligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan rasmiy nazorat va tashkiliy jihatlarga tegishli bo'lgan 21 ta qoidabuzarlik aniqlandi. Ushbu natijalar tuzatuvchi harakatlar va tizimni yanada mustahkamlash uchun asosga aylandi.

2024-yilda "Navoiyazot" AJ tomonidan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha 46 ta chora-tadbir amalga oshirildi, jumladan:

- Korrupsiyaga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirish maqsadida Kompaniyaning asosiy bo'linmalari ishtirokida davra suhbatlari va profilaktika tadbirlarini o'tkazish.
- Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi me'yoriy hujjatlar va faoliyat haqida xodimlarni xabardor qilish uchun Telegram bot, Kompaniyaning rasmiy veb-sayti va ichki nashrlardan foydalanish.
- Manfaatlarni to'qnashuvi masalasi bo'yicha 6 ta haqiqiy va 18 ta ehtimoliy holat aniqlanib, ular Etika va axloq komissiyasi tomonidan ko'rib chiqildi.



- 2024-yilda asosiy ishlab chiqarish bo'linmalari va xizmat ko'rsatish sexlarida, jumladan, PVX, ammiak va organik sintez sexlarida, shuningdek, tibbiy va transport xizmatlarida muvofiqlikni nazorat qilish xizmati xodimlari va vakillari uchrashuvlari o'tkazildi.

O'tkaziladigan **tadbirlardan ko'zlangan maqsad** xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish va korrupsiyaga qarshi dunyoqarashni shakllantirishdir.

Jamiyatning barcha xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish amaliyoti bo'yicha o'quvdan o'tkazildi.



Ichki auditga tayyorgarlik ko'rish doirasida korrupsiyaga qarshi amaliyotlar bo'yicha o'qitilgan xodimlar (ISO 37001)

GRI 205-2

Ko'rsatkich	2022	2023	2024
Yuqori darajali rahbarlar (yuqori boshqaruv)	2	2	2
O'rta darajadagi rahbarlar	10	7	7
Mutaxassislar	10	13	13

Korrupsiyaga qarshi kurashishning mavjud siyosati va usullari to'g'risida xabardor qilingan xodimlar soni

Ko'rsatkich	2022	2023	2024
Yuqori darajali rahbarlar (yuqori boshqaruv)	6	6	6
O'rta darajadagi rahbarlar	598	597	495
Mutaxassislar	936	941	944
Ishlab chiqarish xodimlari	7 174	7 067	7 049

Korrupsiya xavflari nuqtai nazaridan baholangan bo'linmalar soni

GRI 205-1

Ko'rsatkich	2022	2023	2024
Korrupsiya bilan bog'liq xatarlar yuzasidan baholangan bo'linmalarining umumiy soni	104	104	104
Jamiyatning barcha bo'linmalari, birlik	104	104	104
Korrupsiya bilan bog'liq xavflar bo'yicha baholangan bo'linmalar ulushi, %	100	100	100

"Navoiyazot" AJ bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishadigan barcha **biznes sheriklar** Kompaniyada amal qiladigan korrupsiyaga qarshi kurash siyosati va korrupsiyaga qarshi kurashish usullari to'g'risida xabardor qilinadi.

Jamiyatda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha "ishonch telefoni"ning ishlash tartibi to'g'risidagi nizom mavjud bo'lib, murojaatlarni samarali qabul qilish va hisobga olish imkonini beradi. Ushbu liniyalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, faoliyat yuritadi hamda murojaatlarni ko'rib chiqishda shaffoflik va samaradorlikni oshirishga mo'ljallangan.

2024-yilda "Navoiyazot" AJda korrupsiya bilan bog'liq xavflarni, kompleks baholash ichki tartib-qoidalar va ISO 37001:2016 standarti talablariga muvofiq, amalga oshirildi. Tahlil asosiy biznes jarayonlarini, jumladan, davlat xaridlari, shartnomalar tuzish va xodimlarni boshqarishni qamrab oldi. Baholashdan maqsad - bu xavf zonalarini aniqlash va korrupsiyani minimallashtirish uchun oldini olish choralarini joriy etish.

Baholashning asosiy natijalari:



Xaridlar va tenderlar:

Hisobot davrida

16 ta tender

e'lon qilingan bo'lib, ular natijasida

3,7 mlrd so'mlik

shartnomalar tuzildi. Tenderlarni o'tkazish jarayonlari suiiste'mollarning oldini olish maqsadida qat'iy nazorat qilindi.



Shartnomalarni boshqarish:

2024-yilda Kompaniya tomonidan

1 594 ta shartnoma tuzilib,

shundan

402 tasi to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan.

Shartnomalarda korrupsiya xavfi mavjudligini tekshirish, jumladan, tartib va qoidalarga rioya etilishini nazorat qilishga alohida e'tibor qaratildi.



Xayriya va vakillik xarajatlari:

"Xayriya va homiylik faoliyati sohasidagi siyosat" doirasida Kompaniya tomonidan

20,64 mlrd so'mlik

tadbirlar amalga oshirildi. Vakillik ehtiyojlari uchun sarflangan xarajatlar

835,32 mln so'mni tashkil etib,

shundan

800,84 mln so'mi

mehmonlarni qabul qilishga sarflandi. Tasdiqlangan biznes-rejadan ortiqcha qo'shimcha homiylik xarajatlari amalga oshirilmagan bo'lib, bu moliyaviy intizomga rioya qilinganligidan dalolat beradi.



Xodimlar bilan bog'liq xavflar:

2024-yilda

226 nafar xodim ishga joylashtirildi, 343 nafar

xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi.

Shundan 57 nafari shtat qisqarishi munosabati bilan, 226 nafari o'zaro kelishuv asosida, 18 nafari esa o'z xohishiga binoan ishdan bo'shatilgan. Ichki nazorat davomida 1628 ta mehnat intizomi va ichki tartib qoidalarini buzish holatlari aniqlanib, ular uchun xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilgan.


Tasdiqlangan korrupsiya holatlari va ko'rilgan choralar

GRI 205-3

Hisobot davrida "Navoiyazot" AJda shartnomalar ijrosi, xodimlarning mehnat huquqlari va rahbariyat mas'uliyatiga rioya qilish darajasidagi qonunbuzarliklarni aks ettiruvchi **16 ta korrupsiya holati aniqlangan**.

Tasdiqlangan korrupsiya holatlari

GRI 205-3



Aniqlangan qoidabuzarliklar yuzasidan shu kabi holatlarni takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun intizomiy choralar qo'llanildi. Eng og'ir holatlar qo'shimcha tergov o'tkazish uchun prokuratura va sud organlariga yuborilgan. Kompaniya korrupsiya xavfini minimallashtirish va jarayonlarning shaffofligini oshirish uchun ichki nazoratni kuchaytirishni maqsad qilgan.

Tashkilotning korrupsiyaga qarshi ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2022	2023	2024
Korrupsiyaviy xatti-harakatlar uchun xodimlarni ishdan bo'shatish yoki jazolash holatlarining umumiy soni, dona.	7	3	10
Korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar tufayli biznes hamkorlar bilan shartnomalarni uzaytirmaslik yoki bekor qilishning tasdiqlangan holatlarining umumiy soni, dona.	24	2	8
Hisobot davrida tashkilot yoki uning xodimlariga nisbatan qo'zg'atilgan korrupsiya bilan bog'liq ochiq sud ishlarining soni.	5	3	4

Qonunchilikka rioya qilish

GRI 2-27, 206-1

2024-yil hisobot yilida qonun va me'yoriy hujjatlarga rioya qilmaslik bo'yicha jiddiy holatlar aniqlanmadi va kompaniyaga nisbatan jarimalar qo'llanilmadi. Korxonaning asosiy faoliyati kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lganligi sababli uning atmosfera havosi va suv resurslariga ta'siri qonun hujjatlarida belgilangan chegaralar doirasida amalga oshiriladi.

Hisobot davrida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli organ tomonidan muvofiqlashtiruvchi tekshiruv o'tkazildi. Uning natijalariga ko'ra Kompaniya tomonidan

1,1 mlrd so'm miqdorida kompensatsiya to'lovlari hisoblab chiqildi va shu hisobot yilida to'landi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi va atrof-muhitga muvofiqlik ustidan nazoratni atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'limi amalga oshiradi.



Atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlariga yo'naltirilgan xarajatlar

GRI 2-27

Ko'rsatkich	2022	2023	2024
Atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlari uchun xarajatlar, ming so'm	2 482 850	3 933 752	7 699 746




2024 va 2025-yillarda "Navoiyazot" AJ monopoliyaga qarshi tartibga solish doirasida Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining da'volari bo'yicha tumanlararo iqtisodiy sudida asossiz ravishda daromad olish holatlari bo'yicha ish yuritishga jalb qilindi. Natijada sud "Navoiyazot" AJga 20 494 304,6 ming so'm miqdorida jarima soldi, bunga sabab sifatida birjaga mahsulot o'z vaqtida joylashtirilmagani bo'ldi. Qo'mita tomonidan Kompaniya tomonidan tegishli tartib-tamoyillar amalga oshirilishi haqida xabar berilganiga qaramay, sud qarori kompaniya foydasiga hal bo'lmadi. Kompaniya monopoliyaga qarshi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash va bunday qoidabuzarliklar xavfini minimallashtirish bo'yicha ichki tartib-qoidalarni takomillashtirishni davom etmoqda.

2022-yildan 2024-yilgacha tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini moliyalashtirish hajmida barqaror ijobiy dinamika kuzatilmoqda.

Agar 2022-yilda xarajatlar 2 482 850 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ular 3 933 752 ming so'mga, 2024-yilda esa 7 699 746 ming so'mga yetdi.

2022-2024-yillar davomida kompaniyaning ekologik to'lovlari tarkibi va hajmi uning atrof-muhitga ta'siri hajmi va amaldagi atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchiligiga qarab o'zgardi. Emissiya va ifloslanishning ko'chmachi manbalari uchun to'lovlar keskin tebranishsiz o'xshash darajada saqlanib qoldi, bu esa ushbu sohadagi ishlab chiqarish jarayonlarining barqaror xarakterini aks ettiradi.

Ekologik to'lo'vlar, ming so'm



- Ko'chma manbalar
- Chiqindilarni joylashtirish
- Oqova suvlar
- Atmosferaga tashlanmalar

"Navoiyazot" AJ shaffoflik, samaradorlik, barqaror rivojlanish va me'yorlarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida milliy va xalqaro talablarga javob beradigan ichki nazorat tizimini barpo etmoqda.



Ichki audit xizmati

Ichki audit xizmati Kuzatuv kengashi huzuridagi Audit xizmati qo'mitasiga bo'ysunuvchi mustaqil tarkibiy bo'linma hisoblanadi. Xizmat faoliyati Kuzatuv kengashining qarori bilan tasdiqlangan Ichki audit xizmati to'g'risidagi nizam bilan tartibga solinadi.

Quyidagilar ichki audit xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- Ichki nazorat va xavflarni boshqarish tartib-tamoyillariga rioya etilishini nazorat qilish;
- Mustaqil tekshirish o'tkazish va Kuzatuv kengashiga hisobot berish;
- Qoidabuzarliklar va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash;
- Kompaniya faoliyati samaradorligini oshirish va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish.

Audit xizmatining shtat soni 3 kishini tashkil etadi, hisobot davrida aslida 2 ta mutaxassis ishlagan. Rahbar va xodimlardan biri zarur audit sertifikatlariga va iqtisodiyot bo'yicha oliy ma'lumotga ega.

2024-yilda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratildi:

- Xalqaro ichki audit standartlariga (IIA) muvofiq, audit xizmati funksiyalarini rivojlantirish;
- audit xizmatiga barcha darajadagi boshqaruv va hujjatlarga yo'l ochib berish;
- xodimlarning malakasini muntazam oshirish va ularni hal yili attestatsiya qilish.



Uyg'unlashgan boshqaruv tizimlari (UBT) sohasida ichki audit.

"Navoiyazot" AJ quyidagi xalqaro standartlarni o'z ichiga olgan boshqaruv tizimini qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi :

- ISO 9001 - Sifat boshqaruvi tizimi
- ISO 14001 - Ekologik boshqaruv.
- ISO 45001 - Sog'liqni saqlash va xavfsiz mehnatni ta'minlash boshqaruv tizimi.
- ISO 50001 - Energiya boshqaruvi.

Ushbu tizimlar doirasida har yili malakali ichki auditorlarni jalb qilgan holda ichki audit o'tkaziladi, uning davomida:

- Standartlar talablariga muvofiqlik baholanadi.
- operatsion jarayonlardagi xavf va imkoniyatlar tahlil qilinadi.
- tuzatish choralarini va takomillashtirish bo'yicha takliflar shakllantiriladi.

ISO 37001 (Korrupsiyaga qarshi boshqaruv) ga muvofiq ichki audit.

2024-yildan boshlab Jamiyatda ISO 37001 ga muvofiq, korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimiga amal qilmoqda. Korrupsiyaga qarshi siyosat va tartib-tamoyillarining ichki auditi quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- korrupsiya xavflarini aniqlash;
- normativ-huquqiy bazaga muvofiqlikni baholash;
- korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar samaradorligi monitoringi;
- boshqaruvning barcha darajalarida axloqiy me'yorlarga rioya etilishini ta'minlash.

Tashqi audit.

2024-yil uchun moliyaviy hisobotlarning ishonchligini tasdiqlash uchun:

- XMHS-ga muvofiq, audit "KPMG Audit" MChJ xalqaro kompaniyasi tomonidan o'tkazildi;
- Buxgalteriya hisobining milliy standartlariga muvofiq audit - "Buxgalteriya Service Audit" MChJ auditorlik kompaniyasi.

Ikkala tashkilot ham tanlov asosida tanlab olindi. Auditorlar moliyaviy va operatsion ma'lumotlar tahlilini o'z ichiga oldi va hech qanday jiddiy qoidabuzarliklarni aniqlamadi. Xulosalar Kuzatuv kengashiga taqdim etildi va belgilangan tartibda oshkor qilindi.

Manfaatlar to'qnashuvi

GRI 2-15

Manfaatlar to'qnashuvi - bu xodimlarning shaxsiy manfaatlari Jamiyat manfaatlariga zid kelishi mumkin bo'lgan vaziyat bo'lib, bu ular tomonidan qaror qabul qilinishda ularning xolisligi va halolligiga ta'sir qilishi mumkin. **Jamiyatning maqsadi** manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq xavflarni minimallashtirish, shuningdek, biznes amaliyotida shaffoflik va ishonchni ta'minlashdan iborat. Shu maqsadda Jamiyat faoliyati va uning obro'siga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni o'z vaqtida aniqlash, oldini olish va hal qilishga qaratilgan manfaatlar to'qnashuvini boshqarish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Manfaatlar to'qnashuvini boshqarishga yondashuv



"Manfaatlar to'qnashuvlarini boshqarish to'g'risida"gi Nizomga muvofiq, "Navoiyazot" AJda manfaatlar to'qnashuvining asosiy turlari, ularni hal qilish bo'yicha yondashuvlar, shuningdek, xodimlarning burch va mas'uliyatini belgilab qo'yilgan. Jamiyatning barcha xodimlari, lavozimi va mansab vakolatidan qat'i nazar, ushbu hujjatda belgilangan norma va talablarga rioya qilishlari shart.

Manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- **Oldini olish chora-tadbirlari va jamoat manfaatlarining ustunligi.** Xodimlar ochiqlik, halollik va xolislik asosida qarorlar qabul qilgan holda fuqarolar va davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yishlari shart.
- **Manfaatlar to'qnashuvini haqida ma'lumot oshkor qilish.** Har bir xodim mumkin bo'lgan yoki haqiqiy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni zodlik bilan oshkor qilishga majburdir, bu Jamiyatga ularni tezda bartaraf etish choralarini ko'rish imkonini beradi.
- **Manfaatlar to'qnashuviga nisbatan murosasizlik korporativ madaniyatini ta'minlash.** Jamiyatda shaffoflik madaniyati amal qiladi va u manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar bergan shaxslarga nisbatan choralar ko'rilishini istisno etadi. Bunday holatlar haqida xabar bergan shaxslar o'z harakatlarining salbiy oqibatlaridan himoyalangan.
- **Mojarolarni hal qilishda halol va xolis yondashuv.** Manfaatlar to'qnashuvining barcha holatlari xolisona, jamoaviy qarorlar va obyektiv baholash asosida ko'rib chiqiladi.

Agar xodim manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida o'z vaqtida xabar bergan bo'lsa, Kompaniya manfaatlari yo'lida shaxsiy manfaatlaridan voz kechishga va belgilangan qoidalar doirasida harakat qilishga tayyor bo'lsa, bu uni ishdan bo'shatish uchun sabab bo'la olmaydi. Bunday yondashuv halol o'zaro munosabatlar va yuqori axloqiy me'yorlarga rioya qilish korporativ madaniyatning asosi bo'lgan adolatli muhitni yaratishga qaratilgan.

Fikr bildirish mexanizmlari

GRI 2-16, 2-25, 2-26

"Navoiyazot" AJ fuqarolar va yuridik shaxslarga "Ishonch telefoni", virtual qabulxona, elektron pochta, rahbarlar bilan yuzma-yuz uchrashuvlar kabilarni o'z ichiga olgan aloqa tizimi orqali ma'lumot olish va murojaatlar yuborishning qulay kanallarini taqdim etadi. Mazkur tizimning ishlashi Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlanadigan hamda Jamiyat kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi ichki Nizom bilan tartibga solinadi va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Tizimni yaratishdan maqsad - bu ariza beruvchilar bilan o'zaro munosabatlarning shaffofligi va samaradorligini oshirish, murojaatlarni tezda ko'rib chiqishni va yuzaga keladigan muammolarni tezkor hal qilishni ta'minlashdir. Barcha murojaatlar yagona axborot tizimida qayd etiladi, mavzular bo'yicha tasniflanadi va belgilangan muddatlarda ko'rib chiqish uchun mas'ul bo'limlarga yuboriladi.

"Navoiyazot" AJ ISO 9001, ISO 14001 va ISO 45001 xalqaro standartlariga mos tartib-tamoyillar asosida qurilgan Uyg'unlashgan boshqaruv tizimi doirasida shikoyat va da'volarni boshqaradi. Kasaba uyushmasi qo'mitasiga yuboriladigan ariza va murojaatlar O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Prezidiumining qarori bilan tasdiqlangan "Kasaba uyushmalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom"ga muvofiq, ko'rib chiqiladi.

Jamiyatning manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatlarga yondashuvi shaffoflik va faol muloqotga asoslangan. Jamiyat yuzaga keladigan savollarga uchrashuvlar, davra suhbatlari, ommaviy hisobotlar va press-revizlar, ochiq tadbirlarda qatnashish va rasmiy aloqa kanallari (veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlar) orqali javob beradi. Bundan tashqari, tashkilot atrof-muhitni muhofaza qilish, sanoat xavfsizligi va ishchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlari, kasaba uyushmalari va jamoat birlashmalari bilan hamkorlik qiladi, bu muammolarni o'z vaqtida hal etishga va salbiy ta'sirlarning takrorlanishining oldini olishga yordam beradi.

Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarining samaradorligi

Korxonaga tegishli tarkibiy bo'linmalarining vakolati doirasida barcha shikoyatlarni ro'yxatga olish, ularni tahlil qilish, tuzatish choralarini ko'rish hamda takroriy holatlar yo'qligini keyinchalik tekshirish orqali shikoyatlarni ko'rib chiqish samaradorligini ta'minlaydi. Mahsulot sifati bilan bog'liq barcha shikoyatlar majburiy tartibda ko'rib chiqiladi va Uyg'unlashgan boshqaruv tizimi (UBT) bo'yicha rahbariyat vakili tomonidan tayyorlanadigan yarim yillik hisobotlarga kiritiladi. Shu jumladan, 2024-yilda Latviya va Qozog'istonga yetkazib berishda qadoqlash sifatiga qilingan murojaatlar natijasida qadoqlash materiallariga talablar kuchaytirildi, bu esa murojaatlar sonini kamaytirdi. Qoraqalpog'iston va Qora'zak stansiyalarida mahsulot sizib chiqishi bilan bog'liq noxush hodisalardan so'ng kompaniya logistika jarayonlarini modernizatsiya qildi va takrorlanishning oldini oldi. Samaradorlik o'xshash shikoyatlarning yo'qligi, iste'molchilarning yozma fikr-mulohazalari va ichki va tashqi audit natijalari bilan tasdiqlanadi. "Navoiyazot" AJda "Ishonch telefoni"ni tashkil etish bir qancha muhim elementlarni o'z ichiga oladi.



Murojaat qilish kanallari fuqarolar uchun qulaylik yaratadi:

murojaatlar telefon, elektron pochta va boshqa mavjud vositalar orqali qabul qilinadi, ular to'g'risida ma'lumot ochiq manbalarda chop etiladi.

Ishonch telefonining ishlash tartibi ish kunlarida tasdiqlangan jadvalga muvofiq, o'rnatiladi; ish vaqtdan tashqari bo'lgan vaqtda arizachi xabarni qoldirishi mumkin va u olinganidan keyin birinchi ish kunida ko'rib chiqiladi.

Murojaatlarni ro'yxatdan o'tkazish barcha qabul qilingan murojaatlar uchun majburiydir - ariza beruvchining ma'lumotlari, murojaatning mohiyati, uni qabul qilish sanasi va vaqti qayd etiladi. Murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi: javoblar qo'shimcha o'rganishni talab qilmaydigan murojaatlar bo'yicha o'n besh kundan kechiktirmay, tekshirish yoki o'rganishni talab qiladigan murojaatlar bo'yicha esa bir oydan kechiktirmay taqdim etiladi.

Murojaatni to'liq ko'rib chiqilgunga qadar va ariza beruvchiga javob berilgunga qadar ijro nazorati mas'ul rahbarlar tomonidan ta'minlanadi.

Ma'lumotlarning maxfiyligi amaldagi qonunchilikka muvofiq kafolatlanadi, bu arizachilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishni ta'minlaydi.

2024-yilda "Ishonch telefoni" va virtual qabulxona orqali **131 ta murojaat** kelib tushdi, shundan:

- Virtual qabulxona orqali

109 ta murojaat kelib tushdi;

22 ta murojaat

bevosita jismoniy shaxslar tomonidan yuborilgan.

2024-yilda "Ishonch telefoni"ga murojaatlar soni 2023-yildagi 300 tadan 131 taga kamaydi. Qisqartirish xodimlarni tanlashga markazlashtirilgan va tizimlashtirilgan yondashuvni joriy etish bilan bog'liq: bo'sh ish o'rinlari rasmiy ravishda e'lon qilinadi va tanlov Kadrlar boshqarmasida so'rovnoma orqali amalga oshiriladi. Qolgan murojaatlarning aksariyati moddiy yordam ko'rsatish borasida edi. Shu bilan birga, virtual Xalq qabulxonalarini orqali bandlikka oid so'rovlar kelib tushmadi, bu ham yangi aloqa va kadrlar mexanizmlari samaradorligini namoyish etadi. Kelib tushgan murojaatlar mansabdor shaxslar tomonidan, shu jumladan, "Navoiyazot" AJning Boshqaruv Raisi, kasaba uyushmasi qo'mitasi Raisi va Boshqaruv a'zolari tomonidan ko'rib chiqildi. 2024-yilda murojaatlarni tahlil qilish va qayta ishlash doirasida quyidagi choralar qabul qilindi: 26 ta ariza qanoatlanirildi, 105 ta murojaat bo'yicha tushuntirishlar berildi. Birorta ham murojaat rad etilmadi yoki vakolatli tashkilotlarga yuborilmadi va yil oxirida o'rganish bosqichida turgan murojaatlar qolmadi.

Shaffoflikni ta'minlash maqsadida Jamiyat tomonidan rasmiy aloqa kanallari orqali murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar muntazam ravishda chop etiladi. 2024-yilda bunday materiallar korporativ veb-sayt, Telegram-kanal va **"Navoiy kimyogari" gazetasida chop etilib, jami nashrlar soni 139 tani tashkil etdi.**



Mas'uliyatli ta'minot zanjiri

GRI 3-3, 204-1

Jamiyat ta'minot zanjirini boshqarishda shaffoflik va mas'uliyat tamoyillariga amal qiladi, bunda ichki me'yoriy hujjatlar, jumladan Kontragentlar va hamkorlar bilan ishlash tartibi, Kontragentlarni tekshirish tartibi, Shartnomalar tuzish va bajarish to'g'risidagi nizom va Xarid komissiyasining faoliyati to'g'risidagi nizomga rioya qiladi.

2024-yilda kompaniya tomonidan **1594 ta shartnoma** tuzilib, shundan **402 tasi to'g'ridan-to'g'ri** tuzildi. Korxonada ayrim tovar va xomashyolarni import qilsada, ta'minot va xizmatlarning asosiy qismi (**91 % ortig'i**) O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan yetkazib beruvchilar tomonidan ta'minlanadi.



Yetkazib beruvchilarni tanlash va baholash e-tender.uz davlat platformasi orqali amalga oshiriladi, bu esa jarayonning yuqori darajada standartlashtirilishi va shaffofligini ta'minlaydi. Yetkazib beruvchilarni tanlashning barcha mezonlari va qoidalari xaridlar bo'yicha mas'ul ijrochilar tomonidan ishlab chiqiladi, xarid komissiyasining har bir a'zosi bilan kelishiladi va yakunda qo'mita raisi tomonidan tasdiqlanadi. Bu barcha ishtirokchilar uchun teng shart-sharoitlarni kafolatlash va xaridlar jarayoniga ishonchni oshirish imkonini beradi.

"Navoiyazot" AJda xarid jarayonlarini boshqarishni ta'minot bo'limi amalga oshiradi. Xaridlar bo'yicha faoliyat O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-sonli Qonuni talablariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3953-sonli qaroriga muvofiq, tartibga solinadi. Ushbu tizimni boshqarish uchun mas'ul: Marketing, sotish va xaridlar bo'limi.

"Navoiyazot" AJ mahalliy yetkazib beruvchilar va mahalliy tarkib deganda O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiriladigan xaridlarni tushunadi. Mahalliy tarkibning ulushini hisoblash metodologiyasi mahalliy yetkazib beruvchilardan sotib olish hajmining umumiy sotib olish hajmiga, shu jumladan, import yetkazib berishga nisbatiga asoslanadi.

"Navoiyazot" AJda xaridlar xarid.uzex.uz, spot.uz, newcooperation.uz va boshqa davlat birja platformalari orqali amalga oshirilayotganligi sababli, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, shartnoma tuzilgandan so'ng Kompaniya yetkazib beruvchilarga shartnoma shartlaridan tashqari qo'shimcha talablar, shu jumladan, qo'shimcha ekologik talablar qo'yishga haqli emas. Shu munosabat bilan, yetkazib beruvchilarni atrof-muhit mezonlari bo'yicha dastlabki baholash amalga oshirilmaydi va bunday baholash bo'yicha ichki tartib-tamoyillar mavjud emas.

Mahalliy yetkazib beruvchilardan xaridlarning umumiy soni va miqdori

GRI 204-1

Ko'rsatkich	O'lchov birligi	2023	2024
Mahalliy yetkazib beruvchilar bilan xaridlar bo'yicha shartnomalarining umumiy soni	O'lchov birligi	1495	1594
Mahalliy yetkazib beruvchilardan sotib olish ulushi	%	85	91



Bizning xodimlar

- 35 Boshqaruvga yondashuv
- 35 Kadrlar bilan ishlash
- 40 Kadrlarni tayyorlash va rivojlantirish
- 41 Yoshlar siyosati
- 42 Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash
- 45 Xilma-xillik va inklyuzivlik



BIZNING XODIMLAR

Boshqaruvga yondashuv

GRI 3-3, 2-23, 408-1, SASB RT-CH-530a.1

“Navoiyazot” AJ xodimlarining farovonligiga barqaror rivojlanishning ajralmas qismi sifatida qaraydi. “Navoiyazot” AJ o'zining kadrlarni boshqarish amaliyotini faol takomillashtirmoqda va jamoaning umid-larini qondirishga intilmoqda, va shu tarzda xodimlarning huquqlari himoyasini ta'minlab, martaba o'sishi va rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat xodimlarning qoniqishini oshirishga yordam beradi, balki biznesning operatsion samaradorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

“Navoiyazot” AJning ijtimoiy va kadrlar siyosati asosini Kadrlar siyosati va, Jamiyat va uning xodim-lari o'rtasida tuzilgan Jamoa shartnomasi tashkil etadi. Jamoa shartnomasi “O'zkiyosanoat” AJ va, Kimyo va farmatsevtika sanoati xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashining tarmoq shartnomasi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, xodimlarning 100 % ni qamrab olgan va unda Jamiyat rahbariyatining xodimlarning ijtimoiy huquqlarini himoya qilish va jamoaning har bir a'zosi farovonligi uchun g'amxo'rlik ko'rsatishga intilishi alohida ta'kidlangan.

“Navoiyazot” AJ inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi milliy qonunchilik va xalqaro normalar talablariga qat'iy amal qiladi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 412-moddasiga muvofiq, korxonada 18 yoshga to'lmagan shaxslar mehnatidan foydalanishga, shuningdek, majburiy mehnatning har qanday shaklidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Jamiyat kamsitish, ekspluatatsiya va majburiy mehnatning har qanday ko'rinishini oldini olishga qaratilgan Inson huquqlari sohasidagi siyosat ishlab chiqilgan va amalga qiladi. Hisobot davrida majburiy mehnatni qo'llash holatlari aniqlanmadi.

Kadrlar bilan ishlash

GRI 2-7




2024-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, “Navoiyazot” AJ xodimlarining umumiy soni

8 494 nafarni tashkil etadi.

Yil oxirida xodimlarning ro'yxatdagi soni, shaxslar.

GRI 2-7



“Navoiyazot” AJ O'zbekiston Respublikasining mehnat resurslari, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi qonunchiligiga, shuningdek, ichki me'yoriy hujjatlarga muvofiq kadrlar boshqaruvi tizimini qurmoqda, jumladan:


- “O'zkiyosanoat” AJning nizomlari va ko'rsatmalari;
- Navoiy viloyati va Navoiy shahar hokimliklarining ko'rsatmalari;
- “Navoiyazot” AJ Boshqaruvi Raisining buyruqlari va ko'rsatmalari;
- Kadrlar bo'limi boshlig'ining buyruqlari;
- Xodimlar uchun amaldagi Jamoa shartnomasi va ichki mehnat qoidalari;
- “Navoiyazot” AJning ustavi va qoidalari, shu jumladan, Kadrlar siyosati, Inson huquqlari sohasidagi siyosat, “Navoiyazot” AJda xodimlarni rotatsiya qilish to'g'risidagi nizom, “Navoiyazot” AJning lavozimlarga nomzodlarni tanlash va tavsiya etish tizimini takomillashtirish, shuningdek, kadrlarning samarali zaxirasini shakllantirish bo'yicha doimiy komissiya to'g'risidagi nizom, shuningdek, Kadrlar strategiyasi;
- Kadrlar bilan ishlash bo'yicha ko'rsatmalar va ma'lumotnomalar, masalan, “Korxonada xodimlarining mehnati va huquqlari” va “Kadrlar bo'limi ishini rejalashtirish va tashkil etish”;
- “Navoiyazot” AJni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning kompleks rejasi.



“Navoiyazot” AJ xodimlarining aksariyat qismi to'liq ish kuni asosida ishlaydi, bunda 2024-yilda to'liq bo'lmagan ish kuni asosida ishlaydigan xodimlar soni 123 nafarni tashkil etdi. Qisman bandlik qisqartirilgan ish vaqti asosida mehnat majburiyatlarini bajarishni nazarda tutadi, to'liq bandlik esa to'liq stavkada ishlashni nazarda tutadi.




Yosh guruhlari bo'yicha xodimlar soni, shaxslar

Etnik guruhlar bo'yicha xodimlar soni, kishi



30 yoshdan kichik 30-50 yosh 50 yoshdan yuqori

“Navoiyazot” AJ xodimlarining milliy tarkibi barqarorligicha qolmoqda - aksariyatini o'zbek millatiga mansub ishchilar tashkil etadi. Boshqa etnik guruhlar vakillarining ulushi kichik bo'lib, dinamikada sezilarli darajada o'zgarmaydi.




Ruslar O'zbeklar Qolganlar Qozoqlar Qirg'izlar



Yosh va lavozim guruhlari bo'yicha ajratilgan xodimlar soni, shaxslar


GRI 405-1

ishchi xodimlar



30 yoshgacha 30-50 yosh 50 yoshdan yuqori Jami

Rahbar xodimlar



30 yoshgacha 30-50 yosh 50 yoshdan yuqori Jami

“Navoiyazot” AJ xodimlarining aksariyati 30 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan yosh toifasiga mansub. Xodimlarning umumiy sonidagi erkaklarning ulushi taxminan 60% ni tashkil etadi, bu kimyo sanoatining o'ziga xos xususiyatlari, shu jumladan ishlab chiqarish jarayonlarining xususiyatlari va muayyan ish turlariga ayollarni jalb qilish bo'yicha amaldagi me'yoriy cheklovlar bilan bog'liq.



2024-yil yakuni bo'yicha Kompaniyada pensiya yoshidagi

310 nafar xodim ish bilan ta'minlangan.

Xilma-xillik va teng imkoniyatlar masalalarini boshqarish, shuningdek, tegishli korporativ tamoyillarning bajarilishini nazorat qilish Korporativ munosabatlar boshqarmasi, boshqarmasi va Ish haqi va mehnatni rag'batlantirish bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

Doimiy ishlaydigan xodimlardan tashqari, Jamiyat faoliyatiga asosiy xodimlar tarkibiga kirmaydigan, lekin mehnat faoliyati tashkilot tomonidan nazorat qilinadigan xodimlar ishtirok etadi. Bunday ishchilarning eng keng tarqalgan turlari quyidagilardan iborat:

- To'liq bo'lmagan ish kunida (0,5 shtat birligida) ishlayotgan va xodimlarga tibbiy yordam ko'rsatayotgan tibbiy-sanitariya bo'limi shifokorlari;
- Ixtisoslashgan vazifalarni bajarish uchun mehnat shartnomalari bo'yicha jalb qilinadigan mala-kali mutaxassislar;
- Ijaraga olingan tayyor mahsulotlar omborlarining ishchilari, shu jumladan, logistika va mahsulotlarning omborlar ichida harakatlanishini ta'minlaydigan yuk ko'taruvchilar.

Xodimlarning ko'rsatilgan toifalari shartlar va talablarga ko'ra doimiy ishchilarnikiga o'xshash faoliyatni amalga oshiradilar va o'zlarining funksional majburiyatlari doirasida Jamiyatning boshqaruv nazorati ostida bo'ladilar.

Hisobot davrida xodimlarning umumiy sonida **(shu jumladan, asosiy shtatga kirmaydigan xodimlar)** sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi.



Korxonada xodim bo'lmagan ishchilarning amaldagi soni, kishi

GRI 2-8

Ko'rsatkich	2022	2023	2024
Hisobot davri oxirida korxonada xodim bo'lmagan ishchilarning umumiy soni	43	45	42
Boshqalar (mehnat shartnomasi bo'yicha)	41	54	26
Jami	84	99	68

Ma'lumotlar hisobot davri oxiridagi amaldagi holat bo'yicha, o'rtacha qiymatlar yoki muqobil hisoblash usullaridan foydalanmasdan ko'rsatiladi.

Kadrlarni tanlash

GRI 401-1, 402-1, 408-1, 409-1

Xodimlarni boshqarish funksiyalari Xodimlar bilan ishlash boshqarmasiga yuklangan. Bo'linma jamiyatning kadrlar salohiyatini ro'yobga chiqarishni ta'minlaydi: xodimlarni tanlash va rasmiylashtirish, ish joyiga moslashtirish, o'qitish va baholashni tashkil etish, martaba o'sishi va ishdan bo'shatish jarayonini qo'llab-quvvatlash. Tarkibiy bo'linmalar rahbarlari bilan birgalikda xodimlarni boshqarish bo'sh ish o'rinlarini to'ldirish, xodimlarni rag'batlantirish, o'tkazish bo'yicha qarorlar qabul qiladi, shuningdek, mehnat nizolarini hal qilishda ishtirok etadi. Mehnat munosabatlari O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, Ichki mehnat tartibi qoidalari, amaldagi Jamoa shartnomasi va jamiyatning ichki qoidalari bilan tartibga solinadi.

“Navoiyazot” AJ da kadrlar tanlovi Jamiyatning Kadrlar siyosati hamda tanlov asosida qabul qilish tartibi to'g'risidagi Nizomiga muvofiq amalga oshiriladi



Jamiyatning kadrlar siyosati mehnat munosabatlari tomonlarining huquq va majburiyatlarini amalga oshirishni ta'minlash, kadrlar salohiyatidan oqilona foydalanish va mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan. Kadrlarni tanlash va yollash, rag'batlantirish tizimini rivojlantirish, xodimlarni o'qitish va ma-lakasini oshirish jarayonlariga shaffoflik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik asosida yondashishga alo-hida e'tibor qaratilmoqda. Asosiy bo'linmalarda kadrlar tarkibini barqarorlashtirish va barqaror korporativ madaniyatni rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Xodimlarni tanlash Kadrlar siyosati va Tanlov asosida ishga qabul qilish to'g'risidagi nizomga muvofiq, amalga oshiriladi va bunda Kompaniya uning qadriyatlarini va strategik ustuvorliklarini baham ko'radigan mutaxassislarni jalb qiladi.

Ishga qabul qilish quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Tanlov to'g'risida e'lonni chop etish;
2. Nomzodning hujjatlarini qabul qilish va ularni tekshirish (to'liqligi, to'g'riligi va malaka tal-ablariga muvofiqligi nuqtai nazaridan);
3. Nomzodlar uchun test sinovlari, suhbatlar va (yoki) amaliy sinovlar o'tkazish
4. Tanlov natijalarini e'lon qilish.

Har bir yangi xodim uchun ish kollektiviga imkon qadar tezroq integratsiya bo'lishga va ularning ko'nikmalarini imkon qadar tezroq qo'llashni ta'minlashga qaratilgan moslashuv dasturlari nazarda tutilgan. Shuningdek, korxonaning ishlab chiqarish ko'nikmalariga ega bo'lmagan yangi xodimlari o'z mutaxassisligi bo'yicha boshlang'ich malaka talablariga javob beradigan kasbiy va texnik tayyorgarlikdan o'tadilar. Ta'lim korxonaning o'quv markazida individual dasturlar va kurs usuli asosida tashkil etiladi, bu har bir xodimga asosiy kasbiy ko'nikmalarni samarali egallash imkonini beradi.

2022, 2023 va 2024-yillarda ishchilarni majburiy mehnatga jalb qilish, bolalar mehnatining eng yomon shakllaridan foydalanish va mehnat sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yish holatlari aniqlanmadi. Xodimlardan ushbu masalalar bo'yicha hech qanday ariza yoki shikoyatlar kelib tushmagan. Kasaba uyushmasi qo'mitasi milliy qonunchilik va Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalari talablariga muvofiq doimiy nazoratni olib boradi.

Xodimlarni boshqarish samaradorligini baholash

Xodimlarni boshqarish tizimining samaradorligi ichki tekshiruvlar va xalqaro standartlar (ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001, ISO 50001, ISO 37001) doirasidagi tashqi sertifikatlangan auditi natijalari bilan tasdiqlanadi. Oxirgi audit natijalariga ko'ra, jiddiy nomuvofiqliklar yoki muhim tavsiyalar aniqlanmadi.

Korxonada ishga qabul qilish tizimining yana bir o'ziga xos xususiyati - bu rotatsiya amaliyotidan foydalanishdir va ishga qabul qilishda "ichki" nomzodlarga afzallik beriladi. Korxonada rotatsiya jarayonini tartibga soluvchi asosiy hujjat bo'lib "Navoiyazot" AJning Xodimlar rotatsiyasi to'g'risidagi ni-zomi hisoblanadi.



Shunday qilib, hisobot yilida ishga qabul qilinganlarning umumiy soni

226 nafarni

tashkil etdi, ularning aksariyati 50 yoshgacha bo'lgan erkaklar bo'ldi. "Navoiyazot" AJ Navoiy shahrida joylashganligi sababli Kompaniyaning barcha xodimlari ham shu hududda mujassamlangan. Ayollarning umumiy xodimlar sonidagi ulushi


2022-yildagi **17,2%** dan 2023-yilda **26,6%** ga

oshdi va **2024-yilda** shu darajada saqlanib qoldi (**26,1%**) - bu ayollar ishtirokining barqaror ijobiy dinamikasini aks etadi.


Jins va yosh guruhlari bo'yicha yollangan ishchilar soni, shaxslar.

GRI 401-1


Jins bo'yicha



Yosh bo'yicha



Jami



2024 yilda **343** nafar

xodim bilan mehnat munosabatlari tugatildi.

Ishdan bo'shatishning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- ish beruvchining tashabbusi - **81**;
- shtatni qisqartirish - **57**;
- mehnat majburiyatlarini muntazam ravishda buzganlik uchun - **24**;
- tomonlarning kelishuviga muvofiq - **22 kishi**;
- o'z xohishiga ko'ra- **18 kishi**.


2024-yilda mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimlarning aksariyati (45%) "erkaklar" va "50 yoshdan oshganlar" toifalariga to'g'ri keldi. 2024-yilda kasaba uyushma qo'mitasining roziligi talab qilinadigan mehnat shartnomalarini bekor qilish tartibiga qat'iy rioya qilindi, ishdan bo'shatish faqat ka-saba uyushmasi roziligi bilan amalga oshirildi.




Yosh va jins guruhlari bo'yicha mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimlar soni, shaxslar

GRI 401-1


Jins bo'yicha



Yosh bo'yicha



Jami




2024-yilda "Navoiyazot" AJda kadrlar almashinuvi darajasi 4 % ni tashkil etdi, bu so'nggi yillarda kuzatilgan tebranishlar oralig'iga to'g'ri keladi. Mehnat munosabatlariga daxldor o'zgarishlar yuz bergan taqdirda, Jamiyat O'zbekiston Respublikasi Mehnat qonunchiligi talablariga muvofiq, harakat qiladi. Xususan, tashkiliy yoki texnologik o'zgarishlar yuz bergan taqdirda, ish beruvchi xodimlarni kamida ikki oy oldin bunday o'zgarishlarning sabablari va oqibatlarini ko'rsatgan holda xabardor qilishi shart.


Xodimlar aylanmasi, %

GRI 401-1

Jins bo'yicha



Jins bo'yicha



Xodimlarning umumiy aylanmasi



Xodimlarning bandligi borasidagi rejalar

2030-yilgacha kompaniya ishlab chiqarish jarayonlarini transformatsiya qilish va raqamlashtirish strategiyasini amalga oshiradi. Bu raqamli yechimlarni joriy etishni va bir qator funksiyalarni avtomatlashtirishni nazarda tutadi. Kelajakda texnologik jihatdan ilg'or ish usullariga o'tish hisobiga xodimlar sonining bosqichma-bosqich qisqarishi ehtimoli mavjud. Shu bilan birga, jamiyat ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga sodiq qoladi: muammosiz o'tish va kadrlar salohiyati saqlanishini ta'minlash uchun xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlari amalga oshirilmoqda.



Shikoyatlarni taqdim etish va ko'rib chiqish mexanizmi

Jamiyatda ichki hujjatlarda belgilangan xodimlarning shikoyatlarini berish va ko'rib chiqishning belgilangan tartibi amal qiladi. Tizim mehnat nizolarini o'z vaqtida aniqlash va hal qilishga, shuningdek, oldini olish choralari va xodimlar bilan muloqot orqali shikoyatlar sonini kamaytirishga qaratilgan.



Xodimlarni rag'batlantirish

Har bir jamoa a'zosining ishtiyoqi va natijalarga erishish istagi jamiyatning bozordagi muvaffa-qiyatining asosini tashkil qiladi. Shu munosabat bilan "Navoiyazot" AJda mehnatga haq to'lashning yagona tizimi mavjud bo'lib, u tarif stavkalari asosida shakllantiriladigan asosiy ish haqi hamda ilmiy daraja va yuqori malakani hisobga olinadigan ustama to'lovlardan iborat. Jamoa shartnomasida quyidagi qo'shimcha to'lovlar nazarda tutilgan:

- Bir necha lavozimda ishlaganlik uchun qo'shimcha to'lov
- Vaqtinchalik yo'q bo'lgan xodimning vazifalarini bajarish uchun qo'shimcha to'lov.
- Ish hajmi oshganlik uchun qo'shimcha to'lov.
- Bayram kunlari qo'shimcha to'lov.
- Tungi ish uchun qo'shimcha to'lov.
- Maxsus sharoitlarda ishlaganlik uchun qo'shimcha to'lov.
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, faxriy unvon berilganlik uchun qo'shimcha to'lov.
- Harbiy safarbarlik organlari bilan ishlash uchun qo'shimcha to'lov.
- Ilmiy daraja uchun qo'shimcha to'lov.
- Jamoa boshqaruvi uchun qo'shimcha to'lov.

2024-yilda korxonada o'rtacha oylik ish haqi

6 655 289 so'mni tashkil etdi.



Jamiyatda o'z vazifalarini samarali va vijdonan bajargan xodimlarni mukofotlashga qaratilgan rag'batlantirish dasturlari mavjud. Motivatsiya tizimi ikki qismdan iborat:

- moddiy - ish natijalari bo'yicha ish haqi va pul mukofotlarini to'lashni nazarda tutadi;
- nomoddiy - bu minnatdorchilik bildirish, faxriy yorliq bilan taqdirlash, korxonada faxriy taxtasiga kiritish, katta yutuqlar uchun Hukumat mukofoti bilan taqdirlash uchun taqdim etish, korxonaning rasmiy veb-saytida eng samarali xodim haqida e'lon qilish, xodimlarning o'qishi va malakasini oshirishi uchun imkoniyatlar yaratishni o'z ichiga oladi.

Kadrlarni tayyorlash va rivojlantirish

GRI 3-3, 404-2

"Navoiyazot" AJda kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish ichki nizomlar va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan berilgan amaldagi litsenziya asosida amalga oshiriladi.

Normativ baza

- Xodimlarning kasbga o'qitish to'g'risidagi nizom - kasbga o'qitishning maqsadlari, tamoyillari va jarayonlarini belgilaydi;
- Rahbarlar, mutaxassislar va ishchilarni uzluksiz o'qitish, malakasini oshirish, o'qitish va bilimlarini tekshirishni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom - o'qitishni tashkil etish, bilimlarni baholash va xodimlarni rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

Ta'lim dasturlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish Xodimlar bilan ishlash boshqarmasining Kadrlar tayyorlash bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.



Ta'lim infratuzilmasi

Jamiyat ko'p darajalilik, differentsiatsiya va uzluksizlik tamoyillari asosida xodimlarni tayyorlash, qay-ta tayyorlash va malakasini oshirishni ta'minlaydi. Buning uchun kimyo va yordamchi sohaning 120 dan ortiq kasblari (Nazorat-o'lchash asboblari va avtomatlashtirish chilangari, apparatchilar, elektrchilar, payvandchilar, laborantlar va boshqalar) bo'yicha dasturlarni amalga oshiradigan o'quv xonalari va o'quv markazi (KMO 0515-sonli litsenziya) faoliyat yuritmoqda.

Jamiyatning fikricha, korxonalar rivojlanishi uning xodimlarining kasbiy o'sishi bilan birga bormoqda. Asosiy e'tibor axborot texnologiyalarini o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, bu kompaniya va uning jamoasiga zamon bilan hamnafas bo'lish imkonini beradi. O'qish ham ish joyida, ham kurslar, seminarlar, konferensiyalar va treninglar, jumladan, davlat organlari, soha hamkorlari va xorijiy korxonalar tomonidan tashkil etilgan dasturlar formatida amalga oshiriladi. Ayollar uchun o'qitish mehnat qonunchiligida ruxsat etilgan kasblar bo'yicha ta'minlanadi.

2024-yilning natijalari



2024-yilda

997 nafar xodim, jumladan,

776 nafar ishchi va **221** nafar muhandis-texnik xodim va mutaxassisga o'quv kurslari taqdim etildi.



O'qish uchun jami xarajatlar

727,82 mln so'mni tashkil etdi.

Ta'limning asosiy yo'nalishlariga quyidagilarni o'z ichiga oladi:


- 391 kishi tashqi o'quv markazlarida malaka oshirdi.
- O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida, jumladan, Rossiya Federatsiyasining Mendeleev nomidagi kimyo-texnologiya universitetida ta'lim — 14 kishi qamrab olingan.
- Navoiyazot o'quv markazida 606 nafar fuqaro tahsil oldi.

Inson kapitalini rivojlantirish strategiyasi doirasida Kompaniya xodimlarning malakasini oshirish, ayollarni rahbarlik lavozimlariga ko'tarish va ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshiradi. 2024-yilda Jamiyatning ayol xodimlaridan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil dekabrda 87-PF-sonli qaroriga muvofiq, "Rahbar ayollar dasturi" davlat dasturida ishtirok etish uchun tanlandi. Dastur boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish va qarorlar qabul qilishda ayollarning ishtirokini oshirishga qaratilgan. Bundan tashqari, Jamiyatning yana bir xodimi "Yil ayoli" milliy tanlovining viloyat bosqichida "O'z kasbining ustasi" nominatsiyasida yuqori darajadagi professionallik va fidoyilikni namoyish etib, birinchi o'rinni egalladi.

Ushbu chora-tadbirlar jamiyatning barcha xodimlar o'rtasida teng imkoniyatlar, ta'limni qo'llab-quvvatlash va yetakchilik salohiyatini rivojlantirish tamoyillariga sodiqligini namoyish etadi.

Kadrlarni tayyorlash va rivojlantirish ko'rsatkichlari

GRI 404-2




Hisobot yilida Kompaniya o'z xodimlarini o'qitishga

71 962 soat sarfladi,

bu yiliga har bir xodimga o'rtacha

8,47 soatdan to'g'ri keladi.



Jins va lavozim guruhlari bo'yicha o'qitilgan xodimlar soni

GRI 404-1

Ko'rsatkich	Ishchi xodimlar		Rahbar xodimlar		Jami	
	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar
Jami o'qish soatlari soni, soatlar	45 520,2	17 967,6	5 062,3	3 412,2	50 582,5	21 379,8
Yiliga bir xodimga o'rtacha o'quv soatlari soni, soat	9,81	5,36	12,56	34,82	10,03	6,19



"Navoiyazot" AJda o'z xodimlarining faoliyat unumdorligi va martaba salohiyatini muntazam ravishda baholab boriladi. 2024-yilda

1 125 erkak va 513 ayol

baholash jarayonidan o'tdi. Baholangan xodimlarning ko'pchiligi erkaklar bo'lib, boshqaruv xodimlarini

53,85% tashkil etadi.



2024-yilda muntazam ish unumdorligi va martaba o'sishi bo'yicha baholangan xodimlar

GRI 404-3

Ko'rsatkich	Ishchi xodimlar		Rahbar xodimlar		Jami	
	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar
Muntazam ravishda ishlash unumdorligi va martabasi o'sishi baholangan (faoliyatni baholash) xodimlar soni, shaxslar.	908	466	217	47	1 125	513
Muntazam ish unumdorligi va martaba rivojlanishi bo'yicha baholangan xodimlar ulushi, %	19,57	13,90	53,85	47,96	22,31	14,87

Yoshlar siyosati

"Navoiyazot" AJ yosh mutaxassislarining yangicha qarashlarini qadrlaydi, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik qiladi, oliy ta'lim muassasalarining yuqori salohiyatli bitiruvchilarini izlash va jalb etish bo'yicha maxsus tadbirlar tashkil etadi.



Yosh mutaxassislarni jalb qilish va ishga yollash uchun Jamiyatda amaliyotchilarni tanlash, o'qitish va kasbiy moslashtirishning bir necha bosqichlarini o'z ichiga olgan maxsus amaliyot o'tash dasturi ishlab chiqilgan. Mazkur dastur doirasida mutaxassislarni saralash bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Tanlov haqidagi e'lon Jamiyatning rasmiy sahifalarida e'lon qilinadi, shundan so'ng ishtirok etish uchun arizalar Telegram boti orqali onlayn tarzda qabul qilinadi. Dastlabki tanlovdan o'tgan nomzodlar asosiy huquqiy va texnik bilimlar, jumladan, Konstitutsiya, davlat xizmati to'g'risidagi qonun hujjatlari, davlat tili va axborot texnologiyalarini qamrab olgan test sinovlariga taklif etiladi. Tanlov sifatini ta'minlash maqsadida test sinovlari Jamiyatning tegishli bo'linmalari tomonidan ishlab chiqiladi va test sinovlarining o'zi kompyuter xonalarida yoshlar bilan ishlash bo'yicha rahbar tomonidan o'tkaziladi. 62% dan ortiq to'plagan nomzodlar komissiya bilan yakuniy suhbatdan o'tadilar va u nomzodlarning natijalarni baholaydi. Suhbat natijalariga ko'ra nomzodlarni amaliyotga qabul qilish to'g'risida buyruq chiqariladi va dasturni muvaffaqiyatli tamomlaganlar "Navoiyazot" AJning kadrlar zaxirasiga kiritiladi.

Amaliyotni o'tash oliy ta'lim muassasalari bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq, amalga oshiriladi, unda shartlar, muddatlar va tomonlarning majburiyatlari tartibga solinadi. Amaliyot muddati uch oydan bir yilgacha davom etadi, bu amaliyotchilarga nafaqat asosiy kasbiy ko'nikmalarni egallash, balki haqiqiy ish muhitida amaliy tajriba orttirish imkonini beradi. Har bir tinglovchiga murabbiy tayinlanib, u yo'l-yo'riq ko'rsatadi va Jamiyatda ishlashning o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtirishda yordam beradi. Murabbiy individual rejaning bajarilishini va amaliyotchilarning ish grafigiga rioya etishini nazorat qiladi, shuningdek, ularni xavfsizlik qoidalari va Jamiyatning ichki standartlari bilan tanishtiradi.

Amaliyotning o'zi uchta asosiy bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich - tayyorgarlik bo'lib, tanishuv yig'ilishini o'tkazishdan boshlanadi, unda amaliyotchilar dastur, uning maqsadlari, vazifalari va hisobot yuritish talablari bilan tanishadilar. Ushbu bosqichda amaliyotchilar o'zlarining stajirovka boshlig'i va murabbiyi bilan shaxsiy reja tuzadilar, bu ularga amaliyotni o'tash davri uchun o'z vazifalarini yaxshiroq tizimlashtirishga yordam beradi. Ikkinchi bosqich asosiy bo'lib, stajyorlar tomonidan dasturda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda amaliyotchilar Jamiyat faoliyati, uning tuzilishi va ishning o'ziga xos jihatlari haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lish hamda o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Yakuniy bosqich o'z ichiga

hisobotlarni topshirishni va yakuniy baholashni oladi. Amaliyotchilar yakuniy taqdimot-hisobotini taqdim etadilar, uni amaliyot rahbari, murabbiyi va Yoshlar masalalari agentligi vakili baholaydi va tasdiqlaydi.

Amaliyotni muvaffaqiyatli o'tagan bitiruvchilarga sertifikat beriladi, bu ularga Jamiyatga ishga joy-lashishda afzallik beradi. Amaliyot o'tash dasturi Jamiyatning vazifalarini yuqori darajada bajarish-ga tayyor bo'lgan professional kadrlar zaxirasini shakllantirishga qaratilgan.

Korxonada nafaqat yosh mutaxassislarining kasbiy bilimlari va ko'nikmalarini rivojlantirish, balki sog'lom ruhda bo'lishini ta'minlashga qaratilgan siyosatni amalga oshirilmoqda. Kasaba uyushmasi bilan hamkorlikda xodimlar o'rtasida korporativ madaniyatni mustahkamlashga va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradigan turli sport tadbirlari o'tkazilmoqda. Quyida ulardan ayrimlari keltirilgan:

- **"Besh ming qadam"** loyihasi doirasida har shanba kuni Alisher Navoiy nomidagi istirohat bog'idagi sun'iy ko'l atrofida korxonaning faol yoshlari ishtirokida tadbirlar tashkil etiladi.
- **"Eng yaxshi kitobxon" tanlovi.**
- **Bank, "Kelajagimiz" jamg'armasi,** Savdo-sanoat palatasi va tadbirkorlik vakillari bilan birgalikda yosh xodimlar uchun "Men tadbirkor bo'laman" mavzusida uchrashuv.
- **Rahbar kubogi,** futbol, voleybol, stol tennisi, shaxmat musobaqalari.
- Bolalarda sog'lom turmush tarziga qiziqishni rivojlantirish maqsadida **"Oftobjon"** oromgohida madaniy-sport tadbirlarini o'tkazish.
- Kasbiy mahorat bellashuvlarida **100 dan ortiq yosh** mutaxassislar ishtirok etdi.

Kasaba uyushmasi rahbarligida Jamiyat tomonidan yoshlarga moddiy yordam to'lanmoqda. Shu jumladan, hisobot davrida:

- **1 063 nafar** yosh oilaga **440,7 mln so'm** miqdorida moddiy yordam ko'rsatildi.
- **82 nafar** xodimga turmush qurish munosabati bilan jami **259,98 mln so'mlik** yordam ko'rsatildi.



Yil davomida korxonada oliy ta'lim muassasalaridan

758 nafar talaba va o'rta maxsus ta'lim muassasalaridan
495 nafar talaba ishlab chiqarish amaliyotini o'tadi.

Bundan tashqari, korxonaning

14 nafar xodimi

respublika o'quv yurtlarida ishlab chiqarishdan ajralmasdan ta'lim olgan. Buning uchun

234,91 mln so'm mablag' ajratildi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash

GRI 2-30, 401-2, 401-3

Jamiyat kompleks ijtimoiy siyosatni olib bormoqda va, xodimlarga keng turdagi imtiyozlar va kompensatsiyalar taqdim etmoqda, shuningdek, kasbiy o'sishni va korporativ madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tashkil etmoqda.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "O'z kimyosanoat" AJ va Kimyo va farmatsevtika sanoati xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi o'rtasida 2024–2026-yillar uchun tuzilgan jamoa shartnomasiga mu-vofiq amalga oshirilmoqda. Bunda, Jamiyat xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda asosiy o'rinni Kasaba uyushmasi egallaydi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari barcha tarkibiy bo'linmalarni qamrab oladi va o'z ichiga jamoaviy ruhni mustahkamlashga va har bir xodimning kasbiy rivojlanishiga yordam beradigan sport, ta'lim va madaniy dasturlarni oladi.

Asosiy dasturlar sifatida quyidagilar keltirilgan:

- To'ylar, bolaning tug'ilishi, yubileylar uchun to'lovlar.
- Ta'lim xarajatlarini qoplash, shu jumladan bolalar ta'limi uchun
- Ishlamaydigan pensionerlarga moddiy yordam.
- Ko'p farzandli oilalar va nogiron bolalarning ota-onalarini qo'llab-quvvatlash.
- Sanatoriylar, oromgohlar, profilaktoriylarga yo'llanmalar.
- Madaniy tadbirlar va treninglar tashkil etish.

- Mehnatga oid nizolar bo'yicha xodimlarni himoya qilish, shuningdek ishdan bo'shatilganda himoya qilish.
- Qisqartirilgan ish vaqtini taqdim etish.
- O'zbekiston Respublikasining davlat bayramlariga bag'ishlangan tadbirlar.
- Tibbiyot muassasalarida xizmatlar uchun xarajatlarni qoplash.
- I va II guruh nogironlariga ishlab chiqarishdagi jarohatlar va kasb kasalliklari, shuningdek, III guruh nogironlariga to'lovlar.
- Xodimlarning yaqin qarindoshining o'limi yuz bergan taqdirda dafn marosimi xarajatlarni qoplab berish.
- Navoiy shahri va unga yaqin joylashgan aholi yashah joylaridagi xodimlar uchun transport xizmatlari, shu jumladan, tungi reyslar tashkil etilishi.

"Navoiyazot" AJning jamoa shartnomasi ish beruvchiga va tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ish-laydigan korxonaning barcha xodimlariga, shu jumladan, ushbu shartnoma kuchga kirgandan keyin ishga qabul qilinganlarga, shuningdek, kasaba uyushma qo'mitasi xodimlariga nisbatan qo'llaniladi.

Jamoa shartnomasida nazarda tutilgan hollarda uning ayrim bandlari quyidagilarga ham qo'llaniladi:

- xodimlarining oila a'zolariga;
- "Navoiyazot" AJda kamida 5 yillik ish stajiga ega bo'lgan va pensiya byurosida hisobga olingan bo'lib, yoshga yetish asosida pensiyaga chiqishi munosabati bilan mehnat munosabatlari tugatilgan shaxslar ;
- o'z mehnat vazifalarini bajarishi munosabati bilan tan jarohat olgan, kasbiy kasallikka chalingan yoki sog'lig'iga boshqa zarar yetkazilgan sobiq xodimlarga;
- mehnat majburiyatlarini bajarish munosabati bilan nogironligi, kasbiy kasalligi yoki sog'lig'iga boshqa zarar yetkazilganligi sababli vafot etgan va kompensatsiya olish huquqiga ega bo'lgan xodimning qaramog'idagi nogironlarga.

"Navoiyazot" AJda har chorakda Jamoa shartnomasi shartlari bajarilishini nazorat qiluvchi maxsus Komissiya faoliyat yuritadi. Bunda, Komissiya hisobotiga ko'ra, 2024-yilda Jamoa shartnomasining



441 bandi bajarilgan bo'lib, shundan imtiyozlar berish uchun

465,391 mlrd so'm mablag' ajratilib, bir qator muhim tadbirlar amalga oshirildi:

- Ish vaqti normalari moslashtirildi: normal mehnat sharoitlari uchun 40 soatdan va noqulay mehnat sharoitlari va I va II guruh nogironlari uchun 36 soatdan oshmasligi kerak.
- 2024-yilda korxonada xodimlari uchun turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, ko'rik-tanlovlar va musobaqalar o'tkazildi.
- Ayollarga jamoa shartnomasi shartlariga muvofiq, qo'shimcha imtiyozlar berildi.
- Tibbiy-sanitariya bo'limiga **19,5 mlrd so'm** mablag' ajratildi.





Quyidagi yo'nalishlarda moddiy yordam ko'rsatildi:

- Yaqinlarini yo'qotish: **346 xodim – 549.8 mln so'm.**
- Jamiyatda ishlamaydigan pensionerlar uchun: **54 kishi – 23.4 mln so'm.**
- Kasaba uyushmasi byudjetidan: **1 063 xodimga – 440.7 mln so'm.**
- Har yiliek ta'til: **6 828 xodim – 2.5 mlrd so'm.**
- Yubiley: **324 xodim – 338.73 mln so'm.**
- Hurmat taxtasi: **59 xodim – 258,989 mln so'm.**
- Oziq-ovqat xarajatlarini qoplash: har oyda o'rtacha **2 677 nafar** xodimga davolash va profilaktik ovqatlanish huquqi berildi, har oyda o'rtacha **2 755 nafar** xodim sut uchun talon bilan ta'minlandi, **4 276 kishi imtiyozli** shartlarda pensiya olish huquqiga ega shaxslar ro'yxatga kiritildi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.05.1994-yildagi **2 560-sonli** qaroriga mu-vofiq).
- Oziq-ovqat xarajatlari uchun kompensatsiya: **5 792 xodim – 18,5 mlrd so'm.**
- Og'ir sharoitlarda, shuningdek noqulay tabiiy-iqlim zonalarida ishlaydigan xodimlar uchun qo'shimcha haq to'lanadigan ta'til: **6 939 xodim – 51 730.9 mln so'm.**

Qo'shimcha to'lovlar:

- I va II guruh nogironlariga: **33 kishi – 126.279 mln so'm.**
- III-guruh nogironlariga: **24 kishi – 47.6 mln so'm.**
- Boquvchisini yo'qotgan oilalarga: **14 oila – 27.750 mln so'm.**
- Tug'ishdan olidn va keyin: **387 ayol – 3.5 mlrd so'm.**
- Bolali ayollar uchun qo'shimcha ta'til: **23 kishi – 2.912 mln so'm.**

Xodimlar va ularning oila a'zolari tomonidan davolash va dam olish muolajalaridan o'tishi:

- O'zbekiston sanatoriylari: **248 nafar xodim – 916,8 mln so'm**, shundan **169 nafari** kasaba uyushmasi, **79 nafari** ijtimoiy sug'urta hisobidan.
- "Oftobjon" yozgi oromgohi: xodimlarning **1 540 nafar** farzandlari.

Sanatoriy-profilaktoriy:

- **1 309 shaxs**, shu jumladan, **1 005 nafar** xodim, **291 nafar** pensioner va **13 nafar** boshqa fuqarolarga davolash kursi.
- Tishlarni protezlash **854 xodim – 426,710 mln so'm.**



Madaniy tashabbuslar:

2024-yilda korxonada xodimlari uchun turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, ko'rik-tanlovlar, musobaqalar tashkil etilib, ularda ham xodimlar, ham yoshlar faol ishtirok etdi. Ularni rag'batlantirish uchun kasaba uyushmasi mablag'laridan **2,4 mlrd so'm** ajratildi. Sport tadbirlarini tashkil etish va g'oliblarni taqdir-lashga **358,9 mln so'm** mablag' sarflandi.

2024-yilda "Navoiyazot" AJda bola parvarishi bo'yicha ta'tiliga chiqqan ayollar soni **707 nafarni** tashkil etdi. Bundan tashqari, bola parvarishi ta'tilining o'rtacha davomiyligi **257 kunni** tashkil etdi.

Jamoa shartnomasiga muvofiq, Jamiyat rahbariyati quyidagi hollarda ish haqini saqlab qolgan holda xodimlarning ijtimoiy ta'tiliga chiqish haqidagi iltimosini qondirishga majbur:

- yaqin qarindoshlarning o'limi – 3 kun;
- xodimning o'zi yoki farzandlarining to'y tadbirlarini o'tkazish - 3 kun;
- tabiiy ofat - 2 kun;
- yangi ko'chish - 1 kun;
- bolani birinchi sinfga kuzatish - 1 kun;
- bola tug'ilishi munosabati bilan bolaning otasiga - 1 kun;
- virusli infeksiyaga qarshi emlash kunida - 1 kun.

Xodimlarni ijtimoiy himoya qilish dasturini amalga oshirish doirasida "Navoiyazot" AJ tomonidan Navoiy shahri va unga yaqin aholi punktlarida (Sputnik, Guliston, Narpay va boshqalar) yashovchi xodimlarga tashkiliy transport xizmatlari ko'rsatiladi.

Har kuni kerakli miqdordagi avtobuslar, shu jumladan, tungi vaqtda, tasdiqlangan yo'nalishlar bilan ta'minlanadi. Ushbu xizmatlar doimiy asosda ishlaydigan xodimlarga taqdim etiladi va, ularning ishga borishi va ishdan qaytishi vaqtida qulaylik va xavfsizlikni oshirishga qaratilgan.

2024-yilda transport xizmati ko'rsatishni tashkil etish uchun

1,28 mlrd so'mga yaqin mablag' yo'naltirildi.



Bolaga qarash uchun ta'til rasmiylashtirgan xodimlar soni.

GRI 401-3


Ko'rsatkich	2022		2023		2024	
	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar
Homiladorlik va tug'ruq ta'tili, va bola parvarishi bo'yicha ta'til olish huquqiga ega bo'lgan xodimlar soni (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq)	-	905	-	784	-	707
Homiladorlik, tug'ruq ta'tili, bola parvarishi ta'tilini rasmiylashtirgan xodimlar soni	-	905	-	784	-	707
Onalik/otalik ta'tilidan keyin ishga qaytgan xodimlar soni**	-	581	-	597	-	303
O'tgan yili onalik/otalik ta'tilidan keyin ishga qaytgan va 12 oydan keyin ham ishlayotgan xodimlar soni	-	324	-	187	-	265
Hisobot yilida onalik/otalik ta'tili tugaganidan keyin ishga qaytishi kerak bo'lgan xodimlar soni *	-	581	-	597	-	263

Bola parvarishi uchun ta'tillar bo'yicha ijtimoiy ko'rsatkichlar

GRI 401-3

Ko'rsatkich	2022		2023		2024	
	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar
Hisobot yilida ota-ona ta'tilining o'rtacha davomiyligi, kunlar	259		268		257	
Qaytish koeffitsiyenti	1		1		1,15	
Ushlab qolish koeffitsiyenti	0,41		0,32		0,44	

*Ko'rsatkichda hisobot yilida onalik/otalik ta'tilini uzaytirgan xodimlarni istino etganda qaytib kelgan, hamda shartnomalari bekor qilingan xodimlarni hisobga olinadi.
 ** Ko'rsatkichga homiladorlik va tug'ruq ta'tili, bola parvarishi ta'tilidan keyin ishga qaytgan xodimlar, shu jumladan ta'til muddati tugashidan oldin erta ishga chiqqanlar kiradi.



Xilma-xillik va inklyuzivlik

GRI 3-3, 405-1, 405-2, 406-1

“Navoiyazot” AJda ish jarayoni inklyuzivlik va gender tengligi tamoyillari asosida tashkil etiladi. Jamiyatda ish haqi darajasi, shuningdek, rag'batlantirish va imtiyozlar miqdori jinsi, yoshi, irqi yoki boshqa individual xususiyatlarga bog'liq bo'lmasligi kafolatlanadi. Kompaniya Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) Konventsiyalarida belgilangan asosiy mehnat tamoyillariga ularni jamoa shartnomasiga kiritish orqali rioya etilishini ta'minlaydi. 2024-2026-yillarga mo'ljallangan jamoa shartnomasida mehnat munosabatlari sohasida kamsitmaslik va teng imkoniyatlar bo'yicha majburiyatlar kiritilgan (6.40, 12.1, 12.2-bandlar). Nazorat kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi. 2022-2024-yillarda teng ish haqi to'lash tamoyilini buzish holatlari aniqlanmadi.

Hisobot davrida (2022-2024-yillar) xodimlardan kamsitish to'g'risidagi shikoyatlar kelib tushmadi.

Jamoa shartnomasida tomonlarning kamsitishga yo'l qo'ymaslik, teng qiymatdagi ish uchun teng haq to'lash, shuningdek, ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha majburiyatlari nazarda tutilgan.

O'zining strategiyasi doirasida Jamiyat lavozim ierarxiyasining barcha darajalarida inklyuzivlik va xilma-xillikga erishishga faol intiladi.



Jamiyat xodimlarining gender tarkibi 2022 va 2024-yillar oralig'ida barqaror bo'lib qolmoqda. 2024-yil 31-dekabr holatiga ko'ra jamiyatda

3 451 nafar

xotin-qiz ish bilan ta'minlangan bo'lib, ularning aksariyati ishchi xodim lavozimlarda ishlamoqda. 2024-yilda ishchi xodimlar orasida ayollar ulushi

42%.




tashkil etdi. Rahbarlarning umumiy sonida ayollar salmog'ining biroz o'sishi kuzatilmoqda - taxminan

20%.

Lavozimlar bo'yicha xodimlarning gender tarkibi, %




GRI 405-1

Ishchi xodimlar



Erkaklar Ayollar

Rahbar lavozimlar



Erkaklar Ayollar

2024-yilda korxonada xodimlarning asosiy toifalari bo'yicha erkaklar va ayollar uchun asosiy ish haqi va mukofotlash nisbatini kuzatish davom ettirilmoqda. Ma'lumotlar IC axborot tizimidan va mahalliy buxgalteriya hujjatlaridan, shu jumladan, ish haqi bo'limi ma'lumotlaridan to'plangan.

2024-yil yakunlariga ko'ra, ish haqi va mukofotlash tahlili natijasida barcha toifadagi xodimlar bo'yicha erkaklar va ayollar o'rtasida farq borligini aniqladi, biroq avvalgi davrlarga nisbatan ularning qisqarishida ijobiy tendensiya kuzatilmoqda.

O'rtacha olganda ayol rahbarlar erkaklar ish haqi darajasidan 0,88 miqdorida, mutaxassislar orasida - 0,85, texnik, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish xodimlari toifalarida - 0,82-0,85 miqdorida oladi. Shunga o'xshash holat mukofotlash bo'yicha ham kuzatildi: eng katta farq rahbarlar o'rtasida (0,24) aniqlandi, va mutaxassislar va ishlab chiqarish xodimlari o'rtasida 0,61-0,76 ni tashkil etdi.

Farqlar asosan lavozimlarning taqsimlanishi bilan izohlanadi: erkaklar ko'pincha asosiy va yuqori haq to'lanadigan lavozimlarni egallaydilar (moliya, ishlab chiqarish), ayollar esa kichikroq rag'batlantirish mablag'lari (mehnat xavfsizligi, ekologiya, kadrlar) bo'lgan bo'limlarda ishlaydi.

Barcha batafsil qiymatlar Hisobotning [2-ilovasida](#) keltirilgan.



Ayollar masalalari bo'yicha kengash

"Navoiyazot" AJda gender muvozanatini targ'ib qilish va ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda va bunda Ayollar masalalari bo'yicha kengash muhim rol o'ynaydi. Hisobot yilida xotin-qizlarga nisbatan turli salbiy xatti-harakatlar, oiladagi zo'rvonlik, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, ayollar o'rtasida kiyinish madaniyatiga rioya etish borasida tadbirlar o'tkazildi. Bundan tashqari, ayollarning jamiyatdagi o'rni, davlat va korxonada ayollar uchun yaratilgan sharoitlar, shuningdek, gender tengligi tamoyillari asosida ularning jamiyat va oiladagi huquq va erkinliklari masalalari bo'yicha davra suhbatlari o'tkazildi.

Shu bilan birga, "Huquqiy axborot kuni" loyihasi doirasida xotin-qizlar bilan bog'liq masalalar bo'yicha huquqiy tushuntirishlar beriladi. Shu jumladan, hisobot yilida oilaviy munosabatlar, bolalarni tarbiya-lashda ayollarning roli, shuningdek, ayollar psixologik holatining oiladagi farovonlik uchun ahamiyati bo'yicha psixologik treninglar o'tkazildi.

Hisobot yilining sentabr oyida korxonaning barcha ishlab chiqarish maydonlari va sexlarida "Xon atlas" festivali o'tkazilib, unda jamiyat xotin-qizlari milliy libosda ishgga kelishdi.

jamiyatda mehnat qilayotgan ayollar bilan korxonada vaqti-vaqti bilan uchrashuvlar tashkil etiladi. Xususan, gender muvozanatini ta'minlash, xotin-qizlarning jamiyat va davlat hayotidagi o'rni mus-tahkamlash ustuvor masala ekani, oila va xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan har qanday tashabbus qo'llab-quvvatlanayotgani alohida ta'kidlandi. "O'zkiyosanoat" AJ va O'zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologiya xizmati bilan hamkorlikda ayol xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tashkil etildi.

Bundan tashqari, hisobot yilida "O'zkiyosanoat" AJ boshqaruvi raisi maslahatchisining sayyor qabul-lari o'tkazilib, ularda korxonada ayollaridan kelib tushgan

5 ta murojaat ko'rib chiqildi. Barcha murojaatlar muvaffaqiyatli hal etildi.

Hisobot yilida Kompaniya Kasaba uyushma qo'mitasi bilan birgalikda quyidagi asosiy yo'nalishlarda xotin-qizlarga moddiy yordam taqdim etdi:

- **3 438 nafar** ayol xodimlarga tibbiy xizmatlar;
- **3 451 nafar** xotin-qizlarga **2,070 mlrd so'mlik** oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilish;
- 169 nafar homilador ayol **1,956 mlrd so'm** miqdorida o'rtacha ish haqi saqlanib qolgan holda, salbiy ishlab chiqarish omillari ta'sirini istisno etuvchi yengil mehnat sharoitlariga o'tkazildi;
- "Navoiyazot" AJga qarashli sanatoriyda 630 nafar xotin-qiz sog'lomlashtirildi, buning uchun **2,178 mlrd so'm** mablag' ajratildi.

"Navoiyazot" AJ aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlaridan bo'lgan xodimlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratmoqda va ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash va turmush darajasini oshirishga qaratilgan tashabbus va dasturlarni amalga oshirmoqda. 2024-yilda nogironligi bo'lgan xodimlar, yolg'iz pensionerlar, kam ta'minlangan oilalar, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga oziq-ovqat paketlari tarqatilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurish va ta'mirlash ko'rinishida homiylik yordami ham nazarda tutilgan.



Ko'p bolali oilalar, yolg'iz ota-onalar va alohida maxsus ehtiyoji mavjud bolalarning ota-onalari

Jamiyat bir nechta bolali oilalarni va alohida ehtiyojli bolalarning ota-onalarini faol qo'llab-quvvatlaydi, ular uchun qo'shimcha ijtimoiy imtiyozlar yaratadi, bu ularga bolalarga g'amxo'rlik qilish bilan birga kasbiy majburiyatlarni bajarish imkonini beradi. Korxonada 28 nafar nogiron bolasi bor ayollar ishlaydi. Taqdim etilgan imtiyozlar ro'yxatiga moslashuvchan ish vaqti, maktabgacha ta'lim muassasalaridan foydalanish imkoni va bolalarning yozgi bo'sh vaqtini tashkil etishda yordam berish kiradi. Jamiyat, shuningdek, ushbu xodimlarga moliyaviy yordam ko'rsatadi va, ularning ijtimoiy va moliyaviy farovonligini mustahkamlashga yordam beradi.

2024-yilda ko'p bolali oilalar, yolg'iz ota-onalar va alohida ehtiyojli bolalarning ota-onalarini qo'llab-quvvatlash doirasida Kasaba uyushmasi tomonidan quyidagi yordam ko'rsatildi:



12 yoshgacha bo'lgan ikki va undan ortiq bolasi yoki 16 yoshgacha nogiron bolasi bo'lgan ayollarga jami

48,8 mln so'mlik

qo'shimcha haq to'lanadigan ta'til berildi.

Sog'lig'i bo'yicha imkoniyatlari cheklangan xodimlar



Korxonada

28 nafar sog'liq imkoniyatlari cheklangan shaxslar ishlaydi,

ularning aksariyati ishchi lavozimlarda ishlaydi. Zaif guruhga kiruvchi xodimlarni qo'llab-quvvatlash doirasida Kompaniya quyidagi imtiyozlarni taqdim etadi:

- Masofaviy ishlash imkoniyati.
- Davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan oyiga bir qo'shimcha to'lanadigan dam olish kuni.
- 1 va 2-guruh nogironlari uchun qisqartirilgan ish vaqti.

Sog'lig'i bo'yicha imkoniyatlari cheklangan xodimlar soni, lavozimi bo'yicha, soni

GRI 405-1

Ko'rsatkich	2022		2023		2024	
	kishi	%	kishi	%	kishi	%
Ishchi xodimlar	30	0,39	30	0,39	27	0,32
Rahbar xodimlar	1	0,11	1	0,11	1	0,01
Jami:	31	0,50	31	0,50	28	0,33

Shunday ekan, "Navoiyazot" AJ faqat xodimlarning kasbiy fazilatlarini va tajribasiga asoslangan holda ishga qabul qilishda teng imkoniyatlarni faol qo'llab-quvvatlaydi. Qo'llab-quvvatlash dasturlari va tashabbuslarini amalga oshirish orqali Jamiyat xodimlarga hayotdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi va inklyuziv ish muhitini yaratadi. **Bu ijtimoiy adolatni targ'ib qiladi va jamoaviy ruhni mustahkamlaydi.**

2024-yilda "Navoiyazot" AJ tomonidan kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik, tenglik va xodimlarning huquqlarini hurmat qilishni, jumladan, ish joyida inklyuzivlik va ijtimoiy adolat tamoyillarini ta'minlashni nazarda tutuvchi ichki hujjat ishlab chiqildi.

2025-yilda uni ilg'or xalqaro tajribalar asosida yanada takomillashtirish rejalashtirilgan.



Atrof-muhitni muhofaza qilish

- 49 Ekologik boshqaruv tizimi
- 52 Iqlim o'zgarishi
- 58 Atmosfera emissiyalari
- 59 Energiya menejmenti
- 62 Chiqindilarni boshqarish
- 64 Suv resurslarini boshqarish
- 66 Mahsulot sifati va xavfsizligi



ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH

Ekologik boshqaruv tizimi

GRI 3-3, SASB RT-CH-530a.1

“Navoiyazot” AJ rahbariyati atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratgan holda jamiyatning strategik rivojlanishini belgilab beradi. Jamiyat atrof-muhitni muhofaza qilish (keyingi o'rinlarda – AMMQ) bo'yicha vazifalarni amalga oshirishni ustuvor vazifa deb bilib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq o'z ishlab chiqarish obyektlarining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshiradi. “Navoiyazot” AJ tomonidan olib borilayotgan tizimli ishlar qatorida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Mas'ul bo'linmalar tomonidan atmosfera chiqindilari va oqova suvlarni tashlash bo'yicha monitoringi;
- Energiya iste'moli monitoringi;
- Issiqxona gazlari va iqlimga boshqa ta'sirlarni hisobga olish bo'yicha yuqori va o'rta rahbarlar uchun treninglar o'tkazish uchun tashqi mutaxassislarni jalb qilish;
- Aniqlangan ekologik xavflar va TCFD tavsiyalarini “Navoiyazot” AJ yo'riqnomasiga joriy etish;
- Me'yoriy-huquqiy bazadagi o'zgarishlarni kuzatib borish.

EBT atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi barcha xavflarni, shu jumladan, ularni aniqlash, baholash, ishlab chiqish va kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni monitoring qilishni o'z ichiga oladi. Barcha tartib va tadbirlar Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlanadi. Jumladan, ekologik xavflarni va ularning atrof-muhitga ta'sirini aniqlash tartib-qoidalarini qo'llash uchun UBT bo'limi boshlig'i, atrof-muhitni muhofaza qilish (keyingi o'rinlarda – AMMQ) va tabiiy resurslardan oqilona foyda-lanish bo'limi va mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo'limi (keyingi o'rinlarda – MMQB) boshliqlari o'rinbosarlari hamda tegishli bo'limlar rahbarlaridan iborat ishchi guruh mas'ul hisoblanadi.

“Navoiyazot” AJ ekologik xavflarning birinchi toifasiga kiruvchi Jamiyat sifatida atmosferaga ifloslantiruvchi moddalarning chiqarilishini, oqava suvlarni tashlash va chiqindilarni joylashtirishni tartibga soluvchi me'yoriy hujjat tayyorladi va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (keyingi o'rinlarda – Ekologiya davlat qo'mitasi) bilan kelishdi.

Korxonada AJ “Navoiyazot” AJning muhim ekologik jihatlarining yig'ma ro'yxati hujjatida atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha ehtimoliy faoliyat jarayonlarni aniqlagan bo'lib, ushbu Ro'yxat har 3 yilda bir marta yangilanib turadi. Unda atrof-muhitga ta'sir qiluvchi faoliyati haqida batafsil ma'lumotlar va jarayon uchun mas'ul shaxslar ko'rsatilgan holda Jamiyat sexlarining ahamiyatini baholaydi. **Hujjatga muvofiq, “Navoiyazot” AJning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:**

- Tabiiy va xomashyo resurslaridan oqilona foydalanish;
- Atmosfera tashlanmalarini kamaytirish;
- Oqova suvlar orqali ifloslantiruvchi moddalarning oldini olish;
- Chiqindilarni minimallashtirish va utilizatsiya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida manfaatdor tashkilotlar va jamoatchilik bilan hamkorlik qilish va, ekologik faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlarni Jamiyat veb-saytida joylashtirish;
- Ishni tashkil etishda xavfsizlik darajasini oshirish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tabiiy ofatlar ta'sirining oldini olish orqali xodimlarning sog'lig'iga e'tibor berish;
- Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha kompleks dastur qabul qilish orqali Jamiyat faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini oldini olish va minimallashtirishga intilish.

2024-yilda faoliyat yuritayotgan ekologik boshqarish tizimi (EBT) doirasida Boshqaruv Raisi tomonidan quyidagi asosiy tartib-tamoyillar tasdiqladi:

- Ekologik jihatlar va xavfarni aniqlash va baholash - faoliyatning muhim jihatlarini aniqlash mexanizmini amalga oshirish, ekologik jihatlar reestrini shakllantirish, xavf darajalarini baholash.
- Ekologik xavflar va imkoniyatlarni boshqarish - xavflarni ehtimollik va oqibatlar shkalasi bo'yi-cha baholash, kamaytirish va nazorat qilish choralarni ishlab chiqish.
- Favqulodda vaziyatlarda chora ko'rish (PLAS) - favqulodda vaziyatlarning potensial stsenari-ylarini aniqlash, sizib chiqish, chiqindilar, yong'inlar sodir bo'lganda harakatlarni reglamentatsiya qilish; muntazam mashqlar.
- Atrof-muhit monitoringi va o'lchovlar - emissiya, chiqindilar, qoldiqlar, shovqinlarni nazorat qilish; tahlil o'tkazish va tuzatish choralarni ko'rish.
- EBT bo'yicha ichki audit - bu EBT talablari bajarilishini tekshirish, natijalarni hujjatlashtirish va tuzatish choralarni nazorat qilish.
- Atrof-muhit talablariga rioya etilishni baholash - milliy va xalqaro standartlarga rioya etilishini nazorat qilish.
- Chiqindilarni boshqarish va ekologik sertifikatlash - tasniflash, chiqindilarni pasportlash, ekologik sertifikatlarni olish.




2024-yilda ekologik xavflarni kamaytirish bo'yicha asosiy chora-tadbirlar:

- Chiqindilar va, xavflarni jarayonlar uchun ekologik sertifikatlar olindi.
- Atrof-muhitga ta'sirni baholash (AMTB) va TChM loyihalari ishlab chiqilgan va ekologik ekspertizadan o'tgan.
- Biokimyoviy inshootlarni rekonstruksiya qilish bo'yicha texnik-iqtisodiy asoslash yakunlandi.
- Atmosfera ifloslantiruvchi moddalar chiqindilarini kuzatish uchun uchta gaz analizatori sotib olindi va foydalanishga topshirildi.

Barcha tadbirlar o'z vaqtida bajarildi va korxonaning ekologik xavfsizligini yaxshilashga hissa qo'shdi.

“Navoiyazot” AJ korxonalarida ISO 14001 xalqaro standarti talablariga javob beradigan ekologik boshqaruv tizimi (keyingi o'rinlarda - EBT) joriy qilingan va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. EBT uyg'unlashgan boshqaruv tizimining (keyingi o'rinlarda - UBT) ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. 2024-yilda mustaqil tashqi sertifikatlashtirish organi tomonidan UBT standartlari, shu jumladan ISO 14001 talablariga muvofiqligi yuzasidan UBTning tashqi auditini o'tkazdi.





Har qanday yangi infratuzilma loyahasini rejalashtirishda majburiy tarzda AMTB jarayoni, shu jumladan, energiya iste'molini tekshirish, atrof-muhit ekspertizasi va davlat talablariga muvofiqlikni tekshirish amalga oshiriladi. "Navoiyazot" AJning obyektlari Ekologiya davlat qo'mitasining ijobiy xulosasi bo'lgan taqdiridagina foydalanishga topshirilishi mumkin.

2024-yilda oddiy superfosfat ishlab chiqaruvchi tajriba sanoat uskunasi, "Janubiy" nazorat-o'tkazish punktigacha bo'lgan yo'l va avtotransport sexi qurilishi, avtoturargohni rekonstruksiya qilish va kanali-zatsiya tarmoqlarini ko'chirish loyihalari bo'yicha AMTB va Atrof-muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonot loyihasi tartib-tamoyillari amalga oshirildi. Barcha loyihalar davlat ekologik ekspertizasining belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi ijobiy xulosalarini oldi.

"Navoiyazot" AJda ESG masalalari bo'yicha ishchi guruhlari faoliyat yuritib, ularning maqsadi bo'lib har ikki haftada bir marta yig'ilishlar o'tkazib, dolzarb masalalarni va erishilgan natijalarni muhokama qilishdir. Ishchi guruh tarkibiga "Navoiyazot" AJ tarkibiy bo'linmalari xodimlari, jumladan, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi rahbar va mutaxassislar kiradi:

- Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi;
- Muvofiqlik bo'limi boshlig'i;
- Uyg'unlashgan boshqaruv tizimi bo'limi boshlig'i;
- Korporativ munosabatlar boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari;
- Ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari;
- Kadrlar boshqarmasining Kadrlar bo'yicha boshliq o'rinbosari;
- Kadrlar boshqarmasining Kadrlar tayyorlash bo'yicha boshliq o'rinbosari;
- Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo'yicha yetakchi muhandislar;
- Axborot va hisoblash tarmoqlari xavfsizligi ma'muri;
- Oila va ayollar xizmati mutaxassis;
- Transport va logistika boshqarmasi yetakchi muhandisi;
- Buxgalteriya Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha mutaxassis;

- Ish haqi va mehnatni rag'batlantirish bo'limining Mehnat va ish haqi bo'yicha iqtisodchisi;
- Bosh energetik bo'limining Issiqlik ta'minoti bo'yicha muhandis-energetiki;
- Bosh energetik bo'limining Suv ta'minoti bo'yicha muhandis-energetiki;
- Bosh energetik bo'limining Elektr ta'minoti bo'yicha muhandis-energetiki;
- Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'limi muhandis-texnologi.

"Navoiyazot" AJda inson salomatligi va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida ISO14001 xalqaro standarti talablariga muvofiq, "Navoiyazot" AJda faoliyat, mahsulot va xizmatlarning ekologik xavflarini aniqlashda yagona uslubiy yondashuvni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan "Ekologik jihatlar va ularning atrof-muhitga ta'sirini aniqlash tartibi" hujjati qabul qilingan. MMQB va AMMQ va TROF bo'limlari boshliqlarining o'rinbosarlari va UBT bo'limi boshlig'i bo'limi qamrab olgan barcha bo'limlar va xizmatlarda ushbu tartib talablariga rioya etilishini nazorat qilish uchun javobgardir. Hujjatga muvofiq, ishchi guruh atrof-muhitga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan ekologik xavflarning oldini olish xaritalari va, choralarni aniqlash, yangilash va tayyorlash uchun mas'uldir.



"Navoiyazot" AJda ekologik xavflarni aniqlash jarayoni quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Ish joyida buyruqlar berish uchun ishchi guruh tuzish;
- Jarayon yoki faoliyat turini tanlash;
- Ekologik jihatlarini aniqlash
- Atrof-muhitga ta'sirlarni aniqlash;
- Ekologik xavflarni aniqlash xaritasini yaratish;
- Atrof-muhit xavfiga ta'sirining ahamiyatini baholash;
- Ahamiyatli ekologik xavflar ro'yxatini yaratish;
- Ahamiyatli ekologik xavflarni kamaytirish uchun har yili chora-tadbirlarni tayyorlash;
- Atrof-muhitga jiddiy qoldiq ta'sirlarning yillik tahlili.

Har yilgi rejalashtirilgan mas'ul tarkibiy bo'linmalar tomonidan ekologik xavflarni aniqlash bo'yicha monitoringlarni o'tkazish davrida boshqaruv tizimining amaldagi tartib-tamoyillari doirasida tashqi va ichki ma'lumotlar, shu jumladan, Jamiyat mahsulotlari iste'molchilarining faoliyati, pudratchilar faoliyati geografiyasiga qadar tahlil qilinadi, bloklarga aniq bo'linish bilan kirish va chiqish paytida amalga oshiriladigan operatsiyalar ro'yxati aniqlanadi.

Bunday jarayon atrof-muhitga potensial zarar yetkazishi mumkin bo'lgan barcha ekologik xavflarni batafsil aniqlashga yordam beradi.

Xavflarni aniqlashda ishchi guruh reglamentga muvofiq, quyidagilarga alohida e'tibor beradi: resurslar, materiallar va xom ashyolardan foydalanish, tashish va saqlash; ishlab chiqarish jarayonlari; uskunalarini sinash, saqlash, ishlatish va texnik xizmat ko'rsatish; Kompaniya tomonidan taqdim etilgan xizmatlar va mahsulotlar; normal, kutilmagan va favqulodda rejimlarni qayta tekshirish; chiqindilarni boshqarish.

Ekologik xavflarni aniqlash bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilishda komissiya "Navoiyazot" AJning quyidagi yondashuvlari va axborot manbalariga tayanadi:



Korxonadagi jarayonlar:

- Ekologik xavflarni birlamchi va yordamchi ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda alohida operatsiyalar va bo'limlar darajasida baholash.



Hujjatlar va ma'lumotlar:

- Tashkilotga qo'llaniladigan normativ aktlar va atrof-muhit bo'yicha siyosatlar.
- Uskunalarni ishlatish va texnologik jarayonlar sxemalari bo'yicha qo'llanmalar.
- Barcha kirish (xom ashyo, suv, energiya) va chiqish (mahsulotlar, emissiya, chiqindilar, jismoniy omillar) ma'lumotlarini hisobga olgan holda texnik va ishlab chiqarish jarayonlariga oid siyosat va ko'rsatmalar;
- Xaridlar boshqaruvi va chiqindilarni utilitatsiyasi bo'yicha yo'riqnomalar;
- Mahsulot xususiyatlari, ayniqsa xom ashyo va kimyoviy moddalar xavfsizligi nuqtai nazaridan;
- Oldingi atrof-muhit tahlili hisobotlari natijalari;
- Sanoat bo'linmalarining atrof-muhitga ko'rsatilgan ta'sir to'g'risidagi ma'lumotlari (chiqindilar, suv va havoga tashlanmalar, tuproq ifloslanishi va boshqalar);
- Favqulodda vaziyatlar va hodisalar haqida hisobot;
- Tekshirish nazoratidan hisobotlar.

«Navoiyazot» AJ to'g'ridan-to'g'ri atrof-muhitga ta'sirlardan (havo emissiyalari, yer osti suvlarining ifloslanishi, energiya resurslari va iste'moli) tashqari, bilvosita salbiy ta'sir manbalarini ham kamaytirish choralarini ko'rmoqda. Buning doirasida Jamiyat ekologik boshqaruv tizimini uzluksiz takomil-lashtiradi, xodimlar xabardorligini oshiradi, atrof-muhitga ta'sir monitoringi natijalari sifatini nazorat qi-ladi hamda atrof-muhit sohasidagi vakolatli davlat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni rivojlantiradi.

Ekologik xavflarni aniqlash jarayonidagi muhim masala bo'lib har uch yilda bir marta yangilanadigan va tasdiqlanadigan aniqlangan ekologik xavflar xaritasini tuzish hisoblanadi. Aniqlangan ekologik xavflarning ushbu xaritasi qonunchilikdagi, Jamiyat faoliyatidagi o'zgarishlar, manfaatdor tomonlarn-ing so'rovlar yoki ekologik hodisalar tufayli muddatidan oldin yangilanishi mumkin. Barcha ma'lumotlarga va ekologik xavfning jiddiyligiga asoslanib baholash amalga oshiriladi va bunday baholash har biri 3 ballik jiddiylikka ega bo'lgan 4 daraja (A, B, C, D) asosida amalga oshiriladi. 2024-yilda Jamiyatda aniqlangan ekologik xavflarning yangilangan xaritasini amal qilishi davom etdi. Yil davomida xarita ishlab chiqarish infratuzilmasi, tashqi muhit va me'yoriy talablaridagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqildi. Yangilanishlar ekologik xavflarning asosiy jihatlariga, jumladan, emissiyalar, chiqindilar va infratuzilma sharoitlariga tegishli.

“Navoiyazot” AJda ekologik xavf darajalarini tahlil qilishdan misol

Nomi	Xavfning jiddiyligi		
	● Yuqori (3 ball)	● O'rtacha (2 ball)	● Past (1 ball)
Normativ-huquqiy tizimiga rioya qilish	Tizimli ravishda buziladi (yiliga 10 martadan ortiq)	Vahti-vaqti bilan buzila-di (yiliga 10 martadan kam)	rioya etiladi
Ekologik (ta'sirlar)	Jiddiy tizimli oqibatlar (1 va 2-xavflilik sinflarga mansub moddalar)	Boshqarilmaydigan davomiy (3-xavflilik sinfiga mansub moddalar)	Davomiy bo'lmagan, key-inychalik neytralizatsiya qilinadigan (4 va 5-xavflilik sinflariga mansub moddalar)
Vaqtincha (ta'sirning takroriyligi)	Doimiy	Davriy	Kichik ehtimol
Iqtisodiy (xarajatlar, sarflar, yo'qotishlar)	Ekologik to'lovlarning 10% yoki undan ko'prog'i miqdorida jarimalar, sanksiyalar, yo'qotishlar va qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradigan jihat	Ekologik to'lovlarning 10% dan ortiq bo'lmagan qo'shimcha to'lovlarga olib keladigan jihat	Qo'shimcha yo'qotishlarga olib kelmaydigan jihat



Atrof-muhitga ta'sir qiluvchi Jamiyat uchun tasdiqlangan ekologik xavflar bo'lib quyidagilar hisobla-nadi:



- atmosferaga emissiyalar;
- oqava suvlarni oqizish;
- chiqindilarning hosil bo'lishi va ularni saqlash;
- Tuproqning ifloslanishi;
- tabiiy resurslardan foydalanish;
- energiya resurslaridan foydalanish;
- jismoniy ta'sir (shovqin, radiatsiya, issiqlik);
- yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar;
- inson faktori;
- bevosita va bilvosita ta'sirlar.

Ekologik xavflarni aniqlash natijalari asosida ishchi guruh ularning yuzaga kelish sabablarini chuqur tahlil qiladi va ularning ta'sirini minimallashtirishga qaratilgan yondashuvlarni ishlab chiqadi. “Navoiyazot” AJ strategik rejalashtirishda xavf-xatarlar hisobga olinishiga va AMMQ tizimida aks ettirilishiga alohida e'tibor qaratmoqda. Har yili ekologik xavflarning xaritasi va jiddiyligi asosida ularning oldini olish va kamaytirish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Har bir muhim xavf bo'yicha tarkibiy bo'linmalar rahbarlari 10-noyabrga qadar ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan budjetni baholagan holda chora-tadbirlar ro'yxatini tayyorlaydilar, keyinchalik ular Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limiga tasdiqlash uchun va Kompaniyaning atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimallashtirish bo'yicha faoliyatga joriy etish uchun topshiriladi.

Asosiy faoliyatlar kompaniyaning UBT sohasidagi strategik maqsadlariga joriy etiladi va ularning bajarilishini nazorat qilish va monitoringini AMMQ va TROF bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Har olti oyda UBT doirasida kichik jarayonlar ishi bo'yicha hisobot tuziladi, uning asosida Jamiyatning ekologik samaradorligi baholanadi. Baholash natijalari va ekologik faoliyatdagi asosiy yutuqlar yakuniy hisobotlarda aks ettiriladi.



2024-yilda Jamiyat tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha

7,7 mlrd so'mlik

40 ta chora-tadbirlar amalga oshirildi.

“Navoiyazot” AJning 2024-yil uchun atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlari xarajatlari

Suv resurslarini muhofaza qilish

9 tadbirlar

umumiy summasi

332 711,13 ming so'm



Atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha

17 tadbirlar

umumiy summasi

155 028,42 ming so'm



Sanoat va maishiy chiqindilar bo'yicha

6 tadbirlar

umumiy summasi

279 876,42 ming so'm



Yer resurslarini muhofaza qilish bo'yicha

5 tadbirlar

umumiy summasi

663 600,00 ming so'm



Ekologik normativ hujjatlar bo'yicha

3 tadbirlar

umumiy summasi

6 268 530,81 ming so'm



Iqlim o'zgarishi

GRI 3-3, 2-23

Iqlim o'zgarishi “Navoiyazot” AJ tomonidan strategik xavf sifatida qaralib, u **Jamiyat va uning manfaatdor** tomonlari uchun ham imkoniyatlar, ham potensial moliyaviy xavflarning manbasi sifatida qaraladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalarini qat'iyalashtirish, iste'molchilar va investorlar o'rtasida iqlim o'zgarishi haqida xabardorlikni oshirish va barqaror rivojlanishga e'tiborni kuchaytirish Kompaniya uchun ham muammolar, ham imkoniyatlar yaratmoqda. Global barqaror rivojlanish amaliyotiga rioya qilish “Navoiyazot” AJ uchun raqobatdosh ustunlikka aylanishi mumkin.

Ilgari Kompaniya “Navoiyazot” AJ uchun iqlim xavflari va imkoniyatlarini baholash uchun barqaror rivojlanish bo'yicha xalqaro konsalting kompaniyasini jalb qilgan edi. Baholash jarayonida iqlimning jismoniy o'zgarishi “Navoiyazot” AJ faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishi, hamda Kompaniya past uglerodli iqtisodiyotga o'tish bilan bog'liq qanday xavf va imkoniyatlarga duch kelayotganligi tahlil qilindi.

Iqlim xavflarini va imkoniyatlarni baholashda ssenariylar tahlil qilinib, aniqlangan xavf va imkoniyatlarning kam uglerodli va yuqori uglerodli ssenariylarda vaqt o'tishi bilan qanday oqibatlar olib kelishi mumkinligini baholash uchun amalga oshirilgan. Natijada, ishlab chiqarish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ekstremal tabiiy hodisalar - suv tanqisligi, qurg'oqchilik, o'rmon yong'inlari va qattiq sovuq kabi jismoniy xavflar va imkoniyatlar aniqlandi.

O'tish xavflari tahlili shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda va Jamiyatning asosiy bozorlarida (Markaziy Osiyo va Osiyo) past uglerodli iqtisodiyotga o'tish uchun tartibga soluvchi va bozor bosimi cheklangan darajada bo'lib qolmoqda. Biroq, O'zbekistonning uglerod emissiyalari bo'yicha siyosati yangilansa yoki Jamiyat uglerodni narxlash qoidalari amal qiladigan bozorlarga kirsam, xatarlar oshishi mumkin.

Iqlim bilan bog'liq moliyaviy hisobotlar bo'yicha maqsadli guruh (keyingi o'rinlarda TCFD) tavsiyalariga muvofiq “Navoiyazot” AJ iqlim omillarining o'z faoliyatiga ta'sirini tahlil qiladi va oshkor qiladi. Ma'lumotlarni oshkor qilish TCFD strukturasi quyidagi asosiy tamoyillari asosida qurilgan:

- Boshqaruv.
- Strategiya.
- Xavflarni boshqarish.
- Metrikalar va maqsadlar.

Kompaniya o'z faoliyatida atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish so-hasida bir qator fundamental tamoyillarga amal qiladi:

- Barcha faoliyatlar atrof-muhitga ta'sir qilishi mumkinligini e'tirof etish va har yili atrof-muhitni himoya qilishning kompleks dasturini amalga oshirish orqali ushbu ta'sirni minimallashtirishga intilish.
- Xodimlar, mulk va atrof-muhit xavfsizligini ta'minlash uchun ekologik xavflarni oldini olish va tasodifiy ifloslanishni nazorat qilish.
- Normativ-huquqiy bazaning rivojlanishiga muvofiq harakat qilish.
- Energiyani tejoychi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarida tabiiy resurslar va xomashyo iste'molini kamaytirish.
- Cpiqindilarni hajmini kamaytirish va iloji bo'lsa, ularni qayta ishlashni ta'minlash.
- Ishlab chiqarishni rivojlantirishda atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradigan kam chiqindili texnologiyalardan foydalanish.
- Emissiyalarni doimiy tahliliy nazorat qilish orqali milliy atrof-muhit monitoringini yaratishga ko'maklashish.
- Atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo'yicha xodimlarga kasbiy tayyorgarligi va ta'lim ol-ishini ta'minlash.

- Zararli va xavfli moddalarni nafaqat o'z ishlab chiqarish korxonamizda, balki yetkazib beruvchilarda ham almashtirishga intilish.
- Uskunalar va materiallarni sotib olayotganda, shuningdek, texnologik jarayonlarni ishlab chiqishda energiya samaradorligi, ekologik jihatlar, xavfsizlik va sifatni hisobga olish.
- Jamiyat faoliyati natijasida atrof-muhitga yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar uchun javobgar bo'lish.
- Yangi ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarni joriy etish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha takliflar kiritish uchun sharoit yaratish.



Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavf va imkoniyatlarni boshqarish (TCFD)

“Navoiyazot” AJ boshqaruvi uch pog'onali tuzilma bo'lib, unda aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi Jamiyatning yuqori boshqaruv organi bo'lib, Kuzatuv kengashi aksiyadorlar Umumiy yig'ilishiga hisobdordir.

“Navoiyazot” AJ Boshqaruvi atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish Jamiyat uchun muhim vazifa bo'lgan strategik yo'nalishni belgilash missiyasining boshida turadi. “Navoiyazot” AJ o'zining iqlim bilan bog'liq muammolarni aniqlash va hisobga olish yo'lini Jamiyatning strategiyasi va jarayonlari orqali boshladi, hamda atrof-muhit (masalan, havo va suv) mavzulari haqida xabar va hisobot berish tartiblarini o'rnatdi.


Iqlim xavflari va imkoniyatlarini yangi IFRS S2 standartiga muvofiq yangilash bo'yicha ishlar 2025-yilga rejalashtirilgan.

Ekologiya, mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi boshqarmalari va bosh energetik kabi boshqarmalar boshliqlari yiliga ikki marta Boshqaruv raisi o'rinbosarlariga KPI maqsadlariga erishish to'g'risida hisobot beradilar.

Jamiyatda har ikki haftada bir marta yig'iladigan ishchi guruhini tuzilgan va u atrof-muhit, ijtimoiy soha va boshqaruv (ESG) masalalari, jumladan, ESGning ustuvor muammolaridan biri sifatida iqlim o'zgarishi uchun mas'uldir.

2024-yilda iqlim ta'siri va ekologik xavflar bilan bog'liq masalalar Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqilmadi.

Iqlim o'zgarishini bilan bog'liq masalalarni boshqarish tuzilmasi



Barqaror rivojlanish strategiyasi (TCFD)

TCFD tavsiyalariga muvofiq, iqlim o'zgarishining Kompaniya faoliyatiga ta'sirini baholash uchun «Navoiyazot» AJ bazaviy (asosiy) va past-uglerodli ikki iqlim ssenariysidan foydalanadi. O'tish ssenariylari bo'yicha ko'rsatkichlar asosan Moliyaviy tizimni yashillashtirish tarmog'ining (NGFS) 2022-yil iqlim ssenariylaridan olinadi va Xalqaro energetika agentligining 2023-yilgi «Jahon energetikasi bo'yicha istiqboli» (World Energy Outlook 2023) ma'lumotlari bilan to'ldiriladi:



- **Joriy siyosat** - XXI asr oxiriga kelib kutilayotgan harorat + ~3°C bo'lgan umumiy iqtisodiy taraqqiyoti ssenariysiga to'g'ri keladi va u qisman "Navoiyazot" AJ xavflarni boshqarish tizimiga joriy qilingan.
- **Sof nol 2050** - global isishni 1,5°C gacha cheklab, taxminan 2050-yilgacha CO₂ emissiyasini nolga tushirishga qaratilgan ulkan ssenariydir.

O'tish ssenariylari doirasida Jamiyat tomonidan ikki o'tish ssenariysi belgilandi:

- 2°C va undan past – NGFS.
- 2 °C dan yuqori – NGFS.

Baholashda asosiy (hozirgi iqlim) sharoitlar bilan bir qatorda kelajakdagi **uchta vaqt gorizonti** ko'rib chiqildi. Ular "Navoiyazot" AJ faoliyati uchun eng mos deb topildi:

- **2030 yil** – qisqa muddatli davr.
- **2040 yil** – o'rta muddatli davr.
- **2050 yil**- uzoq muddatli davr.



Jismoniy xavflarni baholash

Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi (IO'BHEG) (OD6) 2021-yilgi oltinchi hisobotiga muvofiq, kelajakning turli variantlarida jismoniy xavflarni baholash uchun umumiy ijtimoiy-iqtisodiy yo'l (SSP) ssenariylaridan foydalanildi. Ushbu baholashni amalga oirishda Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo ekspertlar guruhining SSP1-2.6 va SSP5-8.5 ssenariylari 2030 va 2050-yillar vaqt oralig'iga nisbatan qo'llanilgan bo'lib, bu TCFDning ilg'or amaliyotiga mos keladi.

Baholangan ssenariylar:

- **SSP1-2.6:** Parij kelishuvi maqsadlariga muvofiq, **2100-yilga** kelib global isishni **2°C** dan past darajada ushlab turishni maqsad qilgan past uglerodli ssenariysi. **2100-yilga** qadar prognoz qi-linayotgan isish: **1,8°C**.
- **SSP5-8.5:** yuqori emissiya ssenariy - qo'shimcha iqlim chorolari ko'rilmagan taqdirda "odat-dagidek biznes" yo'li bilan yurgan taqdirda **2100-yilga** yuorib **CO₂** emissiyasi uch baravar oshishi prognoz qilinayotgan. Prognoz qilinayotgan isish: **4,4°C**.



Tahlil qilish uchun "Navoiyazot" AJ faoliyati uchun eng dolzarb bo'lgan asosiy (hozirgi iqlim) sharoitlar va ikki vaqt davridan foydalanildi:

- **2030-yil** (qisqa muddatli, 2015-2044-yillar uchun ma'lumotlar);
- **2050-yil** (uzoq muddatli, 2035-2064-yillar uchun ma'lumotlar).

2025-yilda XMHS S2 xalqaro standarti talablariga muvofiq xavf va imkoniyatlarni baholash bo'yicha ma'lumotlarni oshkor qilishni hisobga olgan holda Jamiyatning iqlim strategiyasini ishlab chiqish rejalashtirilmoqda. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq jismoniy va o'tish davri xavflari, shuningdek, Jamiyatning imkoniyatlari yangilanadi.



“Navoiyazot” AJning iqlim xavflari va imkoniyatlari

	Xavf/imkoniyat nomi	Xavfning tavsifi	Toifa	Xavf/imkoniyat
 <p>O'tish davri xavfi va imkoniyatlar</p>	Uglerod emissiyasi narxini shakllantirish qoidalari	Past-uglerodli iqtisodiyotga o'tish uglerod emissiyalarini narxlash mexanizmlarini keng ko'lamda joriy etishni talab qilishi kutilmoqda, bu esa kompaniyaning operatsion xarajatlariga (OPEX) ta'sir ko'rsatadi.	Siyosat va huquqshunoslik	Xavf
	Moliyaviy manfaatdor tomonlar/investorlarning tanlov va xoxshining o'zgarishi	Investorlar e'tibori past emissiya darajasiga ega ishlab chiqaruvchilar tomon siljishi kutiladi. Iqlimiy maqsadlariga erishish yo'lida ekanini ishonchli ko'rsata oladigan yoki mahsulot va xizmatlari orqali issiqxona gazlari emissiyalarini kamaytirishga hissa qo'shayotgan kimyo Jamiyatlari investorlarga jozibalroq bo'ladi, yuqori uglerod intensivligiga ega kompaniyalarga esa tashqi investorlar qiziqishi cheklangan bo'lishi mumkin.	Bozorlar	Xavf
	Kengaytirilgan emissiya bo'yicha hisobot majburiyatlari	O'zbekistonda “Navoiyazot” AJ emissiya bo'yicha hisobot taqdim etishga majbur emas. Ba'zi bozorlar yoki qoidalar (masalan, Yevropa Ittifoqining Uglerod chegaralarini boshqarish mexanizmi (CBAM) uglerod emissiyasi bilan bog'liq mahsulotlar uchun deklaratsiyalarni talab qiladi. ESG-masalalarini boshqarish uchun qo'shimcha resurslar talab qilinadi, bu esa operatsion xarajatlarning oshishiga olib keladi.	Siyosat va huquqshunoslik	Xavf
	Energiya samaradorligining oshishi	Energiya samaradorligini oshirish energiya tejalishi orqali ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirishi mumkin.	Resurs samaradorligi	Imkoniyat
	Kam uglerodli mahsulotlarni sotish imkoniyati	Yevropa, Amerika va Osiyo bozorlarida mijozlar past-uglerodli mahsulotlarni tobora ko'proq afzal ko'rmoqda, chunki bu ularga IG emissiyalarini qisqartirish maqsadlariga erishish hamda mahalliy yoki mintaqaviy me'yorlarga muvofiqlikni ta'minlashga yordam beradi. «Navoiyazot» AJ hozirda ishlab chiqarish jarayonlarini dekarbonizatsiya qilish bo'yicha yechimlarni o'rganmoqda va bosqichma-bosqich joriy etmoqda.	Mahsulotlar va xizmatlar	Imkoniyat
 <p>Jismoniy xavflar*</p>	Ekstremal issiqlik	Issiqlik to'lqinlari konditsioner kabi boshqaruv tizimlarini o'rnatish uchun kapital xarajatlarni (CAPEX) oshirish ehtiyojiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, obyekt xodimlarining salomatligi va xavfsizligiga ta'sir ko'rsatilishi ehtimoli mavjud.	O'tkir xavf	Xavf
	Ekstremal sovuq	Sovuq davrlar haroratga sezgir ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini pasaytirishi va zarur ishlab chiqarish haroratini ta'minlash uchun isitish tizimlarini o'rnatish bo'yicha xarajatlarni oshirishi mumkin. Bundan tashqari, obyekt xodimlarining sog'ligi va mehnat xavfsizligiga ta'sir ehtimoli mavjud.	O'tkir xavf	Xavf
	Suv tanqisligi va qurg'oqchilik	Suv ta'minotining pastligi (past suv oqimi) foydalanish uchun mavjud suvning sifati va hajmini kamaytirishi mumkin, bu esa ishlab chiqarish jarayonlarida foydalanish uchun toza suv sotib olish uchun operatsion xarajatlarning o'sishiga olib keladi. Suv infratuzilmasi va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmlariga investitsiyalar talab qilinishi mumkin, bu kapital xarajatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.	Surunkali xavf	Xavf
	O'rmon yong'inlari	O'rmon yong'inlari ekspluatatsiya aktivlarga, shuningdek, obyekt xodimlarining salomatligi va xavfsizligiga, ayniqsa infratuzilmaga to'g'ridan-to'g'ri alanga va/yoki issiqlik ta'sir qilsa, bevosita zarar yetkazishi mumkin. Bu kapital va ekspluatatsion xarajatlarga ta'sir qilishi mumkin.	O'tkir xavf	Xavf

* Boshqa jismoniy xavflar ham hisobga olindi, ammo ularning ahamiyati past deb belgilandi.

Xavflarni boshqarish (TCFD)

"Navoiyazot" AJning risklarni boshqarish tizimi va jarayonlari UBTga asoslangan bo'lib, uning doirasida Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlangan xavflarni aniqlash, baholash tartiblari, xavflarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va monitoring qilish tartib-qoidalarini belgilangan. Tayyorlangan xavflar reestri qisman jismoniy va past uglerodli iqtisodiyotga o'tish bilan bog'liq ba'zi xavflarni qamrab oladi, masalan, energiya narxlarining o'zgarishi, mahsulot narxining o'zgarishi xavfi, energiya ta'minotining beqarorligi xavfi va energiya ta'minoti tizimidagi uzilishlar, va bular xavflar reyestriga kiritilgan (hozirda bevosita "iqlim xavflari" deb nomlanmagan).

Xavflarni aniqlashga bo'lgan yondashuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- "yuqoridan pastga" yondashuv - yuqori boshqaruv darajasida aniqlangan xavflar;
- "pastdan yuqoriga" yondashuv - tarkibiy bo'linmalar va ishlab chiqarish xodimlari darajasida aniqlangan xavflar.

Barcha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar, shu jumladan, xavfli tabiiy hodisalar va ekologik xavflar ishlab chiqarish sexlarida to'planadi va so'ng xavflar reestrida umumlashtiriladi.

Metrikalar va maqsadlar (TCFD)

SASB RT-CH-110a.2



Jamiyat 2050-yilga kelib 1-3-qamrovdagi issiqxona gazlari chiqindilarini qoldiq kompensatsion choralar orqali

90% ga

kamaytirish majburiyatini olmoqda. Jamiyatning issiqxona gazlari (IG) emissiyalarini qisqartirish bo'yicha qisqa va uzoq muddatli maqsadlari global

isishni 2°C,

darajasida cheklash maqsadiga mos keladi va shu tariqa Parij kelishuvini qo'llab-quvvatlaydi.

"Navoiyazot" AJ 2023-yildan boshlab issiqxona gazlari chiqindilarini toifalar bo'yicha miqdoriy baholashni boshladi: 1-qamrov - IGning to'g'ridan-to'g'ri yalpi emissiyasi; 2-qamrov - energiya bilan bog'liq bilvosita IG emissiyalari (sotib olinadigan elektr energiyasi, issiqlik va boshqalar). Ushbu hisobotda issiqxona gazlari emissiyalari operatsion nazorat yondashuvi asosida konsolidatsiya qilin-gan.

2024-yil uchun to'g'ridan-to'g'ri IG emissiyasini baholash uchun "Iqlim o'zgarishi bo'yicha huku-matlararo ekspertlar guruhining milliy issiqxona gazlari inventarlarini tayyorlash bo'yicha ko'rsatmalari, 2006" xalqaro metodologiyasidan foydalanildi.

"Navoiyazot" AJda 1-qamrovdagi IG emissiyalarining asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

- mobil yoqish manbalari** (avtotransport tomonidan yoqilg'idan foydalanish);
- statsionar yoqish manbalari** (payvandlash apparatlari va kompressorlardan foydalanish, olovli qurilmalar, bug hosil qilish uchun gazni yoqish va boshqalar);
- texnologik jarayonlarning chiqindilari** (tabiiy gazdan ammiak, PVX uchun atsetilen va boshqa kimyoviy moddalar ishlab chiqarish);
- sanoat chiqindilari** (simob-fosforli loy, piroliz reaktorlarining kokslari, stabilashgan cho'kindi, ohak loylari va boshqalar) poligonlaridan emissiya.

Har bir yoqilg'i turi uchun o'ziga xos emissiya koeffitsientlari qo'llaniladi, ular milliy ma'lumotlarga yoki Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi tomonidan taklif etilgan qiymatlarga asoslanishi mumkin. Emissiyalarni hisoblashda Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo ekspertlar guruhin-ing Oltinchi baholash hisobotiga muvofiq, global isish potentsiallari (GWP) qo'llanildi.



Issiqxona gazlarining global isishi ehtimoli


Issiqxona gazlari	Kimyoviy formula	Global isish potentsiali
Karbonat angidrid	CO ₂	1
Metan	CH ₄	28
Azot (I) oksidi	N ₂ O	273

2024-yil uchun to'g'ridan-to'g'ri issiqxona gazlari emissiyasi (1-qamrov)

GRI 305-1

2024 yil uchun to'g'ridan-to'g'ri issiqxona gazlari emissiyasi (1-qamrov), foiz ulushi,%

GRI 305-1



- Sanoat emissiyasi
- Statsionar yoqish
- Sayyor yoqish
- Poligondagi chiqindilardan emissiya

IG emissiya manbalari toifasi	CO ₂ , tCO ₂ chiqindilari	CH ₄ , tCO ₂ -ekv. chiqindilari	N ₂ O, tCO ₂ -ekv. chiqindilari	IG jami emissiyasi, tCO ₂ -ekv.
Sayyor yoqish	2 822	36	41	2 899
Statsionar yoqish	944 266	470	459	945 195
Sanoat emissiyasi	375 686	-	80 355	456 041
Poligondagi chiqindilardan emissiya	-	-	-	192
Jami:	1 322 774	506	80 855	1 404 327



2024 yilda Jamiyatning yalpi global issiqxona gazlari (IG) emissiyalariga ularni cheklash yoki qis-qartirishga qaratilgan tartibga solish mexanizmlari tatbiq etilmadi, chunki Respublika darajasida tegishli me'yoriy talablar mavjud emas edi.

2024-yil uchun 2-qamrov kategoriyasidagi IG emissiyasini (bilvosita energiya emissiyasi) baholash uchun Xalqaro energiya agentligi (IEA) ma'lumotlariga asoslangan mamlakatlar joylashishi bo'yicha xalqaro metodologiya qo'llanildi. Hisob-kitoblarda O'zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish natijasida emissiya darajasini aks ettiruvchi mamlakatga xos bo'lgan IG emissiya koeffitsientlaridan foydalanilgan.

"Navoiyazot" AJda 2-qamrovdagi issiqxona gazlarining bilvosita energiya emissiyasining asosiy manbalariga quyidagilar kiradi:

- Sotib olinadigan **elektr energiyasi**;
- Sotib olinadigan **issiqlik energiyasi**.



2024-yilda bilvosita issiqxona gazlari emissiyasi (2-qamrov sohasi)

GRI 305-2

Sotib olinadigan energiya turi	Sotib olingan energiya hajmi	O'lchov birligi	Energiyani o'tkazish koeffitsientlari	Bilvosita IG emissiyasi, 2-qamrov tCO ₂ -ekv.
Elektr energiyasi	1 215 794	kVt / soat	0,482	586 013
Issiqlik energiyasi	137 378	Gkal	0,5606	77 010
Jami:	-	-	-	663 023

"Navoiyazot" AJning jami issiqxona gazlari emissiyasi (1-qamrov + 2-qamrov)

IG emissiya toifasi	2023-yil uchun, tCO ₂ -ekv.	2024-yil uchun, tCO ₂ -ekv.
To'g'ridan-to'g'ri IG emissiyasi, 1-qamrov	1 362 262	1 404 327
Bilvosita IG emissiyasi, 2-qamrov	668 593	663 023
IG umumiy emissiyasi (Qamrov 1 + Qamrov 2)	2 030 856	2 067 350



GRI 305-4

2024-yil uchun issiqxona gazlarining emissiya intensivligi

IG umumiy emissiyasi (Qamrov 1 + Qamrov 2)

2 067 350 tCO₂-ekv.

Tushum

5 816 970 mln so'm

IG emissiya intensivligi

0,36 tCO₂/mln so'm

Barqaror ishlab chiqarishni rivojlantirish va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish

GRI 305-5

Korxonada ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini oshirishga qaratilgan **investitsiya loyihalari** ishga tushirildi. **"Navoiyazot" AJ uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirish ustida faol ish olib bormoqda.** Jamiyat 1 va 2 qamrov doirasida IG emissiyalarini kamaytirish texnologiyalarini aniqladi va ularni kelgusida o'z faoliyatiga joriy etish bo'yicha rejalarni ishlab chiqmoqda, jumladan:

- qayta tiklanadigan energiya manbalaridan yordamida elektrlashtirish;
- uglerodni ushlab va saqlash va N₂O emissiyasini kamaytirish;
- yashil vorod texnologiyasidan foydalanish.



2024-yilda Jamiyat ushbu texnologiyalarni potensial joriy etish nuqtai nazaridan amalga oshirilganini baholadi va harakatlar rejasini ishlab chiqish ustida faol ish olib bordi. Hisobot yilida issiqxona gazlari chiqindilarining intensivligi **(Qamrov 1 + Qamrov 2) 0,36 tCO₂-ekv./mln so'mni tashkil etdi.**

Ilgari yonish uchun yuborilgan va shu tarzda issiqxona gazlari chiqindilari hajmini oshirgan qoldiq sintez gazini qayta ishlatish bo'yicha amalga oshirilgan loyiha haqida ta'kidlash joiz.



Yangi texnologiya doirasida, qoldiq sintez gaz endi Ammiak-3 sexiga yo'naltiriladi va tabiiy gaz bilan birga ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladi, bu esa issiqxona gazlari chiqindilarini jiddiy darajada kamaytirish imkonini beradi.

Ushbu loyiha doirasida 2024-yilda tabiiy gaz iste'molini

35,6 mln m³

ga kamaytirishga erishildi, bu esa 1-qamrov issiqxona gazlari chiqindilarini taxminan

80 ming tonna CO₂ - ekv

ga kamaytirish imkonini berdi. Bundan tashqari, energiya samaradorligi bo'yicha chora-tadbirlar elektr energiyasi sarfini

284,4 mln kVt-soatga

kamaytirishga imkon berdi, bu esa 2-qamrov bo'yicha bilvosita chiqindilarini taxminan

137 ming tonna CO₂-ekv

ga kamaytirishga imkon berdi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida issiqxona gazlari chi-qindilari intensivligi o'tgan yilga nisbatan qariyb

18% ga kamaydi.

Jamiyat 2025-yilda QTE, energiya samaradorligi va yanada toza energiya manbalariga o'tish sohasidagi investitsiya loyihalari asosida CO₂ chiqindilarini kamaytirish bo'yicha qisqa muddatli maqsadni belgilashni rejalashtirmoqda.

Atmosfera emissiyalari

GRI 3-3

“Navoiyazot” AJ atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar (IM) chiqindilarini boshqarishda kompleks yondashuvni qo'llaydi. Yondashuvning asosi bo'lib, davlat nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'rnatilgan ruxsat etilgan maksimal emissiya standartlariga (MES) qat'iy rioya qilish hisoblanadi. Normativlarga rioya etilishini nazorat qilish Jamiyatning sanitariya laboratoriyasi tomonidan amalga oshiriladi va Viloyat ekologiya va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish inspeksiyasi bilan hamkorlikda har oyda chiqindi gazlar monitoringi olib boriladi. Ushbu yondashuv ruxsat etilgan me'yorlardan chetlanishlarni tezda aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rish imkonini beradi. Atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqindilarini boshqarish, shuningdek, belgilangan MES me'yorlariga muvofiqligini nazorat qilish uchun javobgarlik Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'limi boshlig'iga yuklatilgan. Ushbu funksiya korxonaning atrof-muhitni boshqarish tizimining asosiy elementi bo'lib, ekologik talablarga rioya etilishini ta'minlash va atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirishga qaratilgan.

Jamiyatda monitoring va atrof-muhitni muhofaza qilish, shu jumladan atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini nazorat qilish bo'yicha majburiyatlar rasmiylashtirilgan. Mazkur majburiyatlar Viloyat ekologiya va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish inspeksiyasi hamda Navoiy shahar Sanitariya epidemiologiya xizmati tomonidan tasdiqlangan hujjatlashtirilgan rejalar bilan mustahkamlangan. Ushbu rejalar ishlab chiqarish sanitariya laboratoriyasi tomonidan muntazam tahliliy nazoratni o'z ichiga oladi, bu havo sifatini barqaror darajada saqlash va atrof-muhitga ta'sirni kamaytirishga yordam beradi.

“Navoiyazot” AJ haqiqiy va o'rtacha koeffitsientlarga tayangan holda ham to'g'ridan-to'g'ri o'lchashni, ham hisoblangan baholash usullarini qo'llaydi. Tahlillar va hisob-kitoblar tasdiqlangan usullar va GOSTlarga muvofiq, amalga oshiriladi, bu olingan ma'lumotlarning aniqligini va atrof-muhitga ta'sirni baholashning shaffofligini ta'minlaydi.



Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalarning hajmi **GRI 305-7, SASB RT-CH-120a.1**

Nomi	O'lchov birligi	2022	2023	2024
azot oksidlari (NO _x)*	tonna	392,82	448,87	578,39
oltingugurt oksidlari (SO _x)**	tonna	9,03	8,49	3,32
uchuvchan organik birikmalar (UOB)	tonna	27,70	17,87	25,06
uglerod (II) oksidi (CO)	tonna	400,65	355,56	324,61
qattiq zarrachalar (QZ)	tonna	2 224,55	2 594,03	2 508,89
uglevodorodlar (UOB-siz)	tonna	94,13	88,90	62,67
boshqa gazsimon moddalar	tonna	1 177,52	1 323,33	1 309,1
Jami ***:	tonna	4 326,40	4 837,04	4 812,03

* 2023-yil uchun barqaror rivojlanish to'g'risidagi hisobotda 2022 va 2023-yillardagi emissiya hajmlariga faqat azot monooksidi (NO) emissiyasi kiritildi. Joriy versiyada azot oksidlarining umumiy emissiyasi (NO_x) keltirilgan.

** Oltingugurt dioksidi (SO₂) bo'yicha qiymatlar berilgan.

*** 2022 va 2023-yillardagi ma'lumotlar 2023-yilgi BRHdan farq qiladi, chunki hozirgi BRH-da ifloslantiruvchi moddalar tarkibi, shu jumladan, qattiq zarralar (QZ), uglevodorodlar (UOB siz) va boshqa gazsimon moddalar tarkibi to'liqroq hisobga olinadi.



"Navoiyazot" AJ tomonidan atmosferaga chiqariladigan tashlanmalar me'yorlariga rioya etilishi, chang yig'ish va gazni tozalash uskunalarning samarali ishlashi doimiy ravishda nazorat qilib borilmoqda. Nazoratni kuchaytirish uchun korxonaning sanitariya laboratoriyasi sanitariya-muhofaza zonasida, Navoiy shahri doirasida va unga tutash hududlarda atmosfera havosidan kecha-kunduz namuna oladi.

"Navoiyazot" AJ o'zi faoliyat yuritayotgan hududda atmosfera havosining ifloslanishi va atrof-muhitga ekologik ta'sirini kamaytirish bo'yicha tizimli ishlar olib bormoqda.



Ifloslantiruvchi moddalar chiqindilarini kamaytirish uchun har yili atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha sex tadbirlari rejalarini ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlar uchun 2024-yilda Jamiyat tomonidan

155,03 mln so'm yo'naltirildi.

Monitoring sifatini oshirish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan belgilangan me'yorlardan og'ishlarga tezkorlik bilan chora ko'rish maqsadida 2025-yilda korxonaga chegarasida va sanitariya muhofazasi zonasida atmosfera havosi ifloslanishi darajasini doimiy nazorat qilish uchun ikkita stasionar ekologik post sotib olish va o'rnatish rejalashtirilgan. Shuningdek, ammiakli selitra va nitrat kislota ishlab chiqarish sexlaridagi emissiya manbalarida ifloslantiruvchi moddalaridan doimiy ravishda namuna olish va nazorat qilish uchun uchta avtomatik gaz analizatorini sotib olish to'g'risida shartnoma imzolandi (3, 23 va 25-sonli emissiya manbalari, tegishli ravishda). Texnik chora-tadbirlarga qo'shimcha ravishda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida zavod hududida va hududdagi sanitariya-muhofaza zonasida havo sifatini yaxshilash va chang darajasini pasaytirish maqsadida

10 gektar

hududdagi sanitariya-muhofaza zonasida havo sifatini yaxshilash va chang darajasini pasaytirish maqsadida

132 ming tup daraxt va buta ko'chatlari ekildi.



Ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish hisobiga ekologik ta'sirlarni kamaytirish

2019–2021-yillarda "Navoiyazot" AJ tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish, jumladan, zamonaviy ishlab chiqarish majmualari barpo etish, asosiy ishlab chiqarish obyektlarini yangilash kabi bir qator salmoqli loyihalar amalga oshirildi. Shu jumladan:

- **ammiak va karbamid ishlab chiqarish komplekslarini, shuningdek, polivinilxlorid, kaustik soda va metanol ishlab chiqarish komplekslarini va nitrat kislota ishlab chiqarish bo'yicha yangi quvvatlarni yaratish;**
- **energiya ta'minoti infratuzilmasini rekonstruksiya qilish va modernizatsiya qilish.**

Ushbu loyihalar 1965–1967-yillarda amalda bo'lgan eskirgan texnologiyalarni foydalanishdan chiqarish imkonini berdi, buning natijasida energiya sarfi va ifloslantiruvchi moddalar emissiyasi sezilarli darajada qisqardi.

Bundan tashqari, korxonada energiya tejash va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha yangi chora-tadbirlarni amalga oshirishni davom ettirmoqda.

Energiya menejmenti

GRI 3-3

"Navoiyazot" AJning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, Jamiyatda energiyani tejash soha oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi, chunki elektr energiyasi va boshqa energiya manbalari narxlarining oshishi ishlab chiqarish va mahsulot tannarxiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyat o'z oldida energiya menejmenti sohasidagi quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilgan maqsadlarni qo'ydi:



- energiya iste'moli, uzatish va taqsimlashda yo'qotishlarni kamaytirish;
- binolar va inshootlarda energiya sarfini kamaytirish, shu jumladan avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish, shuningdek, yillik iste'molni boshqarish va prognozlash;
- yoqilg'i-moylash materiallari, avtotransport vositalaridagi neft mahsulotlari va maxsus texnika uchun xarajatlarni kamaytirish;
- eng yangi energiya tejakor texnologiyalardan foydalangan holda bajariladigan asosiy ish turlarini modernizatsiya va/yoki rekonstruksiya qilish;
- texnologik jarayonni modernizatsiya qilishda foydalaniladigan standartlarni va ularni amalga oshirish mexanizmlarini jarayonda erishilgan natijalarning dastlabki hisob-kitoblarini amalga oshirish bilan birgalikda belgilash;
- Jamiyatda energiyani boshqarish tizimini joriy etish, shuningdek, energiyani boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini joriy etuvchi korxonalarni tanlash va shartnoma tuzilmasini ta'minlash.

"Navoiyazot" AJda energiya resurslarini boshqarish va energiya samaradorligi bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish mas'uliyati ikkita asosiy tuzilma o'rtasida taqsimlangan: Bosh energetik bo'limi (BEM) va Uyg'unlashgan boshqaruv tizimi bo'yicha rahbariyat vakili.

"Navoiyazot" AJ xodimlari energiya tejash va ishlab chiqarish jarayonlarining energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan Jamiyatning "Texnik siyosati"ga hamda Jamiyatda joriy etilgan ISO 50001:2018 energiya boshqaruv tizimi standarti talablariga amal qiladi.

"Navoiyazot" AJ energiyani tejash siyosati va energiya samaradorligi ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida nafaqat elektr energiyasi, balki suv resurslari, issiqlik energiyasi va motor yoqilg'isini ham tejash uchun sharoit yaratish zarur, deb hisoblaydi. Korxonaga energiyani tejash va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan ichki energiya boshqaruv tizimining uzluksiz ishlashini ta'minlab kelmoqda va ilg'or xalqaro tajribalar asosida energiya tejashni boshqarish tizimini shakllantirishga qaratilgan yo'nalishini belgilamoqda. Jamiyat xodimlarining malakasini doimiy ravishda o'rganish va oshirish belgilangan maqsadlarga erishishni tezlashtirishga yordam beradi.

Korxonalarda energiya iste'moli ishlab chiqarishning majburiy elementi bo'lib, doimiy ravishda cho-raklik va yillik hisobotlarda aks ettiriladi. Elektr energiyasi iste'moli "Ximiya" podstantsiyasida va tashqi yetkazib beruvchi "NIES" AJ bilan balans chegarasida o'rnatilgan hisobga olish asboblari bilan aniqlanadi. Issiqlik energiyasi hajmlari o'z bug' qozonlari va utilizator qozonlarining chiqish joyiga o'rnatilgan uskunalar yordamida qayd etiladi; agar o'zi ishlab chiqargan miqdori etarli bo'lmasa, qo'shimcha bug' miqdori "NIES" AJ yetkazib beruvchi bilan chegarada o'rnatilgan uskunalar yordamida qayd etiladi. Jamiyat belgilangan muddatlarda majburiy energiya tekshiruvlarini (energeti-ka auditini) amalga oshiradi va ustuvor yo'nalishlarni belgilab, buning natijalari asosida ilg'or tajriba va texnologiyalarni joriy etish orqali energiya resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqadi. Natijalarni o'rganib chiqib, Jamiyat korxonaning sanoat obyektlarining energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion (pilot) loyihalarni amalga oshirishga harakat qilmoqda.

Jamiyat har yili ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejalariga muvofiq, energiya tejash va energiya samaradorligini (energiya intensivligini) oshirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarni belgilaydi. Maqsadlar, vazifalar va energiya tejash rejasini aniqlash va ishlab chiqish uchun energiyani boshqarish bo'yicha ishchi guruh tuziladi va uning tarkibiga "Navoiyazot" AJning rivojlantirish strategiyasi doirasida faoliyat ishlaydigan tajribali mutaxassislar va menejerlar (rahbarlar) kiradi. Shuningdek, energiya sarflaydigan texnologiyalar va uskunalar reyestri ishlab chiqilmoqda. Doimiy yangilanib turadigan tizim energiya sarflaydigan asbob-uskunalarining joriy (haqiqiy) texnik ko'rsatkichlarini ishlab chiqaruvchilarning pasport xarakteristikalarini va texnologik rejim talablari bilan solishtirish imkonini beradi, bu esa uskunaning ishlashi va energiya sarfidagi og'ishlarni aniqlash imkonini beradi.



2023-yilda Jamiyat qayta tiklanadigan energiya obyektini – quyosh elektr stansiyasini (QES) ishga tushirdi. 2024-yilda uning o'rnatilgan quvvati

5 685 kVtgacha oshirildi,

bu uglerod izini kamaytirishga va korxonaning umumiy energiya samaradorligini oshirishga olib keladi.




Tashkilot ichida energiya iste'moli

GRI 302-1, SASB RT-CH-130a.1

Ko'rsatkich	O'lchov birligi	2022	2023	2024	O'zgarish, %
Iste'mol uchun sotib olingan energiyaning uning turlari bo'yicha miqdori					
Issiqlik energiyasi (isitish)	GDj	114 785,00	95 132,00	64 439,68	-31,2
Issiqlik energiyasi (bug')	GDj	944 357,41	464 924,32	509 885,25	9,7
Elektr energiyasi	GDj	4 791 744,58	3 900 194,17	4 122 940,79	5,4
Jami:	GDj	5 850 886,99	4 460 250,49	4 698 265,72	5,1
O'zi ishlab chiqargan energiya, turlari bo'yicha					
Elektr energiyasi	GDj	216,35	1 317,01	2 634,14	100
Jami:	GDj	216,35	1 317,01	2 634,14	100
Energiya turlari bo'yicha uning sotilgan miqdori					
Issiqlik energiyasi (isitish)	GDj	707,00	385,00	147,63	-61,6
Jami:	GDj	707,00	385,00	147,63	-61,6

Jami iste'mol qilingan energiya miqdori*



2024-yilda korxonaning jami energiya iste'molining

99,94%

elektr tarmog'idan sotib olingan elektr energiyasi,

0,05%

o'zi ishlab chiqargan energiyaga to'g'ri keldi, shundan

0,001%

qayta tiklanadigan manbalar

4 721,79 kVt/soat quyosh energiyasi

hisobidan ta'minlangan. Umumiy energiya iste'molida qayta tiklanadigan energiyaning nisbatan kichik ulushiga qaramay, bu ko'rsatkich Jamiyatning "yashil" energiyadan foydalanishga bosqichma-bosqich o'tishini aks ettiradi.

Energiya xarajatlari, mln so'm

GRI 302-1

Energiyani sotib olish uchun jami xarajatlar	2022	2023	2024	O'zgarish, %
Issiqlik energiyasi	32 584,49	23 599,57	34 251,75	45,2
Elektr energiyasi	418 960,53	566 642,03	720 562,02	27,1
Jami:	451 545,02	590 241,60	754 813,77	27,8



Asosiy mahsulotlarni (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish uchun energiya sarfi

GRI 302-3

Ko'rsatkich	O'lchov birligi	2022	2023	2024
Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy qiymati, jami:	mln so'm	3 840 914,80	3 827 696,90	4 226 359,94
Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish uchun yoqilg'i-energetika resurslarining umumiy iste'moli, shu jumladan:	shartli yoqilg'i tonnasi	1 468 060,60	1 272 831,30	1 356 120,5
tabiiy gaz	ming kub m.	1 096 001,82	968 104,53	1 031 847,0
	shartli yoqilg'i tonnasi	1 271 362,11	1 123 001,25	1 196 942,52
uchinchi tomondan elekt energiyasi	ming kVt / soat	1 331 040,16	1 083 387,27	1 145 261,33
	shartli yoqilg'i tonnasi	163 717,94	133 256,63	140 867,14
motor yoqilg'isi (benzin, dizel yoqilg'isi, suyultirilgan va / yoki siqilgan gaz va boshqalar)	tonna	503,29	488,17	626,37
	shartli yoqilg'i tonnasi	719,71	698,09	895,71
uchinchi tomon ishlab chiqaruvchilardan issiqlik energiyasi	Gkal	225 600,00	111 016,00	121 784,00
	shartli yoqilg'i tonnasi	32 260,80	15 875,29	17 415,11
Asosiy mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) texnologik energiya iste'moli (3-band / 1-band)	shartli yoqilg'i tonnasi./mln so'm	0,38	0,33	0,32



2022-2026-yillarga energiya samaradorligi sohasida natijalarga erishish uchun ishchi kuchini rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, energiyani tejash va energiya samaradorligini oshirish hisobiga energiya iste'molini

1,5 baravarga kamaytirish, bino va inshootlarning energiya samaradorligini

30% ga oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni

25% ga oshirish, shuningdek, maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun amalga oshiriladigan loyihalarni faol moliyalashtirish orqali qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni yaxshilash re-jalashtirilgan.

Jamiyatning boshqa rejalashtirilgan loyihalari quyidagilardir:

- elektr energiyasini uzatishda texnologik va notexnologik yo'qotishlarni aniqlash uchun elektr hisoblagichlarni o'rnatish
- LED lampalardan foydalanish va avtomatlashtirish;
- binolar va inshootlarning energiya samaradorligini oshirish (devorlarni issiqlik izolatsiyasi, eshik va derazalarni almashtirish va boshqalar);
- transport yo'nalishlari va yuklamalarni optimallashtirish;
- yuklamalarni fazalar bo'yicha aniq taqsimlash;
- liniyalarda qisqa tutashuvlardan himoya qiluvchi zamonaviy vositalardan foydalanish;
- tarmoq izolyatsiyasining qarshiligini davriy nazorat qilish, elektr tarmog'ining kontaktlarini tekshirish;
- o'zgaruvchan chastotali elektr sxemasidan foydalanish;
- yangi avlod oqim cheklovchi reaktorlardan foydalanish;
- pudratchilar va yetkazib beruvchilarga energiyani tejash va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha talablar qo'yish.

Energiya samaradorligini oshirish va energiya sarfini optimallashtirish

GRI 302-4

2024-yilda "Navoiyazot" AJ tomonidan elektr energiyasi sarfini kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan



14 ta energiya tejash

chora-tadbirlari amalga oshirildi. Ushbu chora-tadbirlar korxonaning texniqtisodiy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ularni amalga oshirish natijasida

284,4 mln kVt/soat (1 023,840 ming GJ)

elektr energiyasini tejash imkoni bo'ldi. Bundan tashqari, alohida loyiha doirasida

33,394 ming GJ bug' tejalishi ta'minlandi.

Asosiy tadbirlarga quyidagilar kiradi:

- **Texnologik jarayonlarni optimallashtirish:** havoning sizib chiqishini bartaraf etish, ish rejimlarini barqarorlashtirish, bir mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun energiya sarfini kamaytirish, boshqa sexlardan azotdan foydalanish, asbob-uskunalarni kapital ta'mirlashni amalga oshirish;
- **Uskunalarning energiya samaradorligini oshirish:** nasoslar va ventilyatorlarga chastota o'zgartirgichlarini o'rnatish; suv va ammiak ta'minoti sxemalarini yaxshilash hisobiga ayrim nasoslar va kompressorlar ish vaqtini qisqartirish;
- **Elektr yo'qotilishini kamaytirish:** reaktiv quvvatni qoplash uchun moslamalarni o'rnatish va ba'zi tizimlarni o'zi oqish rejimiga o'tkazish;
- **Qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish:** quyosh elektr stansiyasini ishga tushirish va quvvatini **5 685 kVt** gacha oshirish.
- **Bug'dan foydalanishni optimallashtirish:** issiq mavsumda demineralizatsiyalangan va tozalangan suvni ishlab chiqarishda undan foydalanishdan voz kechish.

Chiqindilarni boshqarish

GRI 3-3, 306-1, 306-2, SASB RT-CH-410b.2

“Navoiyazot” AJ o'z faoliyati jarayonida O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchiligi va “Chiqindilar to'g'risida”gi qonun talablariga amal qilgan holda ishlab chiqarish chiqindilarini boshqarishga katta e'tibor qaratadi. Jamiyatning asosiy yondashuvlari chiqindilarning inson salomatligiga salbiy ta'sirini oldini olish, chiqindilarni hosil bo'lishini minimallashtirish va ishlab chiqarish jarayonida ulardan foydalanish samaradorligini oshirishdan iborat. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish (AMMQ va TROF) bo'limi chiqindilarni boshqarishning muhim jihatlari umumiy muvofiqlashtirish, hisobot yuritish va baholash uchun javobgardir.

“Navoiyazot” AJning har bir sexining muhandis-texnik xodimlari orasidan chiqindilarni hisobga olish va boshqarish bo'yicha mas'ul shaxslar tayinlanadi. Ushbu xodimlar chiqindilarning hosil bo'lishi va olib chiqilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etadigan maxsus jurnal yuritadilar, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limiga hisobot beradilar.

Jamiyatning chiqindilarni boshqarish bo'yicha bo'linmalarining majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- Chiqindilarni boshqarishda ekologik, sanitariya-epidemiologiya va texnologik normalar, atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalari va choralariga rioya qilish.
- Sanoat chiqindilaridan maishiy chiqindilarni alohida yig'ish va saqlashni amalga oshirish.
- Chiqindilarning atrof-muhit va inson salomatligiga zararli ta'sirining oldini oladigan sharoitlarni ta'minlash.
- Chiqindilarning hosil bo'lishi, ularni saqlash, utilitatsiya qilish va tashish bo'yicha yillik hisobotni tayyorlash uchun standart shakldan foydalanish.
- Chiqindilarni yig'ish, saqlash va utilitatsiya qilish to'g'risidagi ma'lumotlarni texnologik reglamentlar va inventar ro'yxatlariga kiritish.
- Chiqindilarni tashishda xavflarni minimallashtirish, yo'qotishlar, avariya, atrof-muhit va insonlar salomatligiga zarar yetishini oldini olish.

“Navoiyazot” AJning xodimlari “Navoiyazot” AJning chiqindilarini yig'ish, vaqtincha saqlash, hisobga olish va olib chiqish bo'yicha yo'riqnomaga amal qiladi. **Unga ko'ra, chiqindilar inson salomatligi va atrof-muhit uchun xavfli darajasiga ko'ra tasniflanadi:**

- **I-xavfli toifa** – eng xavfli;
- **II-xavfli toifa** – yuqori darajada xavfli;
- **III-xavfli toifa** – o'rta darajada xavfli;
- **IV-xavfli toifa** - kamroq xavfli;
- **V-xavfli toifa** - xavfsiz.



Xavfli chiqindilar (I–III toifalar)

72 ta nomda ko'rsatilgan.

“Navoiyazot” AJ xavfli chiqindilarining asosiy toifalariga quyidagilar kiradi:

I-XAVFLILIK TOIFASIGA MANSUB CHIQINDILAR (ENG XAVFLI):

Maxsus uskunada demerkurizatsiya jarayonidan o'tadigan ishlatilgan simob lampalar.

II-XAVFLILIK TOIFASIGA MANSUB CHIQINDILAR (YUQORI DARAJADA XAVFLI):

Ishlatilgan kompressor va dvigatel moyi moyni qayta tiklash bo'limiga yuboriladi. Qayta tiklangach, u ishlab chiqarishga qaytariladi. Qayta tiklab bo'lmaydigan moy shartnoma asosida tashqi tashkilotlar orqali yo'q qilinadi (utilitatsiya qilinadi). Shuningdek, atsetilen ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan qurum ham shu toifaga kiradi va 56-sexga qayta ishlash uchun yuboriladi.

III-XAVFLILIK TOIFASIGA MANSUB CHIQINDILAR (O'RTA DARAJADA XAVFLI):

Tibbiy chiqindilar tuzilgan shartnomalarga muvofiq, yoqib yuborish orqali utilitatsiya qilish uchun olib ketiladi. Iste'molchilarga ega bo'lgan ayrim turdagi chiqindilar keyingi foydalanish uchun uchinchi tomon tashkilotlariga topshiriladi.

“Navoiyazot” AJ qattiq sanoat chiqindilarini saqlash uchun bir qancha poligonlarga ega. Ushbu may-donchalar shamol ta'siridan himoyalangan va zararli moddalarning tuproqqa kirishiga yo'l qo'ymaslik uchun izolyatsion qoplama bilan jihozlangan. Maydonchalarda chiqindilarni saqlash uchun bunkerlar, konteynerlar va bochkalar o'rnatilgan.

Chiqindilar konteynerlari maxsus beton platformalarga joylashtiriladi va bu yerda maishiy va sanoat chiqindilari alohida yig'iladi. Idishlarda chiqindilar turi (“Sanoat chiqindilari uchun” yoki “Maishiy chiqindilar uchun”), sex soni va hajmi ko'rsatiladi. Maxsus utilitatsiyani talab qiladigan xavfliroq chiqindi-lar uchun maxsus konteynerlar nazarda tutiladi. Misol uchun, ishlatilgan simob lampalar har bir sexning maxsus jihozlangan joylarida maxsus qutilarda saqlanadi va demerkurizatsiya qilish uchun “Organik sintez va nitron tolasi” ishlab chiqarishining 201-sonli sexiga o'tkaziladi.

Chiqindilarni, kelib chiqishidan qat'i nazar, yoqish, shuningdek, va ushbu maqsadlar uchun mo'ljallanmagan joylarda saqlash qat'iy man etiladi.

Chiqindilarni tashish yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar, avariya, atrof-muhit va inson salomatligi uchun salbiy oqibatlarni bartaraf etish uchun barcha zarur xavfsizlik choralariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Sex boshqaruvchilarining majburiyatlar:

- haydovchilarga chiqindilarni saqlash joylari haqida ko'rsatma berish;
- haydovchilarni chiqindilarni noto'g'ri poligonlarga tashish uchun intizomiy choralar haqida ogohlantirish;
- chiqindilarni olib chiqish uchun talonlar berish va ularni faqat haydovchida poligondagi navbatchi nazoratchi imzosi bo'lgan talon bo'lgandagina imzolash;
- har chorakda chiqindilarni hosil qilish bo'yicha hisobotlarni taqdim etish.

Simob lampalari kabi xavfliroq chiqindilarni utilitatsiya qilish bo'yicha qo'shimcha ko'rsatmalar nazarda tutilgan.

“Navoiyazot” AJ faoliyati davomida hosil bo'lgan chiqindilar (jumladan, qora va rangli metallar, polipropilen, makulatura, maishiy chiqindilar, moy chiqindilari) tegishli chiqindilar bilan ishlash litsen-ziyasiga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlarga boshqarish uchun topshiriladi.

2024-yil uchun sanoat chiqindilari hosil bo'lish hajmi

GRI 306-3

Sanoat chiqindilarining turlari bo'yicha nomi	2024-yilda chiqindi shakllantirish hajmi, tonna	Shundan 2024-yilda korxonaga chiqindixonasiga olib chiqildi, tonna
1-xavflilik klassi	0,1455	0,1442
2-xavflilik klassi	494,58	69,90
3-xavflilik klassi	831,98	744,19
4-xavflilik klassi	8 599,36	7 290,28
5-xavflilik klassi	4 439,59	460

Turlari bo'yicha hosil bo'lgan chiqindilar, tonna

GRI 306-3, SASB RT-CH-150a.1

Ko'rsatkich	2022*	2023*	2024
Xavfli chiqindilar	6 557,89	2 966,87	1 326,71
Xavfli bo'lmagan chiqindilar	10 796,03	14 975,79	13 038,95
Jami:	17 353,91	17 942,66	14 365,66

Zararsizlantirish va ko'mish uchun yuborilgan chiqindilarning umumiy hajmi, tonna

GRI 306-5


Tashlash joyi	Chiqindilar turlari	2022*	2023*	2024
Korxonada	Xavfli	2 071,50	2 460,34	814,24
	Xavfli bo'lmagan	9 134,82	10 361,64	7 750,28
Maxsus tashkilotlarga topshirish	Xavfli	-	-	-
	Xavfli bo'lmagan	702,40	709,04	851,50
Jami		11 908,72	13 531,02	9 415,02

* 2022 va 2023-yillar uchun ma'lumotlar 2023-yilgi Barqaror rivojlanish to'g'risidagi hisobotda taqdim etilgan ma'lumotlardan chiqindilar tasnifi qayta ko'rib chiqilganligi sababli chiqindilar tarkibi bo'yicha farq qiladi.


Utilizatsiya qilingan chiqindilarning umumiy hajmi, tonna

GRI 306-4, SASB RT-CH-150a.1


Korxonada



Maxsus tashkilotlarga topshirish



Jami



2024-yilda utilizatsiya qilingan chiqindilar hajmi

40% ni tashkil etdi.

Chiqindilarni boshqarish bo'yicha tadbirlar doirasida Jamiyat umumiy qiymati

279 876,42 ming so'mlik

6 ta tabiatni muhofaza qilish tashabbusini amalga oshirdi. Natijada

5 801,14 tonna chiqindi va

13 328 dona simob lampalar utilizatsiya qilindi.

Har yili ishlab chiqiladigan **Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar** rejasi doirasida chiqindilar hosil bo'lishini minimallashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilib, chiqindilarni utilizatsiya qilishning zamonaviy usullari ishlab chiqilmoqda. Ekologik xavflarni kamaytirish uchun ko'rib chiqilayotgan **yo'nalishlardan biri - bu vinilxlorid monomerini ishlab chiqarishda simob o'rniga oltin katalizatoridan foydalanishdir.**



Suv resurslarini boshqarish

GRI 3-3, 303-1, 303-2

Boshqarishga yondashuv

"Navoiyazot" AJ suvdan oqilona foydalanish va suv resurslariga ta'sirini minimallashtirish masalalariga katta e'tibor qaratmoqda.

Jamiyatda Bosh energetik bo'limi suv iste'moli masalalari bilan shug'ullanib, u suv resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etish va nazorat qilishni ta'minlaydi. Oqova suvlarni hisobga olish, shu jumladan, oqova suvlar sifatini nazorat qilish atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish (AMMQ va TROF) bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

Suv resurslaridan texnologik, yong'inga qarshi, maishiy ehtiyojlar, yashil maydonlarni sug'orish va boshqa maqsadlarda, ekologik me'yorlar va normalarga rioya qilgan holda foydalaniladi. "Navoiyazot" AJda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologiyasi suv iste'moli va maishiy, sanoat va sanoat

yomg'ir suvlarining hosil bo'lishi bilan bog'liq ko'p bosqichli kimyoviy reaksiyalar asosida tashkil etilgan. Suv resurslaridan foydalanishni nazorat qilish uchun yetkazib beruvchi bilan chegarada va ustaxonalarda o'lchash moslamalari o'rnatilgan bo'lib, ular suvni olish va sarflash hajmi aniqlash imkonini beradi.

"Navoiyazot" AJ suv ta'minotining asosiy manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: Navoiy shahri "Issiqlik manbai" DUKning suv ta'minoti tarmog'i va Damxo'ja suv quvuri. 2024-yil boshidan boshlab suv ta'minoti Navoiy shahridagi "Issiqlik manbai" DUK bilan tuzilgan shartnoma asosida amalga oshirildi. 2024-yil 1-iyundan suv ta'minoti funksiyalari "Navoiy suv ta'minoti" AJga o'tkazildi.


Oqovanning yo'l qo'yiladigan cheklangan miqdori (OChM) ekologik me'yorlar loyhasiga muvofiq "Navoiyazot" AJda oqova suvlarni tashlashning me'yoriy hisob-kitob ko'rsatkichlari belgilangan.

"Navoiyazot" AJ da 2024-yil uchun me'yoriy va amaldagi suv olish ko'rsatkichlari

Nomi	O'lchov birligi	2024
Suv olish		
Me'yoriy ko'rsatkichlar, shu jumladan:		
Ishlab chiqarish ehtiyojlari	ming m ³ /yiliga	29 903,00
Xo'jalik-maishiy ehtiyojlar	ming m ³ /yiliga	1 849,00
Amaldagi ko'rsatkichlar, shu jumladan:		
Ishlab chiqarish ehtiyojlari	ming m ³ /yiliga	20 230,39
Xo'jalik-maishiy ehtiyojlar	ming m ³ /yiliga	799,10
Sug'orish ehtiyojlari uchun texnik suv	ming m ³ /yiliga	438,21

* 2024-yilda zavodga kelib tushgan 240,116 ming m³ ichimlik suvi uchinchi tomon tashkilotlarga berildi va Jamiyatning operatsion faoliyatida bevosita foydalanilmadi.

"Navoiyazot" AJ suv olish strukturasi foydalanish manbalari va yo'nalishlari bo'yicha



- Damxo'ja suv o'tkazgichidan texnik suv
- Suv ta'minoti tarmog'idan texnik suv
- Sanatoriy-profilaktoriyalar uchun suv tarmog'idan olinadigan ichimlik suvi
- Zavod uchun suv tarmog'idan olinadigan ichimlik suvi

Olinayotgan suvning umumiy hajmi

GRI 303-3




2024-yilda oqova suvlarni chiqarish hajmi:

Ishlab chiqarish oqova suvlari
4 097,85 ming m³/yiliga.
 Maishiy oqova suvlari
746,76 ming m³/yiliga.




Jami oqova suv hajmi, ming m³

GRI 303-4




Oqzilgan suvlarning sifatini ko'rsatgan holda oqova suvlarning umumiy hajmi

GRI 303-4



Qaytarilmaydigan suv iste'moli, ming m³

GRI 303-5



Suvdan oqilona foydalanish va oqova suvlarni tozalash

GRI 303-1, 303-3, RT-CH-140a.1, RT-CH-140a.2, SASB RT-CH-140a.3

“Navoiyazot” AJ suv tanqisligi yuqori bo'lgan hududda (O'zbekiston WRI tasnifiga ko'ra) faoliyat yuritadi, biroq suvni tabiiy manbalardan to'g'ridan-to'g'ri olishni amalga oshirmaydi. Asosiy suv ta'minoti markazlashgan tarmoqlar orqali amalga oshirilib, Jamiyat atrof-muhitni boshqarish doirasida suv sarfini kamaytirish va suv samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Jamiyat atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha yillik choralar rejasining bir qismi bo'lgan suv resurslariga ta'sirni kamaytirish bo'yicha tashabbuslarni amalga oshiradi, shu jumladan:



- Suv samaradorligini oshirish, suvni qayta ishlash va sovutish minoralarini modernizatsiya qilish orqali mahsulot birligiga suv sarfini kamaytirish;
- Sanoat hududlarining yomg'ir oqova suvlari oqimini tozalash inshootlariga yo'naltirish;
- Yashil maydonlar va fermer xo'jaliklari dalalarini sug'orish uchun tozalangan suvdan qayta foydalanish;
- Resurslarni oqilona boshqarish uchun suv olish va suv iste'molini monitoring qilish;
- Atrof-muhit holatini baholash va ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun oqzilgan va tabiiy suvlarni sifatini doimiy monitoring qilish.

2024-yilda “Navoiyazot” AJ tomonidan suv resurslarini muhofaza qilish bo'yicha

332,7 mln so'mdan ortiq miqdorga

9 ta loyiha amalga oshirildi.

Ko'rilgan chora-tadbirlar orasida zavod tashqarisida

100 mln so'mga

60 metr neytrallangan oqova suv quvuri almashtirildi.

Ma'lumotlar BRH 2023 ko'rsatkichlaridan farq qiladi: ilgari tashlamalarning umumiy hajmiga shahar oqova suvlari ham kiritilgan bo'lsa, qayta hisob-kitobdan so'ng hajm 18,25 % ga kamaydi.

Atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish uchun korxonada o'zining tozalash inshootlari va oqova suvlarni biokimyoviy tozalash (keyingi o'rinlarda - BKT) inshooti ishlaydi.

Moylar regeneratsiyasi bo'limidan, TYS va ATS sexlaridan chiqadigan neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqova suvlar cho'ktirgichlarga yo'naltiriladi, u yerda suv va neft mahsulotlarining zichligidagi farq tufayli qatlamlanish ro'y beradi.

Tozalangan suv keyingi biokimyoviy tozalash uchun xo'jalik kanalizatsiya tizimiga yuboriladi, neft esa mahsulotlari regeneratsiya uchun to'planadi.

BKT jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mexanik tozalash (qum tutqichlari va cho'ktirgichlar),
- biologik tozalash (aerotenklar va ikkilamchi cho'ktirgichlar),
- xlrlash uskunasi zararsizlantirish.

Tozalangan oqova suvlar tozalangan oqova suvlar kamerasiga kelib tushadi, u yerdan bir qismi tizimga qaytadi yoki butunlay to'kib yuboriladi.

Jamiyatning muhim tashabbuslaridan biri oqova suvlarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'ldi. **Ilgari korxonada chiqindi suv Zarafshon daryosiga oqizilgan:**

- **1-oqizish** - tozalashsiz oqizilgan sanoat yomg'ir suvi.
- **2-oqizish** - tozalash inshootlaridan so'ng tozalangan oqova suvlar.

2023-yil may oyidan boshlab sanoat va yomg'ir oqova suvlari BKT inshootlariga o'tkazildi (56-sonli sex). Bu tozalanmagan oqova suvlarni tabiiy suv havzalariga oqizishni bartaraf etish va natijada atrof-muhitga zararni sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi.

BKTda ko'p bosqichli tozalashdan so'ng oqova suvlar Zarafshon daryosiga emas, balki Kasaba-Do'rman sug'orish kanaliga to'kiladi. Bu suv qishloq xo'jaligi dalalarini sug'orishda foydalaniladi, bu esa viloyatdagi fermer xo'jaliklarining sharoitini yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu jarayon doirasida korxonada suv ta'minoti korxonalar bilan hamkorlikda sug'orish maqsadlarida qayta foydalanish maqsadida suvni to'kishni tashkil etadi, bu suv resurslaridan samarali foydalanish va me'yoriy talablariga rioya etilishini ta'minlaydi. Shuningdek, tozalangan suvdan "Navoiyazot" AJ hududidagi yashil maydonlarni sug'orish uchun foydalaniladi, bu esa ekologik muvozanatni saqlashga va ishlab chiqarish hududini ko'klamzorlashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu tashabbus **Jamiyatning suv resurslarini boshqarish sohasidagi** mas'uliyatini namoyish etadi, chunki u nafaqat atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimallashtiradi, balki aylanma iqtisodiyot tamoyillarini **qo'llab-quvvatlagan holda ulardan qayta foydalanishni ta'minlaydi.**



Korxonada suv resurslariga ta'sirini doimiy ravishda instrumental nazorat qiladi. Monitoring sanitariya laboratoriyasi tomonidan "OChM me'yorlariga rioya etilishini nazorat qilish rejajadvali"ga muvofiq amalga oshiriladi va oqova suvlarning sifatini, shuningdek, BKTlar va mahalliy tozalash inshootlarining samaradorligini baholashni o'z ichiga oladi. Baholash tasdiqlangan tahlil usullaridan foydalangan holda butun ishlab chiqarish sikli davomida doimiy ravishda amalga oshiriladi.

2024-yilda "Navoiyazot" AJda oqova suvlarni atrof-muhitga oqizish bo'yicha me'yoriy talablarga rioya qilmaslik holatlari qayd etilmadi. Jamiyat barcha atrof-muhit qoidalariga qat'iy rioya qiladi va oqova suvlar sifatini muntazam ravishda kuzatib boradi, bu tartibga soluvchi organlar tomonidan ja-rimalar, sanksiyalar yoki boshqa ta'sir choralari qo'llanilishini oldini olish imkonini berdi.

Mahsulot sifati va xavfsizligi

SASB RT-CH-410b.1

"Navoiyazot" AJ tomonidan hisobot davrida sotilgan mahsulotlar ro'yxatining Kimyoviy moddalarni tasniflash va markirovka qilishning global kelishilgan tizimi (GHS) tamoyillari asosida inson salomatligi va atrof-muhit uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar nuqtai nazaridan ichki dastlabki baholadi. Tahlil natijalariga ko'ra, hisobot davridagi umumiy daromadning qariyb 56 % GHS (sog'liq va atrof-muhit uchun yuqori xavf darajasi) bo'yicha 1-toifa yoki 2-toifa deb tasniflanishi mumkin bo'lgan moddalarni o'z ichiga olgan mahsulotlarga, shu jumladan ammiakli selitra, ammiak va nitrat kislotasi kabi mahsulotlarga to'g'ri kelishi aniqlandi.

"Navoiyazot" AJ markalash tizimida rasmiy GHS tasnifidan foydalanmaydi, biroq, u milliy talablarga muvofiq, ishlab chiqaradigan mahsulotlari uchun xavfsizlik pasportlarining mavjudligini ta'minlaydi. Ushbu hujjatlarda moddaning tarkibi, uning fizik-kimyoviy xossalari, sog'liq va atrof-muhit uchun ehtimoliy xavflari, ta'sir qilish belgilari, birinchi yordam choralari, favqulodda vaziyatlarda harakatlar, saqlash, tashish va utilitatsiya qilish sharoitlari, shuningdek, foydalanuvchilar



xavfsizligi ta'minlash choralari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, qadoqlashni tanlash bo'yicha tavsiyalar, moddaning barqarorligi, toksikologik xususiyatlari va me'yoriy hujjatlarga havolalar ko'rsatiladi. Pasportlar muntazam ravishda yangilanadi va ular bilan barcha manfaatdor tomonlar tanishishi mumkin.

Bundan tashqari, korxonada "Navoiyazotda qo'llaniladigan zararli moddalar bo'yicha yo'riqnoma" amal qilib, ishlab chiqarish jarayonlarida ishlatiladigan toksik, portlovchi va agressiv moddalar bilan xavfsiz ishlashni tartibga soladi. Hujjat moddalarni saqlash, foydalanish, shaxsiy himoya, favqulodda vaziyatlarda harakatlar va utilitatsiya qilish talablarini qamrab oladi, mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarish tizimining bir qismi bo'lib hisoblanadi.

"Navoiyazot" AJ kimyoviy moddalar boshqaruviga kompleks tarzda yondashadi - bu xavflarni kamaytirishga va mahsulotlar hayot siklining barcha bosqichlarida ularga xavfsiz munosabatda bo'lishni ta'minlashga qaratilgan.

2024-yil hisobot davrida ishlab chiqarish majmuasi korxonalarida ekologik va sanoat xavfsizligi, energiya samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan asosiy texnik chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Asosiy tadbirlar orasida:

- server va ishlab chiqarish binolarida avtomatik yong'inga qarshi tizimlar yangilandi, bu xodimlar va uskunalarining xavfsizligini oshirdi;
- eskirgan daraja o'lchagichlari texnologik jarayonlarning aniqligi va ishonchligini oshiradigan zamonaviy bosim va darajani nazorat qilish tizimlari bilan almashtirildi;
- isitish va bug' ishlab chiqaruvchi qurilmalarga qaytarish uchun suv bug'ining kondensatidan oqilona foydalanish tashkil etildi, bu esa energiya sarfini kamaytirdi;
- avval chiqarib yuborilgan azotdan ammiak ishlab chiqarish uchun foydalanildi, bu resurs samaradorligini oshirdi va ekologik ta'sirni kamaytirdi;
- ortiqcha sintez-gaz yordamchi bug' qozonlariga yo'naltirildi, bu esa yon mahsulotlardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Amalga oshirilgan tadbirlar chiqindilarni kamaytirishga, energiya resurslaridan oqilona foydalanishga va sanoat va ekologik xavfsizlikni oshirishga yordam berdi.

Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi

- 68 MMQ va SX masalalarini boshqarishga yondashuv
- 69 Xavfsizlik madaniyatini oshirish va mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik masalalari bo'yicha o'qitish
- 70 Jarohatlanishning oldini olish
- 72 Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik



MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA SANOAT XAVFSIZLIGI

MMQ va SX masalalarini boshqarishga yondashuv

GRI 3-3, 403-1, 403-2, 403-3, 403-4, 403-6, 403-8, SASB RT-CH-410b.2

"Navoiyazot" AJning ma'suliyatli ish beruvchi sifatidagi asosiy maqsadi xavfsiz mehnat muhitini yaratish va ta'minlash, jarohatlanish ko'rsatkichini nolga tushirish va xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishdan iborat. Jamiyat faol choralar, yagona xavfsizlik tizimini shakllantirish va xodimlarning malakasini oshirishga e'tibor qaratgan holda xodimlar va pudratchilar o'rtasida ushbu madaniyatni rivojlantirishga intilmoqda. Mehnat sharoitlarini nazorat qilish, kasbiy xavflarni baholash va kasbiy kasalliklar hisobini yuritish Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi (MMQ va XT) bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini nazorat qilish ishlab chiqarish nazorati boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.



Korxonaning mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi "Navoiyazot" AJda tekshiruvlarni tashkil etish va o'tkazish, shuningdek, sanoat va ekologik xavfsizlik va mehnatni muhofaza qilish holatini nazorat qilish uchun yagona va kafolatlangan talablarni belgilaydi. Ushbu hujjat quyidagilarga muvofiq, ishlab chiqilgan:

- O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni;
- GOST 12.0.230-2007 "Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi" davlatlararo standarti;
- O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 28-sentabrdagi O'RQ-57-sonli "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 27.12.2013-yildagi O'RQ-363-sonli "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonuni.
- 1996-yil 14-avgustdagi 273-sonli Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ishlarni tashkil etish to'g'risidagi namunaviy nizom;
- STX 13-58-09 xavfli ishlab chiqarish obyektlarida ishlab chiqarish nazoratini tashkil etish va amalga oshirish qoidalari.
- ISO 45001 "Sog'liqni himoya qilish va mehnat xavfsizligini boshqarish tizimlari" xalqaro standarti. qo'llash bo'yicha talablar va tavsiyalar".

Ushbu tizim "Navoiyazot" AJning mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, sanoat va ekologik xavfsizlik sohasidagi barcha faoliyatiga taalluqlidir.



Kimyo sanoatida ishlash bir qator xavflar bilan bog'liq bo'lib, bunday xavflar xavfsizlik va mehnat muhofazasiga alohida e'tibor berishni talab qiladi. Milliy qonunchilikka muvofiq, Jamiyatning barcha xodimlari ular tomonidan mehnat majburiyatlarini bajarish chog'ida ularning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qilinadi. Mazkur sug'urta bo'yicha summa

1,15 mlrd so'mni

tashkil etadi va mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo'yicha boshqa chora-tadbirlarga yo'naltirilgan jami

14,4 mlrd so'mga kiritilgan.

Kimyoviy moddalar, yuqori haroratli uskunalar bilan ishlash, shuningdek, tabiiy va fizik omillarning ta'siri xodimlarning sog'lig'iga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan sharoitlarni yaratadi. Shu munosabat bilan Jamiyat ushbu omillarning ta'sirini kamaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda: harorat rejimlarini, havo sifatini, balandlikda xavfsizlikni nazorat qilish va tabiiy xavflardan himoya qilish. Xavf-xatarlarni minimallashtirishga qaratilgan puxta o'ylangan va faol chora-tadbirlar orqali "Navoiyazot" AJ xavfsiz ish muhitini yaratish va xodimlar salomatligi haqida g'amxo'rlikni ta'minlashga intiladi, shu orqali ish joyining barqaror va ishonchli ekaniga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Jamiyat mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi bilan bog'liq tadbirlarni 06.06.2023-yildagi Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi to'g'risidagi nizomga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.05.2020 yildagi 291-sonli qarori bilan tasdiqlangan Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan ishlab chiqarish nazoratini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq, amalga oshiradi. Shuningdek, Jamiyat vakolatli davlat organi - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari bilan hamkorlik qiladi. O'zaro munosabatlar korxonaning ishlab chiqarish nazorati boshqarmasi boshlig'i orqali amalga oshiriladi.

Xavfli obyektlarda sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan sanoat nazorati korxonada sanoat xavfsizligini boshqarish tizimining eng muhim elementidir. U turli darajadagi rahbarlar va vakolatli organlar tomonidan aniqlangan sanoat xavfsizligi talablariga rioya qilmaslikni bartaraf etish choralarini ishlab chiqish va amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Sanoat xavfsizligini nazorat qilish tizimi xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi bo'yicha qonun hujjatlari, normativ hujjatlar va idoraviy hujjatlar talablariga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv organlari va korxonalar resurslari majmuini o'z ichiga oladi.

Ish bilan bog'liq va sog'lig'ining yomonlashuvi ehtimolini yuzaga keltiradigan xavflar xavflarni aniqlash, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xavflarni baholash bo'yicha ko'rsatmalarga va "UBT-STT-02" xavf va xatarlarni aniqlash tartibiga muvofiq, aniqlanadi. Xavf va xatarlarni aniqlash natijalari "xatarlarni aniqlash va xavfni baholash kartalari"ga kiritiladi.

Xavflarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

Kimyoviy moddalar va uskunalar bilan ishlashda xavflar.



Sulfat kislotasi, ishqor eritmalar va zaharli moddalar kabi suyuq kimyoviy moddalar bilan ishlash kimyoviy kuyish, ko'zning shikastlanishi, zaharlanish va nafas olish organlarining shikastlanishi xavfini keltirib chiqaradi. Uskunalar yuzasida yuqori harorat terining kuyishiga olib kelishi mumkin va bosim ostida himoya qoplamining buzilishi zaharli gaz bilan zaharlanishga olib kelishi mumkin. Shuningdek past va yuqori havo harorati, chang, kuchli jismoniy faoliyat va psixo-emotsional taranglik ishchanlikni pasaytiradi va sog'liq uchun xavf tug'diradi.

Tabiiy va texnologik xavflar.



Tabiiy xavflarga seysmik faollik, bo'ronlar va kuchli shamollar kiradi. Ish joyidagi xavf-xatarlarga elektr yo'ylari ta'siri, tekis bo'lmagan sirtlar, balandlikda ishlash, yetarli bo'lmagan yorug'lik va shovqin kiradi. Xavflar manbasi bo'lib og'ir yuklar, zarba va kesish asboblari, uskunalar yuqori harorati, avtomobil harakati va virusli infeksiyalari hisoblanadi.

Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik doirasida "Navoiyazot" AJ faoliyati ISO 45001:2018 " Sog'liqni saqlash va xavfsiz mehnatni ta'minlash boshqaruv tizimi. "standarti talablariga rioya qilishga asoslanadi, va bundan tashqari Jamiyat tomonidan quyidagi asosiy vazifalar belgilangan:

- O'zbekiston Respublikasi qonunlarida va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini nazorat qilish;
- korxonada mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik holatini tahlil qilish, shu jumladan, tegishli tekshiruvlar va ekspertizalarni tashkil etish;
- mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik holatini yaxshilashga va atrof-muhitga zarar yetkazilishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish.



Hisobot davrida Jamoa shartnomasining MMQ va XT bo'limi bo'yicha

63 ta tadbir

rejalashtirilgan bo'lib, ularning barchasi to'liq bajarildi. Jami moliyalashtirish hajmi

60,8 mlrd so'mni

tashkil etdi. Ushbu tadbirlar nafaqat MMQ va XT bo'yicha tarkibiy bo'linma bilan bog'liq yo'nalishlarni qamrab oldi, balki ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlarga ham tegishli bo'ldi. 2024-yilda mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo'limi bo'yicha faqat sex va ishlab chiqarish bo'linmalariga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirishga sarflangan mablag'lar hajmi

47,3 mlrd so'mni tashkil etdi.



Tadbirlarning asosiy yo'nalishlari xodimlarni shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash, tibbiy-profilaktik ovqatlanishni tashkil etish, profilaktika va sanitariya-gigiyena tadbirlarini amalga oshirish, shuningdek, mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha rejalashtirilgan nomenklatura vazifalarini bajarishni o'z ichiga olgan. Ulardan:



- **148 mln so'm** - 32 ta nomenklatura tadbirlarini amalga oshirish uchun;
- **24,8 mlrd so'm** - sut, sut mahsulotlari va davolash-profilaktika oziq-ovqatlarini xarid qilish uchun;
- **7,9 mlrd so'm** - xodimlarni maxsus kiyim, maxsus poyabzal, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta'minlash uchun;
- Boshqa tadbirlar uchun **14,4 mlrd so'm** - bu har bir xodim uchun o'rtacha 5,6 mln so'mni tashkil etadi.

5 150 nafar xodim "Navoiyazot" AJning tibbiy-sanitariya qismida tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

Xavfsizlik madaniyatini oshirish hamda mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizlik masalalari bo'yicha o'qitish

GRI 403-5, 403-7

Xavfsizlik madaniyatini oshirish Jamiyatning baxtsiz hodisalarning tarqalishini oldini olish va bartaraf etishga tayyorligidan kam bo'lmagan ahamiyatga ega bo'lib, bu jarohatlar ko'rsatkichlarini minimallashtirish imkonini beradi. Shu munosabat bilan **"Navoiyazot" AJ** o'z xodimlari o'rtasida xavfsizlik madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks siyosatni amalga oshirmoqda. Tan jarohatlar bo'yicha ma'lumotlar monitoring qilinmoqda va ish joyidagi

xavfsizlikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi bo'yicha ichki va tashqi baholashlar, foydalaniladigan asbob-uskunalar muntazam sinovdan o'tkazish va ekspertizalar amalga oshiriladi. Voqea sodir bo'lgan taqdirda batafsil tekshiruv o'tkaziladi, uning natijalariga ko'ra rahbariyat shunga o'xshash hodisalarning oldini olish bo'yicha tavsiyalar bilan hisobot oladi. O'tgan yilda sodir bo'lgan noxush hodisalarning takrorlanish xavfini minimallashtirish maqsadida 2024-yilda Jamiyatda mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasida nazoratni kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Doimiy faoliyat yurituvchi texnik komissiya va markaziy yong'in-texnik komissiya tomonidan korxonada sexlari va ishlab chiqarish bo'linmalarida maqsadli, rejadan tashqari va kompleks tekshirishlar o'tkazildi. Tekshiruv natijalariga ko'ra aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq muddatlar ko'rsatilgan dalolatnoma-ko'rsatmalar rasmiylashtirildi. 2024-yilda ishlab chiqarishdagi tan jarohatlar darajasining pasayishi amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligidan dalolat beradi va Jamiyatning xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash tamoyillariga sodiqligini tasdiqlaydi.

"Navoiyazot" AJ korxonasida xavfsizlik texnikasi talablari, me'yorlar, nazorat qiluvchi organlarning ko'rsatmalari va buyruqlariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida to'rt bosqichli nazorat tizimi joriy etildi. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha tasdiqlangan rejaga muvofiq, 2024-yilda quyidagilar amalga oshirildi:

- **153 ta maqsadli** tekshiruvlar o'tkazildi, ularning natijalariga bo'yicha **1 320 ta choratadbir belgilandi;**
- **47 ta rejadan** tashqari tekshiruvlar - **599 ta tadbir;**
- **12 ta kompleks tekshiruv** - **596 ta tadbir;**
- Doimiy texnik komissiyaning **4 ta tekshiruvi** - **115 ta tadbir;**
- Markaziy yong'inga qarshi texnik komissiyasining **4 ta tekshiruvi** - **105 ta tadbir.**

Yangi ishga olingan xodimlar mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik masalalari bo'yicha treningdan o'tadilar.

* 2024-yilgi ma'lumotlarda "Navoiyazot" AJning Tibbiy-sanitariya qismi korxonada tarkibiga kirganligi va ko'rsatilgan xizmatlar bepul taqdim etilayotgani sababli tibbiy xizmatlar, shu jumladan, tibbiy va profilaktik tekshiruvlar xarajatlari miqdori oshkor etilmaydi. Oldingi davrlar uchun ushbu xarajatlar bo'yicha ma'lumotlarni tiklash va qayta hisoblashning iloji yo'q. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda 2025-yildan boshlab xarajatlar tasnifiga tibbiy xizmatlar va profilaktik ko'riklarni kiritilish maqsadida o'zgartirish kiritish ko'zda tutilmoqda, bu tegishli ma'lumotlarni keyingi hisobotlarda oshkor qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik masalalari bo'yicha kasbiy tayyorgarlik

GRI 403-5

Ko'rsatkich	2022	2023	2024
Bir xodimga (o'z xodimlari) to'g'ri keladigan mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik bo'yicha o'qitishning o'rtacha soatlar soni, soatlar	16	16	15
Ishda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik bo'yicha o'qishda qatnashgan xodimlar soni (o'z xodimlari), shaxslar	714	680	647



Hisobot davrida

647 kishi ish

joyida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik masalalari bo'yicha o'qitildi, har bir xodimga o'rtacha

15 soatlik ta'lim to'g'ri keldi.

Xavfsizlik madaniyati asoslari ham yangi, ham mavjud xodimlarga yetkaziladi. Korxonada muntazam ravishda har oyda bir marta "Mehnatni muhofaza qilish kuni" o'tkazilib, unda ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish ishlari tashkil etiladi. Qo'shimcha tarzda, mehnatni muhofaza qilish masalalari rejadan tashqari ko'rsatmalar berishda va tekshiruvlar paytida ko'rib chiqiladi.

Jamiyatda xodimlarning 100 % ish joylarida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish tizimi bilan qamrab olingan. Shuningdek, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish tizimiga kiritilgan, ichki audit tartib-tamoyillaridan o'tgan xodimlar sonining ijobiy dinamikasi kuzatilmoqda – ularning soni ikki baravar ko'paydi.

Ish joyida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish tizimi bilan qamrab olingan xodimlar soni, shaxslar.

GRI 403-8

Ko'rsatkich	2022	2023	2024
Jamiyatning mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligini boshqarish tizimi bilan qamrab olingan odamlar soni.	8 761	8 611	8 494
Jamiyatning ichki va tashqi audit jarayonlaridan o'tgan mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish tizimi bilan qamrab olingan shaxslar soni.	8 761	8 611	8 494
Mustaqil uchinchi tomon auditi/ sertifikatidan o'tgan Jamiyatning mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarish tizimi bilan qamrab olingan odamlar soni.	8 761	8 611	8 494

Barcha xodimlar "O'zkiyosanoat" AJ tarkibidagi korxonada va tashkilotlar xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi bo'yicha o'qitish va bilimlarini sinovdan o'tkazishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq, yo'l-yo'riqdan o'tadilar. Instruktaj mehnatni muhofaza qilish bo'yicha muhandis yoki xavfsizlik masalalari uchun mas'ul bo'lgan vakolatli xodim tomonidan o'tkaziladi. Instruktaj quyidagi turlarga bo'linadi:

- kirish yo'l-yo'rig'i;
- dastlabki yo'l-yo'riq;
- takroriy yo'l-yo'riq;
- navbatdan tashqari yo'l-yo'riq;
- maqsadli yo'l-yo'riq.

Maxsus jihozlangan xonada o'tkaziladigan instruktaj dasturi quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

- Jamiyatning umumiy maqsadlari va faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari;
- mehnat qonunchiligi va uning asosiy qoidalari;
- jamoa shartnomasi va mehnatni muhofaza qilish shartnomalari;
- ish joyida ishni xavfsiz bajarish qoidalari;
- baxtsiz hodisalarning asosiy sabablari va ehtiyot choralari;
- yong'in xavfsizligi qoidalari;
- maxsus kiyim va shaxsiy himoya vositalarini berish va ulardan foydalanish tartibi;
- birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;
- baxtsiz hodisa haqida xabar berish tartibi;
- va kimyo sanoatining boshqa dolzarb masalalari.

Yo'l-yo'riq tugagandan so'ng, xodim hisob jurnalida ro'yxatdan o'tadi va xavfsizlik bo'yicha ko'rsatmalar varaqasini oladi.

Kimyo sanoatida boshqa lavozimlarga o'tkazilgan yangi xodimlar va ishchilar uchun xavfsizlik texnikasi qoidalari, ish tartibi, mehnat qonunchiligining asosiy qoidalari, ishda o'zini tutish qoidalari va potensial xavflar bilan tanishish majburiydir. Kimyoviy moddalar va asbob-uskunalar bilan ishlaydigan barcha muhandislar har uch yilda bir marta kimyoviy moddalarni xavfsiz qo'llash bo'yicha imtihonidan, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar esa har yili imtihondan o'tadilar.

Jarohatlanishning oldini olish

GRI 403-7, 403-9, 403-10, SASB RT-CH-320a.2, RT-CH-540a.1, RT-CH-540a.2

Ishlab chiqarishdagi jarohatlanishning oldini olish maqsadida Jamiyat har yili oldingi yillardagi baxtsiz hodisalarni tahlil qilish asosida mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tuzadi. Ushbu rejani amalga oshirish doirasida har oyda sexlarda xavfsizlikni nazorat qilish bosqichlariga muvofiq, tekshiruvlar o'tkaziladi. **Hisobot davrida "Navoiyazot" AJ sexlarida tekshirish o'tkazilib, natijada**



308 ta qonunbuzarlik holatlari aniqlandi.

Aniqlangan barcha qonunbuzarliklar belgilangan muddatlarda bartaraf etildi. Shuningdek, kompleks tekshiruvlar o'tkazilib,

596 ta qoidabuzarliklar aniqlanib, belgilangan muddatlarda bartaraf etildi.

Bundan tashqari, barcha ish joylarida xavfsiz muhitni yaratadigan va ijtimoiy xizmatlarni ta'minlaydigan mehnat sharoitlari bo'yicha normativ talablar o'rnatilgan. Ish joylarini davriy attestatsiyadan o'tkazish har besh yilda bir marta o'tkaziladi va uning natijalariga ko'ra mehnat sharoitlari qulay yoki noqulay ekanligi aniqlanadi. **Hisobot davrida 831 ta ish o'rni attestatsiyadan o'tkazildi. Attestatsiya natijalariga ko'ra:**

- Har oyda o'rtacha **2 677 nafar** ishchiga davolash va profilaktik ovqatlanish (DPO) huquqi berildi;
- Har oyda o'rtacha **2 755 ishchi** sut talonlari bilan ta'minlandi;
- **4 276 nafar** xodim O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 12-maydagi 250-sonli qaroriga muvofiq, imtiyozli shartlarda pensiyani muddatidan oldin tayinlash huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxatiga kiritilgan.

Jamiyatda tan jarohatlar, asbob-uskunalarining nosozliklari, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik qoidalari buzish holatlari, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar to'g'risida ma'lumot berish tizimi yo'lga qo'yilgan. **Kelib tushgan murojaatlar maxsus tashkil etilgan komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi.**

Shu jumladan, hisobot davrida **Komissiyaga xodimlardan mehnatni muhofaza qilish sharoitlarini yaxshilash masalalari** bo'yicha murojaatlar kelib tushmadi va shu sababli ularni amalga oshirish choralarini ko'rilmasdi.

Qayd etish lozimki, 2024-yilda Jamiyatda ishlab chiqarishdagi tan jarohatlar bilan bog'liq o'lim holatlari qayd etilmadi. Hisobot davrida 4 ta ishlab chiqarish bilan bog'liq tan jarohat etishi holati qayd etilgan bo'lib, ularning barchasi og'ir jarohatlar deb tasniflangan va 3, 909, 919 va 701-sonli ustaxonalarda sodir bo'lgan. Baxtsiz hodisalarning asosiy sabablari xavfsizlik texnikasi qoidalarini buzish va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish talablariga rioya qilmaslik bo'ldi.



2024-yilda hodisaning umumiy ro'yxatga olingan darajasi (TRIR)

0,06 ni tashkil etdi, bu sanoat xavflarini boshqarish tizimining barqaror ishlashidan dalolat beradi.



Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar soni

GRI 403-9, SASB RT-CH-320a.1

Ko'rsatkich	2022	2023	2024
Ro'yxatga olingan ishlab chiqarish tan jarohatlarining umumiy soni, ulardan:	4	4	4
O'limga olib kelgan baxtsiz hodisalar	0	0	0
Og'ir jarohatlar	2	3	3
Yengil jarohatlar	2	1	1
Ishlangan odam-soat soni	13 055 284	12 805 497	12 766 174
Vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq tan jarohatlar soni (ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq baxtsiz hodisalarda jabrlanganlar va halok bo'lganlarning umumiy soni)	4	4	3
Ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq o'lim holatlari koeffitsienti (FAR)*	0	0	0
Og'ir jarohatlar takrorlanishi koeffitsienti*	0,03	0,04	0,04
Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlikga olib keladigan tan jarohatlar takrorlanishi koeffitsienti (LTIFR)*	0,06	0,06	0,06
Ishlab chiqarishda qayd etilgan barcha baxtsiz hodisalar (tan jarohatlar) takrorlanishi koeffitsienti (TRIR)*	0,06	0,06	0,06

* Hisoblash 200 000 ishlagan soatga ko'paytirishni hisobga olgan holda amalga oshirildi.



Sanoat xavfsizligi bilan bog'liq hodisalar

SASB RT-CH-540a.1

Ko'rsatkich	2022	2023	2024
Sanoat xavfsizligi bilan bog'liq hodisalar soni (PSIC)	4	4	4
Sanoat xavfsizligi hodisalarining umumiy koeffitsienti (PSTIR)*	0,06	0,06	0,06
Sanoat xavfsizligi bilan bog'liq holatlarining jiddiylik koeffitsienti (PSISR)*	0,15	0,16	0,14
API RP 754 ¹ jadvaliga muvofiq tayinlangan barcha 1-darajali hodisalarining umumiy jiddiylik balli (Total Severity Score)	10	10	9

Har bir hodisa uchun komissiya tuziladi, uning tarkibiga "Navoiyazot" AJ, "O'zkiyosanoat" AJ va sug'urta Kompaniyasi rahbariyati vakillari kiradi. To'rtta hodisani o'rganish yakunlari bo'yicha komissiya ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlarning takrorlanishini oldini olish va ularning oqibatlarini minimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqdi. Amalga oshirilgan choratadbirlar sirasida texnik, tashkiliy va ma'rifiy kabi tadbirlar nazarda tutilgan:

- Mehnatni muhofaza bo'yicha muntazam ravishda yo'riqlar berish, xodimlarni xavfsizlik qoidalariga, shaxsiy himoya vositalaridan (ShHV) to'g'ri foydalanishga va favqulodda vaziyatlarda qilinadigan harakatlarga o'rgatish.
- Xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya etilishini va ShHVdan foydalanishni tizimli tekshirishni tashkil etish, buzilishlarni aniqlash va o'z vaqtida bartaraf etish.
- Ishchilarni xavfsizlik talablariga javob beradigan zarur shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash va ulardan foydalanishni nazorat qilish.
- Har bir baxtsiz hodisani sinchkovlik bilan tekshirish, uning sabablarini aniqlash va kelajakda ularning oldini olish bo'yicha choralar ishlab chiqish.
- Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi qoidalarini buzgan xodimlarga intizomiy jazo choralarini qo'llash, shu jumladan ish haqidan ushlab qolish va jarimalar qo'llash.
- Ishchilarni ish joyidagi potensial xavflar, xatarlar va ularning oldini olish usullari to'g'risida xabardor qilish.

Tan jarohatlarning oldini olishning muhim vositasi xavflarni o'z vaqtida aniqlash va baholash bo'lib, quyidagi bosqichlarga rioya etishni nazarda tutadi:

- Sex tomonidan ishchi guruh tuzish to'g'risida buyruq chiqarishi.
- Shtat jadvaliga muvofiq, ish joyini aniqlash.
- Xavfni aniqlashni amalga oshirish.
- Ish joyi bilan bog'liq xavflarni aniqlash.
- Xavf va tahdidlarni aniqlash xaritasini yaratish.
- Ish joyidagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarning ahamiyatini baholash.
- Jiddiy xavf va tahdidlar ro'yxatini shakllantirish.
- Jiddiy xavflarni kamaytirish bo'yicha yillik chora-tadbirlar ishlab chiqish.
- Qoldiq jiddiy xavflarning yillik tahlilini amalga oshirish.

Kasbiy kasalliklarga chalingani borasida shubha qilingan ishchilar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2012-yil 10-iyuldagi 200-sonli buyrug'iga asosan Sanitariya gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy tadqiqot institutiga yuboriladi. Yo'llanma sanitariya shifokorining xulosasi va tegishli qo'shimcha hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Tasdiqlangan kasbiy kasalliklarga chalingan xodimlarni hisobga olish korxonada darajasida amalga oshiriladi. Kasalliklar ro'yxati, ularni tashxislash va ro'yxatga olish tartibi Sog'liqni saqlash vazirligining me'yoriy hujjatlari bilan tartibga solinadi.

* Hisoblash 200 000 ishlagan soatga ko'paytirishni hisobga olgan holda amalga oshirildi.

Manba: Process Safety Performance Indicators for the Refining and Petrochemical Industries. AN-SI/API recommended practice, 2021.



2024-yil davomida

15 nafar

xodim kasbiy kasalliklar bo'yicha hisobga turdi. Kasbiy kasalliklar bilan bog'liq o'lim holatlari qayd etilmagan.

Asosiy tashxis qo'yilgan kasalliklar kimyo sanoatiga xos bo'lgan zararli ishlab chiqarish omillarining ta'siri bilan bog'liq. Eng ko'p hollarda quyidagi holatlar aniqlandi:

- Surunkali qo'rg'oshin intoksikatsiyasi;
- Bronxial astma;
- Surunkali yuz dermatiti;
- Surunkali obstruktiv va aralash bronxit;
- Surunkali lumbosakral radikulopatiya.

Tashkilot mehnat sharoitlari sanoat monitoringini va tibbiy ko'riklarni amalga oshiradi, shuningdek, zararli omillar ta'sirini kamaytirish, shu jumladan, ShHVni yaxshilash va xodimlarni xavflar haqida xabardor qilish bo'yicha choratadbirlarni amalga oshiradi.



Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik

"Navoiyazot" AJning faoliyati nafaqat yuzaga kelishi mumkin bo'lgan avariyaning oldini olishga, balki ularni tez va samarali bartaraf etishga tayyor turishga qaratilgan. Jamiyatda favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish choratadbirlarini tartibga soluvchi asosiy ichki me'yoriy hujjat bo'lib Navoiy viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan kelishilgan Tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha "Navoiyazot" AJ choratadbirlar rejasini hisoblanadi.

"Navoiyazot" AJning favqulodda vaziyatlarda chora qilish tizimi o'zida tashkiliy tuzilmalarni va texnologik yechimlarni mujassam etgan bir qancha asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi. Tuzilmada quyidagilar yaratilgan:

- Favqulodda vaziyatlarda chora ko'rish bo'yicha shtab – barcha jarayonlarni tezkorlik bilan boshqaradi, Jamiyatning yuqori tayyorgarlik xizmatlari va bo'linmalari harakatlarini muvofiqlashtiradi.
- Dispetcherlik xizmatlari - favqulodda vaziyatlar to'g'risida ogohlantirishni amalga oshiradi va kechayukunduz uzluksiz kuzatuv olib boradi.
- Favqulodda qutqaruv guruhlari - baxtsiz hodisalar yuz berganda qutqaruv va tugatish ishlarini olib boradi.
- Tibbiyot-sanitariya bo'limi - jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatadi.
- Jamoat tartibini muhofaza qilish xizmati - xodimlarni xavfsiz joyga evakuatsiya qilishni ta'minlaydi.

Favqulodda vaziyatlarning har bir yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turi uchun batafsil harakatlar rejalari ishlab chiqilgan. Ushbu rejalarda evakuatsiya qilish, birinchi yordam ko'rsatish va avariya oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha bosqichma-bosqich ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Jamiyat muntazam ravishda yangi ma'lumotlar va potensial xavflar asosida o'z yo'riqnomalarini yangilab turadi.

Favqulodda vaziyatlarda choralar ko'rish jarayonining muhim elementi - bu ogohlantirish tizimi bo'lib, xodimlar va xizmatlarni tahdidlar haqida tezkor xabardor qiladi va ularning tayyorligini ta'minlaydi. Mahalliy va viloyat favqulodda vaziyatlar bo'yicha organlar bilan hamkorlikda Jamiyat tashqi tuzilmalar bilan sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish va favqulodda hodisalar sodir bo'lgan taqdirda oqibatlarini minimallashtirish imkoniyatiga ega.

Bundan tashqari, **Jamiyat xodimlarni yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarga tayyorlash uchun choralar ko'radi.** Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha hududiy boshqarmasi bilan hamkorlikda samarali evakuatsiya va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni ta'minlash maqsadida turli favqulodda vaziyatlar simulyatsiyasi qilinadigan taktik va maxsus mashqlar kabi amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlash

- 74 Boshqaruv yondashuvi
- 74 Xayriya va homiylik
- 75 Faoliyat yuritilayotgan hududlarni rivojlantirish



MAHALLIY JAMOALARNI QO'LLAB-QUVVATLASH

Boshqaruv yondashuvi

GRI 3-3

O'zbekistonda mahalliy hamjamiyatlarning rivojlanishi va farovonligiga ko'maklashish "Navoiyazot" AJ ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. "Navoiyazot" AJ ijtimoiy mas'ul Jamiyat sifatida ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohalarida xayriya va ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish bilan birgalikda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Navoiy viloyatini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarga alohida e'tibor qaratilyapti va bu viloyatda barqaror o'sish va turmush sharoitini yaxshilashga xizmat qilmoqda.



Jamiyat mahalliy hokimiyat organlari va manfaatdor tomonlar bilan faol hamkorlik qiladi, ishonch va aholi ehtiyojlarini tushunishga asoslangan munosabatlar quradi. Bunda, mahalliy aholini qo'llab-quvvatlash ish o'rinlari yaratish bilan cheklanib qolmaydi – Jamiyat hudud iqtisodiyoti va butun mamlakat rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga intilmoqda.



2024-yilda aholining ijtimoiy himoyalangan toifalarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu faoliyat doirasida ta'lim muassasalarida va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlarda tadbirlar o'tkazildi.

Ushbu tashabbuslar Jamiyatning viloyatda ijobiy imidj yaratish va davlat va jamiyat oldidagi majburiyatlarini bajarishga intilishidan dalolat beradi va bu ko'pincha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablaridan oshib ketadi.

Xayriya va homiylik

GRI 203-1

2024-yilda ijtimoiy sheriklik doirasida Jamiyat tomonidan ijtimoiy infratuzilma obyektlarini mustahkamlashga qaratilgan

54 ta rejalashtirilgan chora-tadbirlar muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Ijtimoiy infratuzilma obyektlarini saqlash va oziq-ovqat xarajatlarini qoplash uchun yo'naltirilgan mablag'larning umumiy hajmi

60,6 mlrd so'mni tashkil etdi, shundan:

- "Oftobjon" bolalar sog'lomlashtirish oromgohiga - **5,5** mlrd so'm ajratildi
- Sanatoriy-profilaktoriy uchun - **10,8** mlrd so'm
- Tibbiy-sanitariya bo'limi uchun - **19,5** mlrd so'm
- Sut va boshqa profilaktika mahsulotlari xarajatlarini qoplash uchun - **24,8** mlrd so'm



2024-yilda xayriya va homiylik yo'nalishlari, so'm

Foydalanuvchilar	Miqdor	Tadbir
"Bio-Pellet" MCHJ	500,690	Tadbirkorlik subyekting ma'muriy binosini ta'mirlash.
«Hayot» MFY	90,840	Bolalar va sport mashqlari maydonchalarini qurish.
«Naslchilik ilmiy-ishlab chiqarish markazi»DM	320,964	Tovar mahsulotini seleksiya bo'yicha davlat ilmiy-ishlab chiqarish markaziga beg'araz topshirish.
«Navoiy Viloyati Hokimligi Yagona Buyurtmachi Xizmati» DUK	500,000	Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'mir-qurilish ishlarini amalga oshirish uchun pul mablag'larini o'tkazish.
Buxoro viloyati veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish	6,612	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish uchun tovar mahsulotini beg'araz topshirish.
Izatullayeva Dildora Dadaxanovna	27,417	Korxonaning ehtiyojmand xodimlari uchun uy-joyni ta'mirlash.
Mahallalar Uyushmasi	54,284	Aholi punktlari uyushmasiga pul mablag'larini o'tkazish.
O'zbekiston Havaskor va professional kikkoksing assotsiatsiyasi	200,000	O'zbekiston havaskor va professional kikkoksing assotsiatsiyasiga homiylik yordami.
Xafizova Nasiba Muxiddinovna	43,017	Korxonaning ehtiyojmand xodimlari uchun uy-joyni ta'mirlash.
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi	200,000	Pul mablag'larini o'tkazish
"Interforum" DUK	3 470,290	Pul mablag'larini o'tkazish
"Navoiyazot" AJ kasaba uyushma qo'mitasi	41,360	Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida, ishsiz 15 nafar ayol bandligini ta'minlash maqsadida tovar-moddiy boyliklarni (TMB) sotib olish uchun mablag'larni o'tkazish.
Respublika "Mahalla" jamg'armasi	40 785,024	Pul mablag'larini o'tkazish
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar	3 000,000	Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga pul mablag'larini o'tkazish.
O'zbekiston Ekologik partiyasi	48,538	Kompyuter uskunalari bepul topshirish
Navoiy viloyati Dzyudo federatsiyasi	181,888	Pul mablag'lari ko'rinishidagi homiylik
Yangi ariq MFY	7,015	Kam ta'minlangan oilalar uyini ta'mirlash
Jami:	49 477,941	

Ushbu tadbirlarni boshqarish va ularning bajarilishini nazorat qilish **Investitsiyalar va loyihalarni amalga oshirish boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.**

Faoliyat yuritayotgan hududlarni rivojlantirish

2024-yilda Jamiyat ijtimoiy sheriklik dasturlari doirasida hududda mehnat salohiyatini rivojlantirish bo'yicha faol ishini davom ettirdi. **Asosiy qadamlardan biri yirik investitsiya loyihasida ishtirok etish bo'ldi - Polshaning "Alliance Capital KSSp. z o.o." kompaniyasi bilan hamkorlikda "Navoiyazot" AJning negzida gidroksipropilmetilsellyuloza (HPMC) va sellyuloza ishlab chiqarish tashkil etildi.**

Loyiha nafaqat

8 mln dollar to'g'ridan-to'g'ri **xorijiy investitsiyalarni jalb qilinishiga olib keldi, balki hududning barqaror rivojlanishiga ham katta** hissa qo'shdi:

100 ta yangi ish o'rni yaratilib, mahalliy kadrlarning kasbiy o'sishi va malakasini oshirish uchun imkoniyatlar ochildi. Yiliga

6 ming tonna NRMS va **10 ming tonna** sellyuloza ishlab chiqarish quvvatiga ega korxonada 2024-yil dekabr oyida ishga tushirildi. To'g'ridan-to'g'ri ish bilan ta'minlashdan tashqari, malaka oshirish, hududda bandlikni ta'minlash, mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan qo'shimcha tashabbuslar amalga oshirilmoqda.



Energetika infratuzilmasini barqaror rivojlantirish va kengaytirish doirasida Jamiyat mahalliy aholi bandligini ta'minlash va hududda hayot sifatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratmoqda. 2024-yilda Xitoyning Sinoma Energy Conservation International Investment Co., Ltd davlat Jamiyati bilan

260 mln dollarlik

quyosh elektr stansiyasini qurish bo'yicha kelishuvga erishildi. Loyiha nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini karbonsizlantirishga yordam beradi (yiliga **265 ming tonnagacha CO₂** chiqindilarining oldini oladi), balki to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy ta'sir ko'rsatadi

60 ta yangi ish o'rni,

jumladan, mahalliy mutaxassislar va texnik xodimlar uchun ish o'rinlari yaratiladi. Bundan tashqari, barqaror va ekologik toza elektr energiyasidan foydalanish imkoniyati loyiha amalga oshirilayotgan hududda mehnat sharoitlarini yaxshilash, biznes jarayonlarining barqarorligi va infratuzilma imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, hisobot davrida Navoiy va Xorazm viloyatlaridagi **6 ta** ijtimoiy obyektida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Jami moliyalashtirish hajmi QQSni hisobga olgan holda **651,2 mln so'mni** tashkil etdi. Ishlar sirasiga ta'lim infratuzilmasini modernizatsiya qilish, jamoat joylarini rivojlantirish, turarjoy binolari va sport inshootlarini ta'mirlash ishlari kirdi.

Mahalliy jamoalar bilan o'zaro hamkorlik mexanizmlari

SASB RT-CH-210a.1

Korxonada mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlashni boshqarish **Kapital qurilish va ijtimoiy masalalar bo'yicha Boshqaruv raising o'rinbosari zimmasiga yuklatilgan bo'lib**, u Maishiy va ijtimoiy masalalar bo'limi hamda Kasaba uyushma qo'mitasini nazorat qiladi. Shuningdek Jamiyat tarkibiga raising Yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi va Xotin-qizlar qo'mitasi kiradi.

2024-yilda Boshqaruv Kengashi qarorlari va Jamiyat buyruqlariga muvofiq oltita obyektida homiylik asosida jami

651,2 mln so'mlik (QQS bilan) qurilish-ta'mirlash ishlari bajarildi.
Shu jumladan:



Navoiy viloyati hokimining 2024-yil 30-yanvardagi 25-5-0-P/24-sonli qarori hamda Boshqaruv kengashining 2024-yil 5-fevraldagi 03/2024-sonli qarori asosida Navbahor tumanidagi kasb-hunar ta'limi muassasasining o'quv-amaliy xonalarida

314,0 mln so'mlik (QQS bilan) ta'mirlash ishlari o'tkazildi;

"O'zkiyosanoat" AJning Xorazm viloyati Xiva tumanida joylashgan "Bio-Pellet" MChJga qarashli ma'muriy binoni ta'mirlash uchun homiylik yordami ko'rsatish to'g'risidagi 14.05.2024-yildagi 03/1-396-sonli xati, hamda Boshqaruv kengashi majlisining 14/2024-sonli 2024-yil 17-maydagi bayonnomasi asosida va jamiyatning 2024-yil 15-maydagi 975/610-sonli buyrug'i bilan Xorazm viloyati Xiva tumanida

189,7 mln so'mlik (QQS bilan) qurilish-ta'mirlash ishlari bajarilgan;

Navoiy shahar hokimining 2024-yil 6-martdagi 01-03/189-sonli qarori va Boshqaruv kengashining 2024-yil 6-fevraldagi 04/2024-sonli qarori asosida Navoiy shahar "Hayot" MFYda

77,1 mln so'mga (QQS bilan) bolalar maydonchalari va sport maydonchasi qurildi;

Navoiy viloyati Karmana tumani "Zarafshon" MFYning 2024-yil 20-maydagi 01-07-sonli murojaati va Jamiyatning 2024-yil 23-maydagi 977-sonli buyrug'i asosida Karmana tumani, "Zarafshon" mahallasi, Kavala ko'chasidagi 72-uyda

43,0 mln so'mlik (QQS bilan) ta'mirlash ishlari amalga oshirildi;

Navoiy viloyati Karmana tumani "Mirsaid Baxrom" MFY-ning 2024-yil 15-martdagi 4-sonli murojaati va Jamiyatning 2024-yil 18-martdagi 543-sonli buyrug'i asosida Karmana tumani, "Mirsaid Baxrom" MFY, Amir Temir ko'chasi 6-uyda

27,4 mln so'mlik (QQS bilan) ta'mirlash ishlari amalga oshirildi;

O'zbekiston dzyudo federatsiyasi Navoiy viloyati bo'limi raising 2024-yil 18-sentabrdagi 06/6986-sonli xati, Boshqaruv kengashining 2024-yil 19-sentabrdagi 28/2024-sonli qarori va Jamiyatning 2024-yil 20-sentabrdagi 1787-sonli buyrug'i asosida "Ximik" stadionida joylashgan dzyudo zalida

21,5 mln so'mlik ta'mirlash ishlari o'tkazildi

Mahalliy aholi manfaatlarini inobatga olgan holda ekologiya va sog'liqqa salbiy ta'sir xavfini hisobga olish

Har qanday yangi infratuzilma loyihagini rejalashtirishda majburiy tarzda AMTB jarayoni, shu jumladan, energiya iste'molini tekshirish, atrof-muhit ekspertizasi va davlat talablariga muvofiqlikni tekshirish amalga oshiriladi. "Navoiyazot" AJning obyektlari davlat ekologiya ekspertizasining ijobiy xulosasi bo'lgan taqdirdagina foydalanishga topshirilishi mumkin. Bu tartib-tamoyil doirasida majburiy jamoatchilik muhokamalari o'tkaziladi, bu qarorlar qabul qilishda mahalliy hamjamiyatlarning fikri inobatga olinish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni minimallashtirishni ta'minlaydi.



2024-yilda aholi ishtirokidagi bunday tartib-tamoyillar

5 qurilish va rekonstruksiya loyihasi bo'yicha amalga oshirildi.

Atrof-muhit monitoringi mahalliy jamoalar uchun xavflarni boshqarishda muhim rol o'ynaydi va atrof-muhit va aholi salomatligiga salbiy ta'sirlarni o'z vaqtida aniqlash va minimallashtirish imkonini beradi. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga amal qilgan holda korxonaning zararli ta'sirini kamaytirish bo'yicha tizimli ishlarni olib bormoqda. Chiqindilarni, oqova suvlarni oqizish va tozalash inshootlarining ishlashini doimiy monitoring qilish milliy tizimda texnik vakolatlari tasdiqlangan korxonaning ekomtahil (sanitariya) laboratoriyasi tomonidan amalga oshiriladi. Laboratoriya kelishilgan jadvallarga muvofiq, korxonada, sanitariya-muhofaza zonasida, Navoiy shahri va uning atrofidagi aholi punktlarida atmosfera havosidan namuna oladi va nazoratni amalga oshiradi. Barcha natijalar 40 yil davomida saqlanadi. Bundan tashqari, Navoiy viloyati Atrof-muhit ifloslanishini monitoring qilish bo'limi bilan birgalikda instrumental namunalar olinib, bu mahalliy hamjamiyat uchun nazorat shaffofligini oshiradi.



Ilovalar

- 78 1-ilova.
GRI/ SASB Content
Index mundarijasi
- 86 2-ilova.
Qo'shimcha ma'lumot
- 87 3-ilova. Glossariy
- 88 4-ilova.
Bog'lanish uchun ma'lumot



1-ilova. GRI/ SASB Content Index mundarijasi

GRI/SASB ko'rsatkichi	Oshkor etish	Qism	bet	Nazarda tutilmagan talab	Istisnolar Sabab	Izoh
GRI 2. Ma'lumotlarni umumiy oshkor qilish						
1. Hisobdorlikni tashkil etish va amaliyoti						
RT-CH-000.A	Hisobot segmentlari bo'yicha ishlab chiqarish	2024-yil uchun asosiy ko'rsatkichlar	7			
2-1	Tashkilot haqida ma'lumot	"Jamiyat haqida ma'lumot" bo'limi	13			
2-2	Tashkilotning barqaror rivojlanish sohasidagi hisobotiga kiritilgan korxonalar	"Hisobot haqida" bo'limi	13			
2-3	Hisobot davri, davriylik va bog'lanish uchun shaxs	"Hisobot haqida" bo'limi	13, 88			
2-4	Axborotni qayta ko'rib chiqish	"Atmosfera emissiyalari", "Chiqindilarni boshqarish", "Suv resurslarini boshqarish", "MMQ va SX masalalarini boshqaruvga yondashuv" bo'limi				Ma'lumotlarning to'liq ro'yxatini hisobga olgan holda ifloslantiruvchi moddalar emissiyasi ko'rsatkichlari qayta ko'rib chiqildi. Hisob usullari yangilanishi munosabati bilan chiqindilar bo'yicha ko'rsatkichlar qayta ko'rib chiqildi. Suvdan foydalanish ko'rsatkichlari ularni oshkor qilish yondashuviga o'zgartirishlar kiritilishi munosabati bilan qayta ko'rib chiqildi. Baxtsiz hodisalar haqidagi ma'lumotlar ilgari ishlatilmagan qo'shimcha koeffitsientlarni hisobga olgan holda tuzatildi.
2-5	Tashqi tasdiqlash	Tegishli emas	-			Hisobotni tashqi tasdiqlash amalga oshirilmagan.
2. Faoliyat va xodimlar						
2-6	Faoliyat, qiymat yaratish zanjiri va boshqa ishbilarmonlik munosabatlar	"Jamiyat haqida ma'lumot" bo'limi	9, 13			
2-7	Ishchilar	"Kadrlar bilan ishlash" bo'limi	35, 36, 86			
2-8	Tashkilot xodimlari bo'lmagan xodimlar	"Kadrlar bilan ishlash" bo'limi				
3. Boshqaruv						
2-9	Boshqaruv organlarining tuzilishi va tarkibi	"Korporativ boshqaruv tizimi" bo'limi	15			
2-10	Oliy boshqaruv organiga nomzod ko'rsatish va saylash	"Kuzatuv kengashi" kichik bo'limi	16			
2-11	Oliy boshqaruv organining raisi	"Kuzatuv kengashi" kichik bo'limi	17			

GRI/SASB ko'rsatkichi	Oshkor etish	Qism	bet	Istisnolar	
				Nazarda tutilmagan talab	Sabab
					Izoh
2-12	Ta'sirni boshqarishni nazorat qilishda oliy boshqaruv organining roli	"Korporativ boshqaruv tizimi" bo'limi	15, 16		
2-13	Ta'sirlarni boshqarish uchun mas'uliyat topshirish	"Boshqaruv" kichik bo'limi	20		
2-14	Barqaror rivojlanish bo'yicha hisobot berishda oliy boshqaruv organining roli	"Kuzatuv kengashi" kichik bo'limi	15, 16		
2-15	Manfaatlar to'qnashuvi	"Manfaatlar to'qnashuvi" kichik bo'limi	32		
2-16	Eng muhim masalalar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish	"Fikr bildirish mexanizmlari" bo'limi	32		
2-17	Oliy boshqaruv organining jamoaviy bilimlari	"Kuzatuv kengashi" kichik bo'limi	16		
2-18	Oliy boshqaruv organi faoliyatini baholash	"Kuzatuv kengashi" kichik bo'limi	17		
2-19	Mukofotlash siyosati	"Kuzatuv kengashi a'zolarini mukofotlash" bo'limi "Boshqaruv a'zolarini mukofotlash" bo'limi	19, 22		
2-20	Mukofotlash miqdorini aniqlash jarayoni	"Kuzatuv kengashi a'zolarini mukofotlash" bo'limi "Boshqaruv a'zolarini mukofotlash" bo'limi	19, 21		
2-21	Yillik umumiy mukofotlash koeffitsiyenti	-	-	Eng ko'p maosh oladigan mansabdor shaxsning umumiy yillik ish haqining barcha xodimlarning o'rtacha yillik ish haqiga nisbati	2023 va 2024-yillarda Boshqaruv Kengashiga yillik mukofot to'lanmadi.
4. Strategiya, siyosat va amaliyot					
2-22	Barqaror rivojlanish sohasidagi bayonot	"Boshqaruv raisining murojaati" bo'lim, "ESG boshqaruvi" bo'limi	3, 22		
2-23	Siyosatlarga sodiqlik	"Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limi 3-bob "Bizning xodimlar" "Iqlim o'zgarishi" bo'limi	27, 35, 52		
RT-CH-530a.1	Sanoatga ta'sir etuvchi ekologik va ijtimoiy omillarga tegishli bo'lgan davlat me'yoriy hujjatlari va/yoki siyosat takliflari bilan bog'liq korporativ nuqtai nazarlarni muhokama qilish	3-bob "Bizning xodimlar" "Ekologik boshqaruv tizimi" bo'limi	35, 49		

GRI/SASB ko'rsatkichi	Oshkor etish	Qism	bet	Istisnolar	
				Nazarda tutilmagan talab	Sabab
Izoh					
2-24	O'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish	"Korupsiyaga qarshi kurashish" bo'limi "ESG boshqaruvi" bo'limi	22, 27		
2-25	Salbiy ta'sirlarni bartaraf etish jarayonlari	"Fikr bildirish mexanizmlari" bo'limi	32		
2-26	Maslahat olish va e'tiroz bildirish mexanizmlari	"Fikr bildirish mexanizmlari" bo'limi	32		
2-27	Qonunlar va normativ aktlarga rioya qilish	"Qonunchilikga rioya qilish" bo'limi	30		
2-28	Uyushmalarga a'zolik	"Korporativ boshqaruv tizimi" bo'limi	20		
5. Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatlar					
2-29	Manfaatdor tomonlar bilan munosabatda bo'lishga yondashuv	"Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatlar" bo'limi	23		
RT-CH-210a.1	Mahalliy hamjamiyatlarning manfaatlari bilan bog'liq xavf va imkoniyatlarni boshqarish sohasida manfaatdor tomonlarni jalb qilish jarayonlarining tavsifi	6-bob. "Mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlash"	75		
2-30	Jamoa shartnomalari	"Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash" bo'limi	42		
Muhim mavzular (GRI 3: Muhim mavzular 2021)					
Muhim mavzularni aniqlash jarayoni					
3-1	Muhim mavzularni aniqlash jarayoni	"Muhimlikni aniqlash jarayoni" bo'limi	13		
3-2	Muhim mavzular ro'yxati	"Muhimlikni aniqlash jarayoni" bo'limi	13		
"Ekologiya" toifasi (E)					
Iqlim o'zgarishi (GRI 305: Emissiya 2016)					
3-3	Muhim mavzularni boshqarish	"Iqlim o'zgarishi" bo'limi	52		
RT-CH-110a.2	Issiqxona gazlari chiqindilarini boshqarish bo'yicha uzoq muddatli yoki qisqa muddatli strategiya yoki rejaning tavsifi (1-qamrov), emissiyani kamaytirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar va ularga erishish samaradorligini baholash	"Iqlim o'zgarishi" bo'limi	56		
305-1	To'g'ridan-to'g'ri issiqxona gazlari emissiyasi (1-qamrov sohasi)	"Iqlim o'zgarishi" bo'limi	56	Biogen CO ₂ emissiyasi mavjud emas	

GRI/SASB ko'rsatkichi	Oshkor etish	Qism	bet	Istisnolar	
				Nazarda tutilmagan talab	Sabab
305-2	Bilvosita issiqxona gazlari emissiyasi (2-qamrov)	"Iqlim o'zgarishi" bo'limi	57		
305-3	Bilvosita issiqxona gazlari emissiyasi (3-qamrov)	-	-		2024-yilda 3-qamrov sohasi uchun bilvosita issiqxona gazlari emissiyasini hisoblash amalga oshirilmadi.
305-4	Issiqxona gazlarining emissiya intensivligi	"Iqlim o'zgarishi" bo'limi	57		
305-5	Issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish	"Iqlim o'zgarishi" bo'limi	57		
305-6	Ozonni yemiruvchi moddalarning (OYME) emissiyasi	-	-		"Navoiyazot" AJ faoliyatida ozon qatlamini yemiruvchi moddalar mavjud emas. Sovutish uskunalari sovitish moddasi bilan birga me'yoriy talablarga muvofiq xizmat ko'rsatish va utilizatsiya qilish uchun ixtisoslashgan tashkilotlarga beriladi.
RT-CH-110a.1	Global yalpi issiqxona gazlari chiqindilari (1-qamrov), emissiyalarni kamaytirishga qaratilgan qoidalar yoki dasturlarga to'g'ri keladigan % ko'rsatkichi	-	-	Emissiyalarni kamaytirishga qaratilgan qoidalar yoki dasturlarga to'g'ri keladigan foiz ko'rsatkichi	2024-yilda Respublikada tegishli normalar mavjud emasligi sababli Jamiyatning IG chiqindilari tartibga solinmadi.
Atmosferaga emissiyalar (GRI 305: Emissiya 2016)					
3-3	Ahamiyatli mavzular boshqaruvi	"Atmosferaga emissiyalar" bo'limi	58		
305-7	Azot oksidlari (NOx), oltingugurt oksidlari (SOx) va atmosferaga chiqariladigan boshqa muhim emissiyalar	"Atmosferaga emissiyalar" bo'limi	58		
RT-CH-120a.1	Quyidagi ifloslantiruvchi moddalarning atmosferaga emissiyasi: (1) azot oksidi (NOx), azot (I) oksidi (N ₂ O) bundan mustasno; (2) oltingugurt oksidi (SOx); (3) uchuvchi organik birikmalar (UOB); (4) sog'liq uchun xavfli bo'lgan atmosferani ifloslantiruvchi moddalar.	"Atmosferaga emissiyalar" bo'limi	58		
Energiyani boshqarish (GRI 302: Energiya 2016)					
3-3	Muhim mavzularni boshqarish	"Energiya menejmenti" bo'limi	59		
302-1	Tashkilot ichida energiya iste'moli	"Energiya menejmenti" bo'limi	60		
RT-CH-130a.1	1) Umumiy energiya iste'moli, (2) elektr energiyasini iste'moli foizi, (3) qayta tiklanadigan energiya foizi, (4) umumiy elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi	"Energiya menejmenti" bo'limi	60		
302-3	Energiya iste'moli intensivligi	"Energiya menejmenti" bo'limi	61		
302-4	Energiya sarfini kamaytirish	"Energiya menejmenti" bo'limi	61		

GRI/SASB ko'rsatkichi	Oshkor etish	Qism	bet	Istisnolar	
				Nazarda tutilmagan talab	Sabab
Suv resurslarini boshqarish (GRI 303: Suv va chiqindilar 2016)					
3-3	Muhim mavzularni boshqarish	"Suv resurslarini boshqarish" bo'limi	64		
303-1	Umumiy resurs sifatida suvdan foydalanish	"Suv resurslarini boshqarish" bo'limi	64, 65		
303-2	Suv chiqarib tashlash bilan bog'liq ta'sirlarni boshqarish	"Suv resurslarini boshqarish" bo'limi	64		
303-3	Suv olish	"Suv resurslarini boshqarish" bo'limi	64, 65		
303-4	Chiqindi suvlarni chiqarib yuborish	"Suv resurslarini boshqarish" bo'limi	64, 65		
303-5	Suv iste'moli	"Suv resurslarini boshqarish" bo'limi	65		
RT-CH-140a.1	Suv iste'moli; yuqori suv tanqisligi mavjud hududlarda %	"Suv resurslarini boshqarish" bo'limi	65		
RT-CH-140a.2	Suv sifati qoidalariga rioya qilmaslik holatlari soni	"Suv resurslarini boshqarish" bo'limi	65		
RT-CH-140a.3	Suv resurslarini boshqarish xavflarining tavsifi va ushbu xavflarni kamaytirish bo'yicha strategiya va amaliyotlarni muhokama qilish	"Suv resurslarini boshqarish" bo'limi	65		
Chiqindilarni boshqarish (GRI 306: Chiqindilar 2016)					
3-3	Muhim mavzularni boshqarish	"Chiqindilarni boshqarish" bo'limi	62		
306-1	Chiqindilarni hosil qilish va chiqindilar bilan bog'liq jiddiy ta'sirlar	"Chiqindilarni boshqarish" bo'limi	62		
306-2	Chiqindilar bilan bog'liq jiddiy ta'sirlarni boshqarish	"Chiqindilarni boshqarish" bo'limi	62		
306-3	Chiqindilarning hosil bo'lishi	"Chiqindilarni boshqarish" bo'limi	63		
306-4	Chiqindilarni utilizatsiya qilish	"Chiqindilarni boshqarish" bo'limi	63		
RT-CH-150a.1	Xavfli chiqindilar hajmi	"Chiqindilarni boshqarish" bo'limi	63		
306-5	Chiqindilarni yo'q qilish va joylashtirish	"Chiqindilarni boshqarish" bo'limi	63		

GRI/SASB ko'rsatkichi	Oshkor etish	Qism	bet	Istisnolar	
				Nazarda tutilmagan talab	Sabab
"Ijtimoiy" toifa (S)					
Xodimlarni boshqarish (GRI 401: Bandlik 2016) (GRI 402: Xodimlar va rahbariyat o'rtasidagi munosabatlar 2016) (GRI 404: O'qish va ta'lim 2016) (GRI 408: Bolalar mehnati 2016) (GRI 409: Majburiy mehnat)					
3-3	Muhim mavzularni boshqarish	"Boshqaruvga yondashuv" bo'limi	35, 40		
401-1	Yangi xodimlarni yollash va xodimlar aylanmasi	"Kadrlarni tanlash" bo'limi	37-39		
401-2	To'liq bandlik asosida ishlaydigan xodimlarga beriladigan va vaqtinchalik yoki to'liq bo'lmagan bandlik asosida ishlaydigan xodimlarga berilmaydigan imtiyozlar	"Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash" bo'limi	42		
401-3	Tug'ruq ta'tili	"Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash" bo'limi	42, 44		
402-1	Tashkilot faoliyatidagi muhim o'zgarishlar borasida minimal xabar berish muddati	"Kadrlar bilan ishlash" bo'limi	37		
404-1	Har bir xodim uchun o'rtacha yillik o'qish soatlari soni	"Kadrlarni tayyorlash va rivojlantirish" bo'limi	41		
404-2	Davriy ish faoliyati va martaba rivojlanishi baholanadigan xodimlarning ulushi, xodimlar jinsi va toifasi bo'yicha	"Kadrlarni tayyorlash va rivojlantirish" bo'limi	40		
404-3	Davriy ish faoliyati va martaba rivojlanishi baholanadigan xodimlarning ulushi, xodimlar jinsi va toifasi bo'yicha	"Kadrlarni tayyorlash va rivojlantirish" bo'limi	41		
408-1	Bolalar mehnatidan foydalanish xavfi katta bo'lgan korxonalar va yetkazib beruvchilar	"Kadrlar bilan ishlash" bo'limi	35, 37		
409-1	Majburiy mehnatidan foydalanish xavfi katta bo'lgan korxonalar va yetkazib beruvchilar	"Kadrlar bilan ishlash" bo'limi	37		
Xilma-xillik va teng imkoniyatlar (GRI 405: Xilma-xillik va teng imkoniyatlar 2016) (GRI 406: Kamsitishga yo'l qo'ymaslik 2016)					
3-3	Muhim mavzularni boshqarish	"Xilma-xillik va inklyuzivlik" bo'limi	35, 45		
405-1	Boshqaruv organlari va xodimlarining xilma-xilligi	"Xilma-xillik va inklyuzivlik" bo'limi	36, 45, 47		
405-2	Erkaklar va ayollarning asosiy maoshi va ish haqi o'rtasidagi nisbat	"Xilma-xillik va inklyuzivlik" bo'limi	45, 86, 87		
406-1	Kamsitish holatlari va holatni tuzatish choralari	"Xilma-xillik va inklyuzivlik" bo'limi	45		

GRI/SASB ko'rsatkichi	Oshkor etish	Qism	bet	Istisnolar	
				Nazarda tutilmagan talab	Sabab
Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi (GRI 403: Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik 2018)					
3-3	Muhim mavzularni boshqarish	"MMQ va SX masalalarini boshqarishga yondashuv" bo'limi	68		
403-1	Mehnat muhofazasi va xavfsizlikni boshqarish tizimi	"MMQ va SX masalalarini boshqarishga yondashuv" bo'limi	68		
403-2	Xatarlarni aniqlash, xavflarni baholash, baxtsiz hodisalarni tekshirish	"MMQ va SX masalalarini boshqarishga yondashuv" bo'limi	68		
403-3	Mehnat muhofazasi xizmati	"MMQ va SX masalalarini boshqarishga yondashuv" bo'limi	68		
403-4	Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik masalalari bo'yicha xodimlarning ishtiroki, maslahatlashuvi va muloqoti	"MMQ va SX masalalarini boshqarishga yondashuv" bo'limi	68		
403-5	Mehnatni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi masalalari bo'yicha xodimlarni o'qitish	"Xavfsizlik madaniyatini oshirish va MMQ va SX masalalari bo'yicha o'qitish" bo'limi	69, 70		
403-6	Ishchilar salomatligini mustahkamlash dasturlari	"MMSX masalalarini boshqarishga yondashuv" bo'limi	68		
403-7	Ishbilarmonlik munosabatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan salomatlik va mehnat xavfsizligiga ta'sirining oldini olish va yumshatish	"Xavfsizlik madaniyatini oshirish va MMQ va SX masalalari bo'yicha o'qitish" bo'limi Jarohatlanishlarning oldini olish" bo'limi	69, 70		
RT-CH-320a.1	(1) Ro'yxatga olingan baxtsiz hodisalarning umumiy takrorlanishi (TRIR) va (2) (a) doimiy ishchilar va (b) pudratchi tashkilotlar ishchilari o'rtasida o'limga olib kelgan baxtsiz hodisalar takrorlanishi	"Jarohatlanishlarning oldini olish" bo'limi	71	Pudrat tashkilotlari xodimlari to'g'risidagi ma'lumotlar	Qisman oshkor etish
RT-CH-320a.2	To'liq stavkada ishlaydigan xodimlar va pudratchilar xodimlarining uzoq muddatli (surunkali) kasalliklarga duchor bo'lish xavfini baholash, monitoring qilish va yumshatish sohasidagi chora-tadbirlar tavsifi	"Jarohatlanishlarning oldini olish" bo'limi	70		
403-8	Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish tizimi bilan qamrab olingan xodimlar	"MMQ va SX masalalarini boshqarishga yondashuv" bo'limi "Xavfsizlik madaniyatini oshirish va MMQ va SX masalalari bo'yicha o'qitish"	68, 79		
403-9	Ishlab chiqarish jarohatlari	"Jarohatlanishlarning oldini olish" bo'limi	70, 71		
403-10	Kasbiy kasalliklar	"MMQ va SX masalalarini boshqarishga yondashuv" bo'limi	70		
RT-CH-540a.1	PSIC, PSTIR, PSISR - jarayonlar xavfsizligi ko'rsatkichlari	"Jarohatlanishlarning oldini olish" bo'limi	70, 72		
RT-CH-540a.2	Transport hodisalari soni	"Jarohatlanishlarning oldini olish" bo'limi	70	2024-yilda transport hodisalari qayd etilmadi	

GRI/SASB ko'rsatkichi	Oshkor etish	Qism	bet	Istisnolar		
				Nazarda tutilmagan talab	Sabab	Izoh
Mahalliy hamjamiyatlar (GRI 201: Iqtisodiy samaradorlik 2016) (GRI 203: Bilvosita iqtisodiy ta'sirlar 2016) (GRI 413: Mahalliy hamjamiyatlar 2016)						
3-3	Muhim mavzularni boshqarish	6-bob. Mahalliy hamjamiyatlarni qo'llab-quvvatlash	74			
201-1	Yaratilgan va taqsimlangan bevosita iqtisodiy qiymat	"Iqtisodiy samaradorlik" bo'limi	12			
203-1	Infratuzilmaga investitsiyalar va xizmatlarni qo'llab-quvvatlash	"Xayriya va homiylik" bo'limi	74			
RT-CH-410a.1	Samarali foydalanish uchun mo'ljallangan mahsulotlardan olingan daromad	"Iqtisodiy samaradorlik" bo'limi	12			
RT-CH-410b.1	1) Kimyoviy moddalarni tasniflash va markalashning global uyg'unlashtirilgan tizimining (SGS) 1 va 2 toifalari bo'yicha sog'liq va atrof-muhit uchun xavfli moddalarni o'z ichiga olgan mahsulotlarning foiz ulushi, (2) bunday mahsulotlarning xavfi bahodan foiz ulushi	"Mahsulot sifati va xavfsizligi" bo'limi	66			
RT-CH-410b.2	(1) xavfli kimyoviy moddalar bilan ishlash va (2) antropogen ta'sir va/yoki atrof-muhitga ta'sirni kamaytirishga yordam beradigan muqobil usullarni ishlab chiqish sohalaridagi strategiya tavsifi	"MMQ va SX masalalarini boshqarishga yondashuv" bo'limi	62			
RT-CH-410c.1	Tarkibida GMO bo'lgan mahsulotlardan olingan daromadlar ulushi	-			Tegishli emas	Jamiyat tarkibida GMO bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarmaydi
"Boshqaruv va iqtisod" toifasi (G)						
Mas'uliyatli ta'minot zanjiri (GRI 204: Xarid qilish amaliyoti 2016)						
204-1	Faoliyatning muhim hududlarida mahalliy yetkazib beruvchilarga to'g'ri keladigan xarajatlar ulushi	"Mas'uliyatli ta'minot zanjiri" bo'limi	33			
Korrupsiyaga qarshi kurashish (GRI 205: Korrupsiyaga qarshi kurashish 2016)						
3-3	Muhim mavzularni boshqarish	"Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limi	27			
205-1	Korrupsiya bilan bog'liq operatsiyalar, baholangan xavflar	"Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limi	28, 29			
205-2	Korrupsiyaga qarshi siyosat va tartiblar bo'yicha ma'lumot berish va treninglar	"Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limi	29			
205-3	Tasdiqlangan korrupsiya holatlari va ko'rilgan choralar	"Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limi	30			
206-1	"Raqobatga to'sqinlik qilish va monopolistik xatti-harakatlar bilan bog'liq holda tashkilotga nisbatan ko'rilgan huquqiy choralar."	Qonunchilikka rioya etish	30			

2-ilova. Qo'shimcha ma'lumot

Hisobot davri oxirida xodimlarning haqiqiy soni, jins kesimida (faqat asosiy ish joyi bo'lgan xodimlar kiritilgan)

GRI 2-7

Ko'rsatkich	Erkaklar	Ayollar	Jami
Navoiy sh.	5 099	3 435	8 534
2-hudud (Konimex tumani)	32	92	124
3-hudud (Toshkent sh.)	1	1	2
4-hudud (Kumushkon)	0	1	1
5-hudud (Tomdi tumani)	32	1	33
2022 6-hudud (Qashqadaryo viloyati)	5	0	5
7-hudud (Navoiy viloyati)	5	0	5
8-hudud (Buxoro viloyati)	5	0	5
9-hudud (Jizzax viloyati)	5	0	5
Jami Korxonada	5 132	3 530	8 714
Korxonada ulushi	59%	41%	
Navoiy sh.	5 066	3 392	8 458
2-hudud (Konimex tumani)	33	92	125
3-hudud (Toshkent sh.)	1	1	2
4-hudud (Tomdi tumani)	9	0	9
2023 5-hudud (Qashqadaryo viloyati)	5	0	5
6-hudud (Navoiy viloyati)	5	0	5
7-hudud (Buxoro viloyati)	2	0	2
8-hudud (Jizzax viloyati)	5	0	5
Jami Korxonada	5 126	3 485	8 611
Korxonada ulushi	60%	40%	
Navoiy sh.	4 994	3 351	8 345
2-hudud (Konimex tumani)	32	98	130
3-hudud (Toshkent sh.)	1	1	2
4-hudud (Qashqadaryo viloyati)	5	0	5
2024 5-hudud (Navoiy viloyati)	5	0	5
6-hudud (Buxoro viloyati)	2	0	2
7-hudud (Jizzax viloyati)	5	0	5
Jami Korxonada	5 046	3 450	8 494
Korxonada ulushi	59%	41%	

Hisobot davri oxirida xodimlarning haqiqiy soni, MSh toifalari kesimida (asosiy ish joyi bo'lgan xodimlar)

GRI 2-7

Ko'rsatkich	Muddatsiz mehnat shartnomasi asosida ishlaydigan xodimlar soni	Muddatli mehnat shartnomasi asosida ishlaydigan xodimlar soni	Ish kuni kafolatlanmagan xodimlar soni	To'liq ish kunida ishlaydigan xodimlar soni	To'liq bo'lmagan ish kunida ishlaydigan xodimlar soni	Jami
2022 Erkaklar	5 162	22	53	5 108	23	10 368
Ayollar	3 362	168	10	3 448	72	7 060
Jami	8 524	190	63	8 556	95	17 428
2023 Erkaklar	5 095	31	45	5 045	36	10 252
Ayollar	3 232	253	9	3 358	118	6 970
Jami	8 327	284	54	8 403	154	17 222
2024 Erkaklar	4 980	64	50	4 967	27	10 088
Ayollar	3 144	306	10	3 344	96	6 900
Jami	8 124	370	60	8 311	123	16 988

Erkaklar va ayollarning asosiy maoshi o'rtasidagi nisbat, so'm

GRI 405-2

Hisobot davri oxirida erkaklar va ayollarning o'rtacha ish haqi, xodimlar toifalari kesimida

Ko'rsatkich	Bo'linmalar rahbarlari	Mutaxassislar	Texnik xodimlar	Xizmat ko'rsatuvchi xodimlar	Ishlab chiqarish xodimlari
2022 Erkaklar	9 991 865	6 186 352	5 129 142	4 718 551	4 484 276
Ayollar	4 846 261	5 343 796	5 579 592	3 578 890	4 021 334
Erkaklar va ayollarning asosiy maoshi o'rtasidagi nisbat	0,49	0,86	1,09	0,76	0,90
2023 Erkaklar	11 851 922	8 588 283	6 975 312	5 417 840	5 280 292
Ayollar	6 167 053	5 332 225	6 974 998	4 127 688	4 861 208
Erkaklar va ayollarning asosiy maoshi o'rtasidagi nisbat	0,52	0,62	1,00	0,76	0,92
2024 Erkaklar	12 144 560	9 509 325	6 242 771	5 909 585	6 305 026
Ayollar	10 656 449	8 129 497	5 124 692	4 884 304	5 381 413
Erkaklar va ayollarning asosiy maoshi o'rtasidagi nisbat	0,88	0,85	0,82	0,83	0,85
2024-yilda 2023-yilga nisbatan erkaklar va ayollar uchun asosiy ish haqi nisbatining o'zgarishi, %	0,69	0,38	(0,18)	0,08	(0,07)

Erkaklar va ayollarning asosiy maoshi va ish haqi o'rtasidagi nisbat, so'm

GRI 405-2

Ko'rsatkich	Hisobot davri oxirida erkaklar va ayollarning o'rtacha mukofotlash miqdori, xodimlar toifalari kesimida					
	Bo'linmalar rahbarlari	Mutaxassislar	Texnik xodimlar	Xizmat ko'rsatuvchi xodimlar	Ishlab chiqarish xodimlari	
2022	Erkaklar	2 256 211 579	1 757 428 470	91 516 900	1 773 694 050	13 725 006 503
	Ayollar	489 242 953	1 368 761 956	1 369 249 433	1 137 618 800	8 796 526 929
	Erkaklar va ayollarning asosiy ish haqi o'rtasidagi nisbat	0,22	0,78	14,96	0,64	1
2023	Erkaklar	2 569 263 791	1 898 290 689	77 388 500	1 812 961 000	13 818 462 021
	Ayollar	529 592 085	1 395 016 596	1 305 896 000	1 137 972 361	8 675 740 103
	Erkaklar va ayollarning asosiy ish haqi o'rtasidagi nisbat	0,21	0,73	16,87	0,63	0,63
2024	Erkaklar	2 733 261 028	2 618 523 998	145 997 500	2 563 318 033	8 535 203 507
	Ayollar	664 119 403	2 001 062 246	1 833 875 025	1 580 469 100	12 219 677 307
	Erkaklar va ayollarning asosiy ish haqi o'rtasidagi nisbat	0,24	0,76	12,56	0,62	1
2024-yilda 2023-yilga nisbatan erkaklar va ayollar uchun asosiy mukofot nisbatining o'zgarishi, %		0,18	0,04	(0,26)	(0,02)	0,05

3-ilova. Glossariy

AJ	Aksiyadorlik jamiyati
ASK	Asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari
AMTB	Atrof-muhitga ta'sirni baholash
AMMQ	Atrof-muhitni muhofaza qilish
AKT	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
BMTning BRM	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari
BKT	Oqova suvlarni biokimyoviy tozalash
DASI	Davlat azot sanoati instituti
DUK	Davlat unitar korxonasi
EIA	Environmental Impact Assessment - Atrof-muhitga ta'sirni baholash
ESG	Environmental, Social, Governance - atrof-muhitni muhofaza qilish, qulay ijtimoiy sharoitlar va to'g'ri korporativ boshqaruvni o'z ichiga olgan tamoyillar.
ERM	Enterprise Risk Management - Butun tashkilot darajasida risklarni boshqarish.
EBT	Ekologik boshqarish tizimi
GHS	Globally Harmonized System of Classification and Labelling of Chemicals - Kimyoviy moddalarni tasniflash va markalashning global tizimi.
GRI	Global Reporting Initiative - Jamiyatlarning barqaror (ESG) hisobotlari uchun xalqaro standart.
GWP	Global Warming Potential - Global isish potentsiali
GDj	Gigajoul
GMO	Genetik jihatdan o'zgartirilgan organizm
HPMC	Hydroxypropyl Methylcellulose - Hidroksipropiletilsellyuloza
IM	Ifloslantiruvchi moddalar
IEA	International Energy Agency - Xalqaro energetika agentligi
ISO	International Organization for Standardization - standartlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan xalqaro tashkilot.
IG	Issiqxona gazlari
JST	Jahon savdo tashkiloti (World Trade Organization — WTO)
MHTEKM	Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori
MBHS	Milliy buxgalteriya hisobi standarti
MChJ	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
MMQ va SX	Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi
MK	Mehnat kodeksi
N₂O	Azot (I) oksidi
NGFS	Network for Greening the Financial System - Barqaror moliyalashtirishni targ'ib qiluvchi nazorat organlari tarmog'i.
NOx	Azot oksidlari

OChM	Oqovaning yo'l qo'yiladigan cheklangan miqdori
OAV	Ommaviy axborot vositalari
PSIC	Potential Serious Incident Count - Potentsial jiddiy hodisalar soni
PQ	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori
PF	Prezident Farmoni
PVX	Polivinilxlorid (PVC — Polyvinyl Chloride)
QTE	Qayta tiklanadigan energiya
QQS	Qo'shilgan qiymat solig'i
REACH	Registration, Evaluation, Authorisation and Restriction of Chemicals - Yevropa Ittifoqining kimyoviy xavfsizlik bo'yicha reglamenti.
SASB	Sustainability Accounting Standards Board - ESG ma'lumotlarini oshkor qilish standarti
SSP	Shared Socioeconomic Pathways - IPCC iqlim modellashtirishda qo'llaniladigan umumiy ijtimoiy-iqtisodiy ssenariylar.
SSRI	Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi
TCFD	Task Force on Climate-related Financial Disclosures - Iqlim xavflari bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlarni oshkor qilish bo'yicha ishchi guruh (G20 tashabbusi).
TChM	Tashlamalarning yo'l qo'yiladigan cheklangan miqdori
UBT	Uyg'unlashgan boshqaruv tizimi
XMHS	Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari
O'z DSt	O'zbekiston Davlat Standarti
"O'zRTXB" AJ	"O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi" aksiyadorlik jamiyati
CAPEX	Capital Expenditures - Kapital xarajatlar
CBAM	Carbon Border Adjustment Mechanism - Transchegaraviy uglerodni tartibga solish mexanizmi
CH₄	Metan
CO₂	Karbonat angidrid
CSR	Corporate Social Responsibility - Ijtimoiy korporativ mas'uliyat
WRI	World Resources Institute - Barqaror rivojlanish va ekologiya bo'yicha xalqaro ilmiytahliliy markaz

4-ilova. Bog'lanish uchun ma'lumot

GRI 2-1, 2-3

Manzil:

210105, O'zbekiston Respublikasi, Navoi sh. – 5



Telefon:

(99879) 223-28-11
 (99879) 223-75-80
 (99879) 229-18-22
 (99879) 229-22-36



El. manzil:

office@navoiyazot.uz



Internet-resurs:

«Navoiyazot» AJ